Alisher NAVOIY

XAMSAT UL-MUTAHAYYIRIN

BISMILLOHIR-RAHMONIR-RAHIM

Ul olimi allomg‘a yuz hamdu sano —
Kim, Odam ila tuzdi chu bu dayri fano.
Ilmig‘a milk surmodi bir harf yano,
Juz nukta «subhonaka lo ilma lano»[1].

Yuz na’t angakim, xulqi karim o‘ldi fani,
Ya’niki, karam koni rasuli madani,
Mundoq dedi ilm ahlini aylarga g‘ani,
«Man akroma oliman faqad akramani»[2].

(Sallallohu alayhi va alo olihi va ashobihi va atboihi va sallama va ba’du)[3].

Bani odam ashrof va havossi xilvatlarida, xususan, va ahli olam soyir avomi anjumanlarida, umuman, tasavvur va anoniyat umuriniig xudroyi va ujbu nafsoniyat olamining dashtpaymoyi Alisher al mutaxallis bin-Navoiy (g‘affara zunubahu, sattara ubba-hu)[4] andoq arz qilur va bu nav’ sharhg‘a yetkururkim, Oliy hazrati valoyat manqibati koshifi asrori rabboniy va olimi rumuz va asrori samadoniy al-ulamo varsah al-anbiyo[5] qismat koxida ilmi o‘n olamcha erkanlardin iztiror ortuqroq taraka olg‘on va ulamo ummatiga k-anbiyoyi isroil komida yuz yigirma to‘rt ming harif arosida o‘zini tariqat elining muqtado va imomi, sharif xaylining mujtahid va shayx ul-islomi, ya’ni Nur ul-haq vad-din, kahf ul-islom va muslimiyna shayxuno[6] va Mavlono Abdurahmon ul-Jomiy (quddisa ollohu sirrahu va navvara ollohu marqadahu)[7].

R u b o i y:

Kim gunbazi gardandai oliy bunyod,
To davrida ta’jilg‘a bo‘lg‘ay mo‘‘tod,
Odamki bo‘lub xalifa yoydi avlod,
Avlodida bir uyla xalaf bermas yod.

Bu nav’ sohib davlati buzurgvor va bu yanglig‘ sohib kamoli nubuvvat kirdor bu xoksori parishon ro‘zgorni azim iltifotlari bila sarbaland va g‘arib navozishlari bila arjumand qilib, abnoyi jinsim aro sarfaroz, balki jinsi bashardin mumtoz qilur erdilar. Chun pokiza ruhlarining qudsiy oshyon toiri badan

[1] a.: Ollohga maqtovlarki, bizda ilm yo‘q.
[2] a.: Kimki olimni hurmat qilsa, meni (ya’ni, Ollohni) hurtmat qilgan bo‘ladi.
[3] a.: Olloh uni (ya’ni, Muhammad payg‘ambarni), oilasini va sahobalarini va uning izdoshlarini duo qilsin va olqishlasin va so‘ngra...
[4] a.: [Olloh] gunohlarini kechirsin va ayblarini bekitsin.
[5] a.: valiylikning oliy hazrati, Olloh sirlarini kashf etuvchisi, yashirin ishoralar va alohnda sirlar olimi, payg‘ambarlar davomchisi (sifatidagi) alloma.
[6] ya’ni, tariqat elining peshvosi va imomi, muqaddas guruhning serg‘ayrat arbobi va shayx ul-islomi, ya’ni haq va dinning nuri, islom va musulmonlarning sig‘inadigan joyi, shayximiz.
[7] a.: Olloh sirrini muqaddas saqlasin va go‘rini yorug‘ qilsin.

qafasidin ravzai firdavs sori parvoz tuzdi va muborak jismlarining oliy makon paykari dor ul-fano mahbasidin dor ul-baqo anjumanig‘a mayl ko‘rguzdi, agarchi ahli olamg‘a motam yuzlandi, ammo sohib motam bu nomurodi so‘gvor erdim va soyir avlodi odamg‘a azo voqe’ bo‘ldi va lekin sohib azo bu noshodi ta’ziyat shior erdim.

Chun bu motamda majruh ko‘ngul ozori va mahzun xotir iztirobu iztirori haddin oshti. Bu ranj taskini va bu oshub itmiynoni uchun xayolg‘a andoq keldikim, ul sipehri izzu iqbol bila bu xokiyvashi furumoya va ul mehri avji kamol bila bu zarrai kamsarmoya orasida o‘tgan holotdin bir necha varaq nigorish qilg‘aymen va maqolotdin bir necha muqaddima guzorish berg‘aymenki, ul umur zohiru botinimg‘a mujibi mubohot va quvonmoq va dunyoyu oxiratimg‘a boisi iftixor va o‘kunmoqdur. Va agar ul nav’ iltifotlarni mahbubdin muhibg‘a xaloyiq bovar qilmasalar—ul hazratning musannafotida mazkurdur va ul tariyq xususiyatlarni muroddin muridg‘a juz maholot bilmasalar — kulliyotlarida masturkim, bu da’vog‘a ikki dalili muvofiq, balki ikki guvohi sodiqdur, chun bu risola xayolg‘a keldi, binosin bir muqaddima va uch maqola va bir xotimag‘a qo‘yuldi va bu besh daf’a so‘zgakim, o‘qug‘uvchilarg‘a ko‘p mujibi tahayyur erdi — «Xamsat ul-mutahayyirin»[8] tasmiya qilildi.

Muqaddima — alarning nasablariyu valodatlari va soyir avqotlarining sulukiyu bu faqir alar xizmatlarig‘a qachon musharraf bo‘lg‘onim.

Avvalg‘i maqolat — alar bila bu faqir orasida o‘tgan ittifoqiy umuru g‘arobatliq so‘zlarkim, andin alarning bu faqirg‘a xususiyat va iltifotlari ma’lum bo‘lur.

Ikkinchi maqolat — alar bila bu faqir orasida bitilgan ruq’alar bobidakim, holo alarning kulliyotida mazkurdurur va munshaotlarida masturkim, faqir javob bitibmen yo aks.

Uchunchi maqolat — kutub va rasoil bobidakim, alarning musannafotidur va bu faqir alarning ta’lifig‘a boisu tasnifig‘a sabab bo‘lubmen va bu ma’ni hamul kutubning ko‘prog‘ida zohirdur.

Xotima — ul kutubu rasoil bobidakim, bu faqir alar xizmatida ta’lim va istifoda yuzidin o‘qubmen va alarning hayotlarining oxirining tarixi va ul holot kayfiyati.

M U Q A D D I M A

Alarning sharif valodatlari o‘zlarining muborak nazmlari mazmunidin andoq ma’lum bo‘lurkim, sekiz yuz o‘n yettida[9] erkandurkim, o‘z valodatlari zamonidin sekiz yuz to‘qson uch[10] yil o‘tgan ta’rixda jame’ holotkim, alarga o‘tgandur — nazm qilibturlar va ul g‘arib qasidadur va anga «Rashh ul-bol»[11] ot qo‘yubturlar va matlai budurkim:

Manam chu go‘y ba maydoni fushati mahu sol,
Ba savaljoni qazo munqalib zi hol ba hol,

Ba soli hashtsadu haftdah zi hijrati nabaviy
Ki zad zi Makka ba Yasrib surodiqoti jalol,

Zi avji qullai parvozgohi izzu qidam,
Bad-in hazizi havoi sust kardaam paru bol.

Ba hashtsadu navadu se kashidaam imro‘z
Zimomi umr dar in tangnoi hissu xayol[12].

[8] ya’ni, hayratlanganlar beshligi.
[9] 817 – 1414 y.
[10] 893 – 1487/88 y.
[11] ya’ni, yurak tomchisi.
[12] She’rning mazmuni:
Oy va yillarning keng maydonida to‘pdek taqdir chavgoni u holdan bu holga tashlab turgan men Payg‘ambarning Makkadan

Va bu qasidani aytqon ta’rixdin so‘ngra yana besh yil umr gulzoridin bahrayob va hayot chashmasidin serob erdilar. Sekiz yuz to‘qson sekiz[13]dakim, yoshlari zamonidin sekson ikki yil o‘tmish bo‘lg‘aykim, pok ruhlarining qudsiy oshyon bulbuli rihlat navosin og‘oz qilib, gulshani firdavs havosig‘a parvoz qildikim, aning kayfiyati sharh bila o‘z yerida, insholloh, sabt bo‘lg‘ay.

Alarning oliy nasablari imom ul-mujtahidin[14] Muhammad binni Hasan binni Abdulloh binni Tovus binni Hurmuz Shayboniy[15]g‘a borurkim, Hurmuz bani Shaybon qabilasining maliki ermishkim, Bag‘dodda saltanat qilibdur va johiliyat zamonida amir ul-mo‘‘minin Umar (Razi ollohu alayha-l unhu)[16] ilgida islom sharafiga musharraf bo‘lubtur va bani Shaybon qabilasi nasab sharafida arabning ko‘proq qaboyilig‘a mujibi mubohot va tafoxurdur va o‘z otalari va ulug‘ otalari zuhdu taqvo bila mashhur va qazou fatvo bila doim mashg‘ul ermishlar va Jom viloyatida sokin va shayx ul-islom Ahmadi Jom[17] vatanida mutavattin va alarning bu qit’asi bu ma’nig‘a dalildur:

Mavlidam Jomu rashhai qalamam,
Jur’ai jomi shayx ul-islomist.
Lojaram dar jaridai ash’or
Ba du ma’ni taxallusam Jomiyst[18].

Alar kichik yoshlig‘ ekanda ham alardin mufrit fahmu tab’ osori zohir bo‘lur ermish. Ul jumladin budurkim, orifi komil va murshidi mukammal mavlono Faxriddin Luristoniy[19]ki, o‘z zamonining yagonasi va haqiqat bahrining gavhari yakdonasi erkandur — Jom viloyatida alarning otalari uyiga tushgandur, alar to‘rt yo besh yoshlarida emdi maktabg‘a borur vaqtlari emish, hazrati Mavlono alarni o‘z qoshlarida o‘lturtub, barmoq ishorati bila havog‘a mashhur otlarni: «Umar» yo «Ali»dek bitir ermish va alar taammul bila o‘qur ermishlar va hazrati Mavlono alarning tufuliyatda bu nav’ zehnu zakosidin mutabassim, balki mutaajjib bo‘lur ermishlar. Andoqkim, bu so‘z «Nafahot ul-uns»[20]da dag‘i mazkur bor. Tufuliyatlari ayyomidag‘i bu nav’ osoru alomot ko‘p manquldur. Sabt etarg‘a mashg‘ul bo‘lunsa, so‘z uzalur.

Bori kichik yoshidin shabob ahdinnng avoyilig‘achakim, Jom viloyatida ermishlar — alarg‘a foyda yetkurur kishi oz topilg‘on jihatidin:

Quyosh ul nav’ki mag‘rib sori,
Yo Nabi uylaki Yasrib[21] *sori.*

Yasribga (ya’ni, Madinaga) ko‘chishidan 917 [yil] o‘tganda, izzat va qadimiylik parvozgohining eng yuqori cho‘qqisidan, Mana bu eng tubanlikka kelib qanot va quyruqni bo‘shashtirganman. Bukun esa, his va xayolning bu siqiq yerida umr jilovini sakkiz yuz to‘qson uch sanasiga tortib yetkurdim.

[13] 898 – 1492 y.

[14] a.: mujtahidlar (ya’ni, diniy qoidalarni o‘zgartib, Yangi mazhab tuzuvchilar) peshvosi.

[15] Navoiy Jomiy nasabini Shaybon nomli qabilaning maliklaridan Muhammad binni Hasan binni Abdulloh binni Tovus binni Xurmuz Shayboniy deb ko‘rsatadi.

[16] a.: mo‘minlar amiri. Bu yerda Muhammad payg‘ambardan keyingi ikkinchi xalifa Umarning laqabi sifatida ishlatilgan.

[17] Ahmadi Jom – tasavvufning shayxi va mashhur shoirlaridan (vafoti 1141 y.).

[18] Qit’aning mazmuni:

Tug‘ilgan joyim Jom va qalamim tomchisi Shayx ul-islom (Ahmadi Jomiy nazarda tutiladi) jomidan bir qatradir. Binobarin, she’rlar daftarida.

Har ikki ma’noda (shoir bu yerda ikki jihatga: ham Ahmadi Jom ta’limotining unga ta’siriga, hamda u siymoning ham Jom viloyatida tavallud topganiga ishora qilmoqda) taxallusim Jomiydir.

[19] Faxruddin Luristoniy – tasavvuf shayxlaridan. Uni mashhur shayx Hafizuddin Umar Obardihiyning iste’dodli shogirdi sifatida tilga oladilar.

[20] ya’ni, Do‘stlikning yoqimli islari. Jomiyning sufiy arboblar, tasavvuf shoirlari haqidagi tazkirasi.

[21] Yasrib – Madina shahrining qadimiy nomi. She’rda Muhammad payg‘ambarning Makkadan Madinaga ko‘chishi nazarda tutiladi. Navoiy Jomiyning Jomdan Hirotga kelishini ana shu voqeaga o‘xshatadi.

shahrga azimat qilibdurlar va Iroq darvozasida «Nizomiya» madrasasidaki, mavlono Zaynuddin Abubakr Toyobodiy[22] va mavlono Sa'duddin Taftazoniy[23] va ba'zi Amir Xusrav Dehlaviy[24]ni ham derlarkim, anda sokin bo'lg'ondurlar, maskan qilib, tahsilg'a mashg'ul bo'lubturlar va oz fursatda abnoyi jinsdin ishni o'tkarib, balki shahrning mutabahhir ulamosidin ilmu fazlni oshurub, alarg'a ulumu funun hech qaysida zamon ahlidin kishiga ehtiyoj qolmaydur.

R u b o i y:

Har kimga yetar mavhibati subhoniy
Kim, aylagay oni olimi rabboniy.
Bilmoqqa ulum istilohin joniy,
Oz vaqt falak mushtag'il anlar oni.

Agarchi bir necha vaqt bizzarurat ulum kasbig'a ishtig'ol ko'rguzubdurlar, ammo hech vaqt nazm oyinidin xoli emas erkandurlar. Chun alarg'a bizzot mashrabi tavhid voqe' bo'lg'ondur, haqiqat jamolin majoz muzohiri mushohadasida muoyana ko'rub, beixtiyorlig'lar dast berur ekandur. Ul ma'ninn nazm libosida ado qilmoqdin guzirlari yo'q erkandurkim, bu vosita bila o'tqa taskin va o'tluq ko'ngulga orom bo'lur erkandur. Bu jihatdin nazmdin hargiz forig' bo'lmaydurlar va bu boisdin nazmg'a tadvinu devong'a tazyin bo'lubtur va mururi ayyom o'tub, alarning nazmi har sinf she'rdin olamning zolining quloq bila bilagin samin durrlar bila muzayyan va jayb bilan etagin otashin la'l bila mamlu va mulavvan qilibturlar va g'aribdurkim, zohir ulumining takmili vaqtida necha ish alarg'a muyassar bo'lubturkim, bu ummatda o'tgan akobir va sohib kamollardin hech qaysig'a voqe' bo'lg'oni zohir emas.

Ul jumladin biri she'rdurkim borcha asnofin ul nav'kim, har sinfidakim birov saromad va musallam bo'lg'ondur, alar ul kishidek, balki ortug'roq o'z haq va mulki qildilar.

Yana bir: tasavvuf masoili istilohotin andoq takmil qildilarkim, o'tgan mashoyix va avliyoulloh (quddisa ollohu asrorhum)[25]ning rasoil va kutubidinkim, g'oyati iyhomdin ul sharif ilmining idrokidin ko'proq tolibi nomurodlar mahrum, balki oriy erdilar — ul ilmini o'z risola va kitoblarida xo'broq alfozu ado bila ul nav' tasniflar qildilarkim, ko'proq faqirlar aning mutolaasidin hazz topib, bahramand bo'lurlar.

Yana bir: tariqat odobi sulukida andoq daqiq ravish bila tariyqlarini tuzdilarkim, hech kishi alarning zohir ulumi va she'r va muammo va insho va bu nav' nimalardin sharifroq nihoniy amrg'a mashg'ul erkonlarin bilmadilar va fahm ham qilmadilar va bu ishta chun hech mutanaffisqa murshidi komil mulozamati va irodatidin guzir yo'qdur, hazrati qutbi tariqat va g'avsi haqiqat mavlono Sa'duddin Koshg'ariy[26]kim, «Naqshbandiya[27] xojalari silsilasining ul zamonda komil va mukammil murshid va xalifasi erdi — suhbatin va mulozamatin ixtiyor qilib, zamonining soyir murshidlari va komillari xizmatlarng'a — shayx Baxovuddin Umardek va mavlono Boyazid Puroniy va mavlono Muhammad Asad[28]dek buzurglar suhbati sharafig'a dog'i musharraf bo'lur erdilar.

[22] Zaynuddin Abubakr Toyobodiy – davrning mashhur alloma va shariat peshvolaridan. Vafoti – 791/1388 – 89.

[23] Sa'duddin Mas'ud ibn Umar Taftazoniy (1322 – 1389) – Markaziy O'rta Osiyoning mashhur filolog olimi, poetikaga oid risolaga sharh sifatida yozilgan «Muxtasar al-maoniy» asarining muallifi.

[24] Amir Xusrav Dehlaviy (1253 – 1325) – Hindistonda yashab ijod qilgan forsiygo'y shoir. U Nizomiy Ganjaviydan keyin «Xamsa» yaratib, xamsachilik an'anasini davom ettirgan ijodkordir. Xusrav Dehlaviy lirik devonlar va boshqa ko'p asarlar muallifidir.

[25] a.: Olloh ularning sirlarini muqaddas saqlasin.

[26] Sa'duddin Koshg'ariy – Hirotning mashhur shayxlaridan biri.1456 y. 13 mayda vafot etgan. Jomiy Sa'diddin Koshg'ariyning qiziga uylangan.

[27] Naqshbandiylik – sufizm tariqatlaridan biri. Unga Bahovuddin Naqshband (1318 – 1389) asos solgan. Bu ta'limot dastlabki davrlarda tarkidunyochilik va faqirlikni emas, barcha mavjudotga muhabbat va shavqat bilan qarash g'oyalarini targ'ib qilgan.

[28] Bahovuddin Umar, Muhammad Asad va Boyazid Puroniy – tasavvufning mashhur shayxlaridan.

Ammo tolibi ilmliq va shoirliq suratidakim, bu sharif ilm satr va kitmonig‘a bu ikki ishdek parda mumkin ermas topilmoq, nevchunkim darveshliq fano kasbidur, balki fanoyi mahzdur va bu ikki ish mahz da’voyu jadal va anoniyatu xudpisandliqdur.

Alarning kamoloti ovozasin eshitib, yiroq yo‘llar qat’ qilib muborak suhbatlarig‘a musharraf bo‘lurg‘a kelganlar alarni ashob orasida g‘oyati betaayyunliqdin mutlaqo tanimaslar edikim, o‘lturur qo‘parda va aytmoqu eshitmoq va yemoqu kiymoqda o‘zlari bila soyir mulozimlari orasida tafovut yo‘q erdi.

Kishi ulumi zohiriydin va ma’naviydin bir mas’ala ilqo qilg‘uncha hargiz alar oqdin qaroni ma’lum qilg‘onlari ma’lum bo‘lmadi. Ammo mas’ala ilqosidin so‘ngra dog‘i bori ulumg‘a mahoratu istihzor ul martabada erdikim, hargiz hech kitobg‘a boqmoqqa ehtiyoj bo‘lmadi.

Muncha ishning zimnida ishqi zohir tariqikim, «Al-majozu qantarat ul-haqiqat»[29] iborat andin bo‘lg‘ay— alarg‘a andoq mustavli erdikim, har muloyim mazharining husnu malohatikim, haq jamoliyati tajallisi bila zuhur qilmish bo‘lg‘ay yo javru bedodi ofatikim, jaloliyat sifati bila jilva ko‘rguzmish bo‘lg‘ay, ul sifotidin zoti ayniyat mushohada qilib, sababni mutlaqo oradin murtafe’ ko‘rub, ko‘zlarig‘a musabbibdin o‘zga nima kelmagan jihatidin betoqat bo‘lib, harne ul iztirobda alarg‘a ishq shiddatidin va shavq suubatidin yuzlansa erdi jon so‘z she’rlar va dilfuro‘z g‘azallar ishtig‘oli bila ul tahammulsizliqqa itmiynon berurlar erdi.

Va bu hol dog‘i alarg‘a odobi tariqatdakim, tasavvufda boisi fano bo‘lg‘ay, ko‘p madad berur erdi. Chun fanoyi vujudi mavhum hosil bo‘ldi va ishqu shavq o‘ti zabona torta kirishti, har oyinakim, beixtiyorlig‘lardin qalandarvashlig‘ va saru po barahnalig‘ va tog‘u vodiy tutmoq va maqsudi asliydin o‘zga barchani unutmoqlik dast berur, alarning bu shevasin zohir ahli ishqi zohiri mahzg‘a haml qilib, asliy maqsudlaridin g‘ofilu otil qolurlar erdi. Ammo, alar g‘ayru maqsudi asliy har nav’ suratdakim, o‘zlarin ko‘rguzur erdilar — barcha o‘z hollarining pardasi va ro‘ypo‘shi erdi.

Bir necha yilkim, bu holg‘a o‘tti — zohir ulum fazoilida davrning ulamoyu fuzalosig‘a foiq bo‘lub, botin holida dag‘i biyik marotib hosil qilib, g‘arib kutub va rasoil tasavvuf ilmida alardin ro‘zgor avroqin muzayyan qilib davron ahlig‘a bu sharif ilmning istilohoti bila daqiq masoilin ravshan va mubarhan qildilar, andoqkim, musannafot te’dodida, inshoolloh, bitib bo‘lg‘ay.

Shohruh[30] sulton zamoni avositidin sulton Abusaid[31] zamonining avoilig‘icha shahrda sokin erdilar. Andin so‘ngro Xiyobon boshida hazrati pir maxdum Sa’duddin Koshg‘ariy mazori boshida iqomat rasmin zohir qildilar va shahrning jame’ ulamo va akobiriyu ashrofi alarg‘a mulozamat va taraddud bunyod qildilar, to ul podshohi zamonning[32] arkoni davlat va a’yon hazrati va oliyshon umaro va raf’e makon sudur va vuzaro, balki asr podshohi alarning ostonig‘akim, maqsud Qiblasi va murod Ka’basi erdi — tashrif keltururlar erdi, balki o‘zlarni musharraf qilurlar erdi. Andoqki, davrning arjumandlari va ahdning sarbalandlari ul hazratning oliyshon ostonig‘a yuz yetkururlar erdi va iltijo keltururlar erdi. Soyir niyozmandlar va ommai bexesh va panvandlar ham ko‘zlarin ul eshik tufrog‘idin yoruturlar erdi.

Bu faqiri haqir bu so‘nggi jamoat zumrasida Xiyobon boshida ko‘rgan zamonida muxtasar bitilgan risola sabaqig‘a mumtoz bo‘ldum (alhamdu lillahi ala attafiq)[33].

AVVALGI MAQOLAT

Ul hazrat bila bu faqir orasida o‘tgan ittifoqiy umur va g‘arobatliq so‘zlarkim, andin alarning bu faqirg‘a iltifot va xususiyatlari zohir bo‘lur.

[29] a.: majoz – haqiqat ko‘prigidir.
[30] Shohrux – Amir Temurning ikkinchi o‘g‘li. 1409 – 1447 yillarda hukmronlik qilgan.
[31] Abusaid – 1457 – 1469 yillarda hukmronlik qilgan temuriylardan, u Temur o‘g‘li Mironshohning nabirasi.
[32] Husayn Boyqaro (1438, Hirot – 1506 o‘sha shahar) ko‘zda tutiladi. 1469 – 1506 yillarda shohlik qilgan.
[33] a.: muvaffaqiyat uchun Ollohga maqtovlar bo‘lsin.

* * *

Bir kun mavlono shayx Abdulloh kotib muqarrabi hazrati boriy[34] Xoja Abdulloh Ansoriy[35]ning «Ilohiynoma»g‘a mavsum munojot risolasin faqir qoshig‘a kelturub erdi va mavlonoyi mazkurning kutub bay’ va shirosig‘a ham munosabati, ham hazrati xojag‘a avlodlig‘ nisbati bor. Faqir ul risolaning avval sahifasin ochib, xutbasin o‘qumoq bunyod qildim, bu xayol bilakim, bir sahifa yo g‘oyatash bir varaq o‘qulg‘ay, andoqki el ma’hudidur, so‘zning xo‘blug‘ va ravonlig‘idin hech yerda bas qila olmadim, to risolakim, ikki juzvdin ortug‘roq edi — itmomg‘a yetti. Majlis huzzori voqif bo‘lub, taajjub qildilarkim, bir risolakim, ikki juzvg‘a yaqin, balki ortug‘roq bo‘lg‘ay, bir tavajjuh bila boshtin-oyoqqacha o‘qumoq xoli az g‘arobat emas.

Tonglasi hazrati Maxdum bandaxonag‘a tashrif kelturdirlar. Ul risola hozir erdi, olib ochib, muborak nazarlarin soldilar. Tuno kungi ashob andoqki ro‘zgor ahlining oyinu da’bi bo‘lur, taajjub izhori yuzidin tuno o‘tgan voqeani ul hazrat xizmatlarida arz qildilar. Alar tabassum qilib, dedilarkim: «Ajab amri ittifoqiy bizning va sizning oraliqda voqe’ bo‘lg‘on ermish: ikki yo uch kun burunroq mavlono shayx Abdulloh ushbu risolani bizning qoshimizga kelturub erdi, biz dog‘i avvaldin bunyod qilduk, oxirig‘a degincha hech yerda turmoq bo‘lmay tugandi».

Tonglasi mavlono shayx Abdulloh keldi, to kitobin yo bahosin olg‘an. Ba’zi anga ayttilarkim: «Falon (ya’ni banda) bu kitobni avvaldinkim o‘qumoq bunyod qildi, tugaguncha ilikdin qo‘ymadi».

Ul taajjub yuzidin dedikim: «Hazrati Maxdumiy xizmatlarig‘a ham elti berdim, alarg‘a ham ushbu hol voqe’ bo‘ldi».

* * *

Bir kun ul hazrat xizmatlarida ashob hozir erdilar va har nav’ so‘z o‘tadur erdi. Burunroq faqir alarning shayba qasidalarig‘akim, matlai budur:

Safed shud chu daraxti shukufador saram
V-az in shukufa hamin mevai g‘am ast baram[36].

Izhori bu nav’ aqida erdikim, bu nav’ g‘arib manoyiqliq va ko‘p choshniliq va nozuk xayolliq, salis iboratliq, latif adoliq she’r faqir ko‘rmaydurmen, bovujudi ulkim, qasidago‘ylarkim muqaddamdurlar, qasoyidlarin ko‘p mutolaa qilibmen va ashobdin ba’zi musallam tutsa, ba’zi musallam tutmoqg‘a korih ko‘rinur erdilar va ul hazrat majlislarida so‘z qasoyid uslubisori tortti, chun har nav’ o‘tti, faqir shaybaning vasfin orag‘a soldim va ta’rifida beixtiyor bo‘ldum, to so‘z hamul yerga yettikim, arz qildimkim: «Faqir muqaddimin malik ul-kalomlardin hech qay-sidin andoq qasida eshitmaydurmen»[37].

Ul hazrat tabassum qilib ayttilarkim: «Mutaaxxirlardin biz ham andoq she’r eshitmaydurbiz»[38].

Jam’i sokit bo‘lub, faqir bir necha ul bobda bast qilib, ab’yot o‘qur erdim. Alar munbasit bo‘lub, tasdiq bila talaqqi qilur erdilar, to ul jam’g‘a faqirning so‘zining sidqi tamom zohir bo‘lub, o‘z aqidalaridin aylanib, faqirning aqidasig‘a keldilar.

[34] a.: Ollohga yaqin hazrat.

[35] Abdulloh Ansoriy – Abu Ismoil Abdulloh ibn Muhammad al-Ansoriy Hirotiy – sufiylik tariqatining yirik arbob va nazariyotchilaridan biri, «Ilohiynoma»ning muallifi.

[36] She’rning mazmuni:
Boshim huddi gullagan daraxtdek oqardi,
Bu gullashdan kelgan hosil – mening g‘amim mevasidir.

[37] Mazmuni: men avval o‘tgan so‘z ustalarinnng hech biri ijodidan bunday qasida o‘qimaganman.

[38] Mazmuni: keyingi [ijodkor]larda biz ham shunday qasida eshitmadik.

* * *

«Fanoiyya» bog‘chasin yasardakim, ul hazrat havlilarining ichinda yer inoyat qilib berib erdilarkim, faqir o‘ziga muxtasar manzil yasabmen.

Podshoh Marv qishlog‘ig‘a azimat qilg‘onda faqir Darvesh Hoji Irqbandnikim, zamonning chobukdast bog‘bonlaridindur — ta’yin qildimki, bahor o‘lg‘och, ul bog‘chaga rayohin va ashjor ekkay. Bahor bo‘lg‘onda Darveshi mazkur kelib, ul bog‘chaning buyrulg‘oi ishig‘a qiyom ko‘rguzurda ul hazrat dag‘i gohi kelib, muborak xotirlari tashxizi uchun bir oz zamon anda bo‘lur ermishlar va ba’zi yig‘ochlarg‘a dag‘i iltifot qilib, yer ko‘rguzur ermishlarki, qayda ekkay.

Darvesh Hoji tund mizojliq devona kishidur. Ba’zida munoqasha qilur ermish va ul hazratg‘a xush kelib, munbasit bo‘lur ermishlar. Bir kun yig‘ochqa alar yer ta’yin qilibturlar. Devona bog‘bon inod yuzidin debturkim: «Munda ekmasmen». Alar inbisot bila debturlarkim «Nevchun ekmassen?» Ul debturkim: «Rajadin tashqaridur, tongla cherik kelsa, Mir Shayxim[39] bog‘bonliqda voqif kishidur, ko‘rub e’tiroz qilg‘usidur». Alar debdurlarkim: «Bog‘cha Shayximning emas, Alisherningdur, ul e’tiroz qilmag‘usidir».

Cherik shahrga kelgandin so‘ngra Darvesh Hojining tundliqlaridin ashob naqllar qilurlar erdi. Ul hazrat dag‘i zavqu nishot yuzidin ul yig‘ochni ko‘rguzub, o‘tgan hikoyatnikim, alar bila Darvesh Hoji orasida voqe’ bo‘lg‘ondur, naql qilur erdilar.

* * *

Bir kechasi bir ulug‘ kishi mahallida jamoati azizlar xizmatida tushtum. Mutahhari Udiy[40]kim, xushovozliqda Zuhra[41]ning otasi va xushxonlikda aning farzandi ruhafzosi bo‘la olur erdi, Tag‘anniy mahallida Xoja Hasan Dehlaviy[42]ning bu she’rin o‘quydur erdikim:

Zihi darunai dilro zamon-zamon ba tu mayle[43] to bu baytg‘a yettikim:

Misoli qatrai boron sirishki man hama durr shud,
Chunin asar dihad, alhaq, tului chun tu suhayle[44].

Majlis ahli mutaayyin xush tab’ el erdilar va miri majlis ham xushtab’ va podshohnishon. Mug‘anniyg‘a ba’zi e’tiroz yuzidin va ba’zi tanbeh yuzidin dedilarkim: «Sirishki man hama durr shud» o‘quma, «durr shud» o‘rnig‘a «xun shud»[45] o‘quki, «durr shud»ning ma’nosi yo‘qtur. Miri majlis dag‘i ahli majlisg‘a muttafiq bo‘ldi. Bu faqir hech nima demadim. Majlis huzzori faqirg‘a dag‘i mashg‘ulluq bunyod qildilarkim: «Sen dag‘i nevchun bu so‘zda ashob bila muvofiq emassen?» deb, faqir dedim: «Men ul jonibmenkim qoil ado qildi, ya’ni:

Misoli qatrai boron sirishki man hama durr shud rostdur, balki mundoq kerak».

[39] Mir Shayxim – Amtr Shayxim Suxayliy – hirotlik mashhur shoirlardan, Navoiyning yaqin do‘sti. U hahda «Majolis un-nafois»da ma’lumot beriladi.

[40] Mutahhari Udiy – Navoiy zamondoshlaridan. Ud nomli cholg‘u asbobida kuy va uning jo‘rligida qo‘shiqlarni mohirona ijro etgan san’atkor.

[41] Zuhra – sayyora nomi. Xonanda va sozandalarning, umuman musiqaga oid san’atlar homiysi sanalgan.

[42] Xoja Hasan Dehlaviy – Hindistonda yashab ijod qilgan mashhur forsiy g‘azalnavis shoir. 1327 y. Dehlida vafot etgan. Amir Hasan Sanjariy deb ham yuritiladi.

[43] Misra’ning mazmuni:

Qanday yaxshiki, ko‘ngul ich-ichidan turib-turib senga intiladi.

[44] Baytning mazmunn:

Yomg‘ir qatralari kabi-ko‘z yoshlarimning hammasi durr bo‘ldi, Haqiqatan sening Suxayl [yulduzidek] chiqib kelishing shunday ta’sir qiladi.

[45] ya’ni, qon bo‘ldi.

Barcha hujum qilib, faqirg‘a g‘ulu qildilar. Faqir ayttimkim: «Chun siz barcha bir jonib bo‘ldungiz, men yalg‘uz. Sizga o‘z muddaomni sobit qila olmon, ammo bir kishini hakamliqg‘a musallam tutsangiz, garav bog‘larmen».

Barcha ittifoq qilib ayttilarkim, Hazrati maxdum olam afozilining hakami, balki hokimidur, alarni musallam tutmas kishi yo‘qtur. Chun so‘z mung‘a qaror topti. Faqir alar bila garav bog‘lab, majlisning kayfiyatin va ul bahsning sababin va ul baytda «xun» lafzi munosibroq yo «durr» lafzi muvofiqroqdur deb, maqsudning isnodin hamul zamon bitib, ul Hazrat xizmatlarig‘a yiborildi. Bir yaxshi zamondin so‘ngra borg‘on kishi javob kelturdi va ul Hazrat bu misrani bitib erdilarkim:

«Suxan «durr» astu taalluq ba go‘shi shah dorad»[46]

Ul jamoat mulzam bo‘lub, faqirg‘a alarning tarbiyat va madadlari bu nav’ yetti. Ma’lum emaski, hargiz kishi bu nav’ muxtasar javob hech savolda aytmish bo‘lg‘ay. Tonglasi bu so‘z shuhrat tutti. El yod tutub majolisda naql qilurlar erdi.

* * *

Podshoh ul yilki Xuroson taxtin olg‘ondakim, «Jahonoro» bog‘i tarhin soldilar. Bir panjshanba kuni ul hazrat xizmatlarida Gozurgohidin[47] Dasht yuzi bila Xiyobon[48] sori boriladur erdi. Sayyid G‘iyoskim, ul bog‘ning ta’miri va bog‘bonlig‘i ang‘a mutaayyin erdi, yo‘lda yo‘luqtikim, arobalarg‘a ulug‘roq sarv yig‘ochlarin bog‘lardin sotun olib, qo‘ngarib yuklab, «Jahonoro» bog‘iga eltadur erdi: Ul Hazratg‘a salom berib, iltifot qilib, mutoyaba bila dedilar:

— Yana hech sarv yig‘ochi qoldimu? Ne, buyla sarv yig‘ochi yuklabsen, oyo necha yig‘och bo‘lg‘ay?

Ul dedikim:

— Sanabbiz, yuz to‘rt adaddur.

Alar dedilarkim:

— Ajab adaddur.

Faqir dedikim:

— Munosib adaddur, nevchunkim, «qad» adadi bila munosibdur. Alar dedilarkim:

— Rostdur, — dag‘i faqirni tahsin qildilar.

* * *

Bir kun alar yo‘l bila boradur ermishlar. Mahmud Habib otlig‘ devonai xumoriyi abtariy bor erdi, mast va oshufta, alarg‘a yo‘luqub, beadabona so‘zlar aytib, balki safohatlar qilibtur, ammo alar mutlaq iltifot qilmaydurlar, dag‘i aning sori boqmaydurlar. Yana bir kun faqir alar xizmatida boradur erdim. Hamul devona faqirni alar bilan ko‘rdikim, boradurmen. Ul yerdinkim, junun ahli va abtar xaloyiq fosid xayoloti bo‘lg‘ay, sog‘inmish bo‘lg‘ankim, alar aning tuno kungi beadabliqlaridin faqirg‘a shammai izhor qilg‘aylar yo qilmish bo‘lg‘aylar. Alarga betaqrib so‘z qotib, uzrxohliqlar boshladi. Faqir taajjub qilib, alardin istifsor qildimkim: «Bu devonaning parishon uzrxohliqlari, oyo, ne jihatdin erkin?».

Alar so‘zni o‘zga sori yutkab, tuno kun o‘tgan holatdin hech nima izhor qilmadilar. Ammo ashobdin tuno kun o‘tgan so‘z ma’lum bo‘ldi. Ul devona bee’tidolliqlar qilsa erdi, anga ta’zir va adab

[46] Misra’ning mazmuni:
So‘z – durr [inju], shoh qulog‘iga taalluqi bor.

[47] Gozurgoh – Hirotda tog‘ etagidagi xush manzara maydon.

[48] Xiyobon – Hirotning markaziy ko‘chasi. Arabcha yozuvdagi «qad» so‘zining harflari miqdori abjad hisobida 104 bo‘ladi.

qililur erdi. Faqir tiladimkim, anga adab buyurg‘ayman.

— Sen hech nima demagilkim, anga adab yetgusidur. Bir necha kun o‘tmadikim, yana bir devona ani urub o‘lturdi.

* * *

Qurrat ul-ayni saltanat Muzaffar Husayn mirzo[49]ning Ahmad Husayn otlig‘ farzandi tengri rahmatig‘a borganda alar azo so‘rar dastur bila «Bog‘i Safed»g‘a kelib erdilar. Faqir ul aziz farzand marsiyasi bila ul aziz ota duosi bobida bu baytni aytib erdimkim:

Gar sham’ murd, mehri falakro mador bod,
Gar qatra rext, obi baqoro qaror bod[50].

Ul Hazrat xizmatlarida astag‘ina o‘qudum. Sultonzoda majlislarida alar davot va qalam va qog‘oz tiladilar, dag‘i bu baytni bitidilarkim:

Farzand mevaest zi shoxi daraxti umr,
Gar z-on ki meva rext, shajar poydor bod[51].

Va sultonzoda niyozmandlig‘lar qilib, bu baytning musavvadasin olib, azim ta’zimlar qilib uzottilar.

* * *

Alar Makka safaridin[52] qaytib shaharg‘a kelganda, podshoh ro‘zgor havodisi iqtizosidin Balx yurushig‘a borib erdilar. Chun humoyun royotkim, Balxdin qaytib, taxtg‘a ozim bo‘ldilar, istiqbol rasmi bila Murg‘ob viloyatig‘acha kelib erdilar. Podshoh bila muloqotdin so‘ngra bandaxonag‘a tashrif kelturub, kecha anda bo‘ldilar. Kecha alar istirohat qilur uchun bir yangi takallufliq oq uy bor erdi, ani tikturuldi, to ul Hazrat anda osoyishg‘a mashg‘ul bo‘ldilar.

Ittifoqo ul kecha bir g‘arib tund yel estikim, o‘rduning ko‘proq oq uy chodirlarin yiqib, ajab oshub el orasig‘a soldi. Alar uchun tikkan oq uyni dag‘i yiqib, ushotibdur.

Alar xizmatidag‘i ashob degandurlarkim:

— Hayf bu uydinki, yaxshi uy erdi, ajab pora-pora bo‘ldi. Muni tikkan farroshlar, oyo, ne degaylar?

Alar debturlarkim:

— Ne degaylar, aytg‘aylarkim, koshki bu shum qadamliq mullolar bizning uyga kelmasalar erdi.

* * *

[49] Muzaffar Husayn mirzo – Husayn Boyqaro o‘g‘illaridan biri,

[50] Baytning mazmuni:
Sham’ o‘chsa ham osmon quyoshi aylanib tursin,
Qatra to‘kilsa ham boqiylik suvi barqaror bo‘lsin.

[51] Baytning mazmuni:
Farzand umr daraxti shoxidagi bir mevadir,
Agar undan meva to‘kilsa, daraxt doimo bo‘lsin.

[52] Jomiy Makka safariga 1472 y. da chiqqan edi.

Ham ushbu tarixda erdikim, faqir sipohliqdin mutanaffir bo‘lub, manosibni tark qilib, mulozimatni o‘ksutub erdim. Alar tanbeh va nasihat yuzidin so‘rdilarkim:

— Bu nav’ amre masmu’ bo‘ldi, bu jihat na erdi erkin?

Faqir dedimkim: .

— Inson jinsi suhbat va ixtilotidin malul bo‘lub erdim, bu ishga ul bois bo‘ldi.

Alar dedilarkim:

— Inson kimni xayol qilib erding, bizga dag‘i ko‘rguz?

Qo‘rqub erdimkim, man’ qilg‘aylar. Bu javobdin bildimkim, muborak xotirlarig‘a bu ish xeyli noxush kelmagan ermish. Xotirim jam’ bo‘ldi.

Alar Mavlono Sog‘ariy[53] bila ko‘p mutoyaba qilurlar erdi. Bir kun alar xizmatida Mavlono Sog‘ariy hozir erdi. Alar aning she’rin ta’rif qilur rangda aning bila mutoyaba qilur erdilar. Va Mavlono Sog‘ariy o‘z she’rin bag‘oyat ehtimom yuzidin karru far bila o‘qug‘uvchi erdi. Andoqki, bir oz nima bevuqufroq kishi qoshida o‘qusa erdi, ko‘p yaxshiliqg‘a o‘tkarur erdi. Faqir o‘qumog‘in ham ta’rif qildimkim, bovujudi xo‘b aytmoq xo‘b ham o‘qur. Alar tabassum bila ayttilarkim: «Bizga mundoq boziy berur». Alar bu qit’ani aytib erdilarkim,

Qit’a:

Sog‘ariy meguft: duzdoni maoniy burdaand —
Har kujo dar she’ri man yak ma’nii xush didaand.
Didam aksar she’rhoyashro yake ma’niy nadosht,
Rost guftast iy ki ma’niyhoshro duzdidaand[54].

Ul vaqtkim, faqir «Xamsa»g‘a tatabbu’ qildim, bir dostonda Hazrati Shayx Nizomiy va Amir Xusrav Dehlaviy va ul Hazrat maddohliqlaridakim, o‘zumni ixlos va niyozmandlik yuzidin alarg‘a tobe’ va payrav tutub, suxanguzorliq voqe’ bo‘lub erdikim:

Kahfi fano ichra alar bo‘lsa gum,
Men ham o‘lay robiuhum kalbuhum[55].

Ul uchurda Mavlono Sog‘ariy dog‘i bu masnaviyg‘a bir necha bayt tatabbu’ qilib erdi va faqrni muxotab qilib, bir maqsud orasida bu nav’ bir bayt aytib erdikim:

Mirki guft : «robiuhum kalbuhum»
Yofta fayzi suxan az qalbuhum[56].

Faqirg‘a o‘qug‘onda bu baytg‘akim yetti — faqir mutoyaba yuzidin ayttimkim:

— «Az kalbuhum» tarkibida «az»— «min» ma’nosi biladur, «min» hurufi jorradindur va

[53] Sog‘ariy – Hirot shoirlaridan biri. «Majolis un-nafois»da qayd qilinishicha, u Jomiy bilan hajga birga bormoqchi bo‘lganu arzimagan bahona bilan qolib ketgan edi.

[54] Qit’aning mazmuni:
Sog‘ariy deydiki, ma’no o‘g‘rilari qaerda mening she’rimdan bir yaxshi ma’no ko‘rsalar olib ketadilar.
Aksar she’rlarida biror ma’no yo‘qligini ko‘rdim. «Ularning ma’nosini o‘g‘irlab ketganlar», deb rost aytgan ekan.

[55] Baytning mazmuni:
Foniylik g‘orida ular yo‘qolgudek bo‘lsalar,
Men ham to‘rtinchilari – itlari bo‘layin.

[56] Baytning mazmuni:
Mir (ya’ni Navoiy) «to‘rtinchilari – itlariman», dedi
Ularning qalblaridan so‘z fayzini topib oldi.

madxulin majrur qilur va bu tarkibda o‘z amalin qilsa, qofiya g‘alat bo‘lur?[57].

Mavlono Sog‘ariy mundoq javob berdikim:

— Bok yo‘qtur, Hazrati Maxdum ham bu e’tirozni qildilar.

Bu so‘z taqriridin faqirg‘a necha g‘arazdur. Biri: Mavlononing bir baytda burunqi misraida nomavzunlug‘i va ikkinchida: aytg‘onikim, bir masnaviy baytida mundoq fohish g‘alatlar qilsa, andoq ulug‘ yerlarg‘a ne nav’ ilik urg‘ay, yana biri: faqirning e’tirozig‘a javob berganining g‘arobati, kulliyrog‘i va mutoyabaomiz e’tirozda ul Hazrat bila faqir orasida tavorud voqe’ bo‘lg‘oni.

* * *

Bir kun Podshoh hazratlari bandaxonada erdilar: «Tortiladurg‘on at’imadin, ayttilar, ul Hazratg‘a dog‘i nishona bermak munosibdur».

Qaror anga tuttikim, Xoja Dehdor[58] eltgay. Eltgan nimalar orasida hamonokim bir e’tidoldin tashqari semiz qo‘y uchasi dag‘i bor ermish. Xoja Dehdor andinkim, farti ishtihodur, ul ucha ta’rifida mubolag‘a andoq qilmish bo‘lg‘aykim, alarg‘a andin Xojaning rag‘bati, balki ortug‘roq tamai ma’lum bo‘lmish bo‘lg‘ay. Demish bo‘lg‘aylarkim: «O‘ltur va mashg‘ul bo‘l». Xoja andoq peshakorlar ul taomni yemoqda ko‘rgizmish bo‘lg‘aykim, alarg‘a bu ruboiyni ayturg‘a bois bo‘lmish bo‘lg‘ay.

Ruboiy:

Ey Xoja, maro zi lutfi parvardi,
Z-ovardani pushti dunba farbeh kardi,
Binshasti-yu dunbaro ba rag‘bat xo‘rdi,
Burdi ba shikam on chi ba pusht ovardi[59].

Yana bir qatla Xoja Dehdordin mutanavvi’ atimalar bila alar xizmatig‘a yiborilib erdi. Anda dog‘i bir qo‘y-qo‘zi uchasi bor erdi. Anga o‘xsharki, Xoja o‘ziga ul hadoyoni isnod qilib, mubohotguna qilmish bo‘lg‘ay —alar bu bobda bu qit’ani aytib erdilarkim:

Xoja ovard bahri sufrai mo
Pushti on yak-du go‘sfand ki kusht,
Lekin az dasti naxvati judash
Nashud oludaam bad-on angusht,
Hast az on bo xudash tasavvuri on,
Ki ba Hotam hamerasad ba du pusht[60].

[57] Bu yerda Navoiy «az qalbuhum» arabcha ibora bo‘lgani uchun forscha chiqish kelishigi «az»ni ham arabcha «min» bilan almashtirish kerak deydi va grammatik tahlil qilib, u holda «az qalbixim» bo‘lib qolib, qofiya buziladi deb e’tiroz qiladi.

[58] Xoja Dehdor – Ismi G‘iyosiddin Muhammad. Navoiy va Jomiyning yaqin musohiblaridan, shoir.

[59] Ruboiyning mazmuni:
Ey xoja, bizni lutfingga sazovar qilding,
Orqa dumba keltirib, bizni sevintirding.
O‘tirib olib, ishtaha bilan dumbani yeding,
Orqangda keltirgan narsangni qorningda olib ketding.

[60] Qit’aning mazmuni:
Xoja bizning dasturxonimiz uchun,
Bir-ikki so‘yilgan qo‘yning dumbasini keltirdi,
Lekin uniig ulkan saxovatli qo‘lidan,
Barmog‘im ham bulg‘anmadi.
Uning o‘zi haqida tasavvuri shundayki,
Ikki pushti bilan nasabda Xotamga yetishadi.

Faqir ko‘proq avqot niyozmandliq yuzidin naqd yo jinsdan tuhfa va tabarruk alar xizmatig‘a yiborsa, Xoja Dehdordin yiborilur erdi. Anga o‘xsharki, ba’zi vujuhni sanamoqda bobil-xilofguna voqe’ bo‘lg‘ondur. Alar bu qit’ani aytib erdilarkim:

Xoja Dehdor az atiyyai Mir
Har chi orad zi dirhamu dinor,
Muzdi po bargirifta, meguyad

Noshumurda ki ponsad astu hazor.
Hech dar xotirash namegardad
Fikri sharmandagii ro‘zi shumor[61].

Yana bir qatla ushbu nav’ moddada ham bu qit’ani aytib erdilar:

Ba Dehdor guftam ki bardor baxsh,
Az on sufra ki zi vay sar afroshtam,
Zi insof dam zad, k-azon baxshi xud:
Hamon bas ki dar roh bardoshtam[62].

* * *

Bir qatla faqir alarning qadimiy devonin Mavlono Abdussamadg‘akim, zamonning xushnavislaridindur va xush tab’ ham bor, buyurub erdim va ulcha maqdur takallufdur qililib erdi. Devon tugangandin so‘ngra alar xizmatig‘a eltib, muqobala istid’osi qi-lildi. Alar ayttilar: «Bir-ikki kun munda turdik. Biz miqdore mulohaza qilali. Kotibin xushtab’ kishi derlar. Shoyadki, ehtiyot qilib erkinkim, muqobala qilurg‘a ehtiyoj bo‘lmag‘ay».

Tonglasi faqir alar xizmatig‘a yettim, ayttilarkim: «Bu kitobni g‘arib nav’ bitibdur, anga o‘xsharkim, iltizom qilmish bo‘lg‘aykim, g‘alatsiz misra’ bitmagay, ba’zi yerda biror-ikkiror, balki ortuq ab’yot ham tark qilibtur, o‘zi-o‘q munda bo‘lsa, chun xushnavis kishidur, ko‘p ehtiyot jihatidin shoyad xeyli ro‘zgori zoe’ bo‘lg‘ay».

Guftu shunid ko‘p o‘tti, oxir faqir dedimkim: «Agar sizning muborak qalamingiz bila isloh topsa mujibi mubohot va zebu ziynat bo‘lur». Oqibat qaror anga tuttikim, o‘z muborak qalamlari bila isloh qilg‘aylar. Had va nihoyatda ortuq g‘alatlar erdikim, ham hak va ham isloh qildilar, to itmomg‘a yetti, devonning oxirida bu qit’ani bitib erdilarkim:

Xushnavise chu orazi xubon,
Suxanamro ba xatti xub orost.

[61] Qit’aning mazmuni:
Xoja Dehdor Mir hadyalaridan
Dirham va dinor [kabi] nimaiki keltirsa,
Oyoq haqi olar edi.
Sanamay «besh yuz ming» derdi,
Hisob kunida sharmanda bo‘lish fikrini esa
Mutlaqo yodiga keltirmasdi.

[62] Qit’aning mazmuni:
Dehdorga aytdimki, menga hadya [qilingan narsalardan]
Boshingdan sochiq qildim.
Insof yuzasidan og‘iz ochib,
Yo‘lda olganim yetar (dedi).

Lek har jo dar o‘ zi sahvi qalam
Goh chize fuzudu gohe kost.
Kardam islohi on bo xati xesh,
Garchi n-omad chunonchi dil mexost.
Har chi u karda bud bo suxanam
Ba xati u qusur kardam rost[63].

Sulton Ya’qub[64] faqirdin kitob tilaganda andin nafisroq kitobim yo‘q erdikim, har misraida ul hazratning muborak qalami kirib erdi va alarning— o‘q qudsiy osor anfosi erdi — yibordim va bu bitilgan kayfiyatni sharh bila bitidim. O‘qub, xushvaqtlig‘lar qilib, qit’ani yod tutub, maktubda minnatdorlik izhor qilib erdilar.

* * *

Bir saboh ul Hazrat bandaxonag‘a tashrif kelturub erdilar. Ul uyda bir-ikki juft tovus bor erdi. So‘z asnosida andoqki, tovug‘ ne dastur bila katakdin chiqormoq ma’huddur, tovuslarni asrag‘uchi ham uylaridin surub chiqordi, hamul zamon jilva qila boshlab, quyrug‘larin chatr qila boshladilar. Alar sun’ naqqoshining naqshbandlig‘i g‘arobatida mutaajjib bo‘lub, tovus bobida har nav’ so‘z o‘tar erdi, to so‘z anga yetishtikim, ba’zi el qoshida bu so‘z borkim, tovus juft bo‘lmay bayza qo‘yar, ba’zi qoshida budurkim, mastliq vaqtida erkagining ko‘zidin bir qatra suv modasining ko‘ziga tomib, ul tuhum modasi bo‘lur. Alar faqir sori boqib, ayttilarkim: «Bu so‘z yiroq ermaskim, e’tibori bo‘lg‘ay, nevchunkim, — mashhurdurkim, Mir Xusrav ba’zi rasoilida bu ma’nini izhor qilmish bo‘lg‘ay, ul Hindustonda bo‘lg‘on kishidur, to anga tahqiq bo‘lmag‘ay, bitimamish bo‘lg‘ay».

Faqir agarchi bu so‘zning mahzn kizb ekanin bilur erdim, ammo alar yuzida Amir Xusrav so‘zin na tasdiq qildim, na takzib va hech javob bermadim. Alar javob bermaganning sababin so‘rdilar. Zaruratdin faqir ayttimkim: «Shoyad Hindustonda tovusg‘a bu hol voqe’ erkin». Alar mutaajjib bo‘ldilar: na Mir Xusrav so‘zi isbotida mubolag‘a qildilar, na faqirning so‘zining nafyida. Nevchunki, hech jonib alarg‘a yaqin ermas erdi. Ammo faqirg‘a ajab hol voqe bo‘ldikim, Mir Xusravdek kishining so‘zikim, alardek buzurgvor aytqaylar va men tasdiq qilmag‘aymen. Bu fikrga tushtumkim, o‘z muddaom isbotini ne nav’ qilg‘aymenkim, bu holatda mast nar tovus yugurdi, dag‘i modasin bosib juft bo‘ldi. Alar kulub dedilarkim: «Mundoq ittifoqiy ish-oz voqe’ bo‘lmish bo‘lg‘ay, shubha raf’ bo‘lub, muddao isboti zohir bo‘ldi».

* * *

Alarning Safiuddin Muhammad otlig‘ farzandlari tengri rahmatig‘a bordi. Azo so‘rar oyinin bajo keltururga otlanib, alar xizmatig‘a boradurg‘onda yori azizim Shayxim Suhayliy yo‘lda yo‘luqti, qayon boradurg‘onim bilgach, hamroh bo‘ldi. Andin so‘ngra Mavlono Soniiy yo‘luqti, ul dog‘i qo‘shuldi. Alar xizmatig‘a borg‘och, akobiru ashrofdin jam’i kasir xizmatida erdilar. Majlisda o‘lturg‘och,

[63] Qit’aning mazmuni:
Bir xati chiroyli (kotib) go‘zallar yuzidek qilib,
So‘zlarimni bezab chiqdi.
Lekin u har joyda qalami xatosi bilan,
Goh bir narsa orttirdi, goho esa, tushirib qoldirdi.
Men o‘z xatim bilan uni tuzatib chiqdim.
Garchi noqulay esa-da, ko‘ngil tilagandek bo‘ldi.
U mening so‘zlarimni ne chog‘lik buzgan bo‘lsa,
Men uning xatiga shunday qusur yetkazdim.

[64] Sulton Ya’qub – oqquyunli turkmanlar sultoni. 1491 y.da vafot etgan.

faqirlarning rutbasi shavkatidin va majlis savlatidin hasr bo‘lub hech nav’ so‘zkim, dalolat azo so‘rmoqg‘a qilgay — ayta olmadim. Hamrohlarim hud o‘zlarin menga tobe’ tutub erdilar. Bir lamha o‘tgandin so‘ngra xud so‘z ayturning vaqti o‘tti. Bu faqir bag‘oyat xijolatzada bo‘lub, ta’rixg‘a munosib alfoz xayolig‘a tushtum. Ittifoqi hasanadin «baqoi hayoti shumo bodo»[65] alfozin avval qatlakim, hisob qildim, rost keldi. Ehtiyot uchun yana bir qatla hisob qilildi. Shubha raf’ bo‘lg‘ondin so‘ngra davotu qalam tilab, bu alfozni bitib, raqamin ustita sabt qilib, alarg‘a e’tiroz tuta berdim. Alar tahsinlar qilib dedilarkim: «Bu ta’rixni biz nazm silkiga tortali».

Bu nav’ qildilarkim:
Guli bo‘stoni latofat Safi
Chu shud so‘i jannat zi bog‘i fano,
Azize pai pursi ta’rih guft,
Qi «bodo baqon hayoti shumo»[66].

* * *

Bir kun faqir alar xizmatida erdim va yana kishi yo‘q erdi. Anvariy[67] qasoyidi bobida so‘z o‘tadur erdi. Alar bu nav’ ta’rif qiladur erdikim: «Biz aning ash’orin, bataxsis qasoyidin oz ko‘rub erdik, bu yaqinda bir-ikki devoni bizning iligimizga tushubtur, gohi anga mashg‘ul bo‘ladurbiz, ba’zi yerda aytsa bo‘lg‘aykim, bashar kalomidin o‘tub, e’joz haddig‘a yetmish bo‘lg‘ay, g‘arib tarkiblar va ajib adolar nazarg‘a keladur».

Chun faqir ashob orasida muttaham munga bormenkim, Anvariyg‘a mu’taqiddurur va aning she’rin ko‘p o‘qur. Filvoqe’ mundoqdur. Bag‘oyat xushvaqt bo‘lub ayttim: «Iltimosim borkim, ul qasidasinkim budur:

Gar dilu dast baxtu kon boshad,
Dilu dasti xudoyagon boshad[68]

bir qatla o‘qub mulohaza qililsa».

Alar mutabassim bo‘lub ayttilarkim: «Ajab so‘z aytting, biz bu uch-to‘rt kunda bu qasidasin o‘qub, xushhol bo‘lub, g‘oyat xush kelgandin javob ham aytibmiz, — deb musavvadani bir xudrang varaqda chiqarib, faqirning ilgiga berdilarkim: «O‘qub ko‘r». Matlai bu erdikim:

Har kiro dar dahon zabon boshad,
Dar sanon shahi jahon boshad[69].

[65] Arab yozuvidagi «baqoi hayoti shumo bodo!» (ya’ni, Sizning hayotingiz boqiy bo‘lsin!) jumlasidagi harflardan abjad hisobida 880/1475 y. chiqadi.

[66] She’rning mazmuni:
Latofat bo‘stonining guli (bo‘lmish) Safi,
Foniylik bog‘idan jannat tomon ketganda,
Bir aziz odam ko‘ngil so‘rab,
«Bodo baqoi hayoti shumo» deb ta’rix tushirgan edi.

[67] Anvariy – Avhaduddin Anvariy – Sulton Sanjar (vaf. 1156 y.)ning saroy shoiri. Uning qasidalari shakl va uslub jihatidan nihoyatda murakkab va dabdabali sanaladi.

[68] Baytning mazmuni:
Agar ko‘ngil bilan qo‘l daryo va kon bo‘lsa,
Shohlarning dili va qo‘li bo‘ladi.

[69] Matla’ning mazmuni:
Har kimning og‘zida tili bo‘lsa,
Jahon shohining madhida bo‘lsin.

Biz faqirlar ne istihqoq bila ta’rif qila olg‘aybiz. Muncha gustohliq qilildikim, ul qasidani sihr xayol qilur erduk, bu she’r ani past qilg‘ondek ko‘runadur, hamonoki mo‘‘jiza desa bo‘lg‘ay.

* * *

«Nafahot ul-uns» mutolaasida bir kun bu mahalg‘a yetib erdikim, Shayx Abulhasan Durroj[70] (quddisa sirrihu) yiroq yo‘l qat’ qilib, Imom Yusuf bin Abulhusayn Roziy[71] (Quddisillohi sirrihu laziz)[72] ziyoratig‘a Rayg‘a bordi. Va imom Mullo Mutannabihdin erdi. Shayx muddate ul diyorda imomni tilab, har kishidin so‘rog‘ qilsa erdi, aytur erdilarkim, ul kofirni istarsan, ul zindiqni istarsen. To bir kun ani bir buzuqda toptikim, Qur’on o‘quydur erdi. Oncha turdikim, ul Qur’on o‘qumoqdin forig‘ bo‘ldi. Shayx yurub salom qildi. Imom javob berib ayttikim: «Xush kelding, Abulhusayn, bir bayt o‘qi!» Shayx bir bayt o‘qug‘ach Imomg‘a vaqt xush bo‘lub, vajd[73] yuzlanib, samo’[74] tuzdi. Bu samo’da aytur erdikim: «Sen bu muddatdakim, meni sevar erding ul kofirni, ul zindiqni sevarsen deb chin ayturlar erdikim, muddatekim, Qur’on tilovat qilur erdim, menga vajdu hol yuzlanmadi. Holo sen bir bayt o‘qug‘on uchun muncha vajd dast berubdur. Bu so‘zni Muqarrabi hazrati boriy Xoja Abdulloh Ansoriy (Quddisillohi sirrihu) debturlarkim: «Oyo, Yusuf bin Al-Husang‘a Abulhasanning muddate kirib, oni so‘rg‘ani, ul so‘zni eldin eshitgani hamul vajd holatida makshuf bo‘ldi. Yo ul muddatdakim, ul so‘rar erdi, bu voqif erdi. Agar hamul zamon makshuf bo‘lg‘on bo‘lsa, muning martabasi biyikroqdur. Va hol ulki, zohir ahli qoshida shon budurkim, birining martabasi biyikroq bo‘lg‘ay». Doyim bu so‘z faqirning xotirig‘a uyrulur erdi va o‘z xayol va fikrim bila bu shubha raf’ bo‘lmas erdi, to bir kun hazrati irshodpanoh va valoyati dastgoh halloli mushkiloti majoniy Mavlono Muhammad Tobadgoniy[75] (quddisa sirrihu) xizmatlarida arz qilib, bu shubham raf’ini istid’o qildym. Alar ayttilarkim: «Bu toyifatning kamolig‘a hazrat haq subhona taoloning mutolaa jamolida bir shuhudu istig‘roq doyimiy bo‘lurkim, andin o‘zga nima sori iltifot qilmas, har qachon vojib zoti mushohadasi imkon olamig‘a tazalzul va iltifot voqe’ bo‘lmasa, bu jonibg‘a shuur voqif bo‘la olmag‘ay. Bas hamul zamonkim, ul tavajjuhdin bu sori tazolzul qildi, agar aning mazkur bo‘lg‘on holatig‘a matla’ bo‘ldi. Ersa har oyina muning martabasi andin kam, muning ahvolig‘a matla’ bo‘lg‘on bo‘lg‘ay biyikroq bo‘lg‘ay. Nevchunkim, doyim aning ahvolig‘a matla’ bo‘lg‘ondin tavajjuh shuhud asli nuqsoni lozim kelur. Har qachon ul holg‘akim, hayot va zindagonlig‘din maqsud uldurkim, futur yuzlansa muqarrardurkim, bu rutbadin ul martaba biyikroq bo‘lg‘ay. Bu faqirg‘a Hazrat Mavlononing bu faraxafzo va ruhoso takallumidin nihoyatsiz xushholliq dast berib, xayolg‘a keldikim, bu mas’alani Hazrati Maxdumdin ilqo qilg‘ay. Hamul zamon andin chiqib, ul hazrat mulozamatig‘a musharraf bo‘lub, o‘tgan dastur bila so‘zni arz qilib, ul Hazratdin ham istid’oi javob qilildi. Alar dag‘i biaynih Hazrati Mavlonai mazkur ado qilg‘ondek foyda buyurdilar. Faqirg‘a avvalg‘i nishot va farax birga o‘n, balki yuz bo‘ldi.

Xushe ul zamonkim, zamon mundog‘ buzurgvorlar sharif vujudlari bila orosta va davron mundoq rafe’ miqdorlar xilqatlari bilan piyrosta erdi. Hayf va yuz ming darig‘kim, ul quyoshlar uyoqib, bir necha tiyra ro‘zgor xuffoshlar paru bol ochib, nazarbozliq va baland parvozliq havosida jilva qilurlar.

Va ul tengizlar sug‘olib, bir necha kuduratosor xaydek mulavvasliqqa foshlar naxvat yelidin

[70] Shayx Abdulhasan Durroj – Bag‘dodlik mashhur shayxlardan. 320/932 h. da vafot etgan.

[71] Imom Yusuf bin Abdulhusayn Roziy – Kunyati Abu Ya’qub «Malomatiya» tariqatiga mansub. Bu shayxlar haqida Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asarida ma’lumot bor. 304/916 – 917 y.da vafot etgan.

[72] a.: olloh sirrini muqaddas va aziz saqlasin!

[73] vajd – sufiylikda ishq va ishtiyoq g‘alabasi natijasida o‘zidan ketish.

[74] samo’ – sufiylarning zikr tushishi (ko‘pincha musiqa bilan, qo‘shiq bilan).

[75] Muhammad Tobadgoniy – ismi Shamsuddin. Mashhur shayxlardan. Navoiy «Majolis un-nafois»ida u haqda ma’lumot beradi. Xonaqohi va qalin muridlari bo‘lgan. Hirotda 891/ 1486 y.da vafot etgan. Qabri Xiyobondadir. Uning asarlarn: «Asmoulloh» sharhi, «Manozil us-soyirin» va «Qasidai Burda»ga muxammas, «Tazkirat ul-habib», «Vasoyo» tarjimasi, Zikr bobida «Arba’in» va faqru suluk bobida yana bir «Arba’in» tarjimasi. Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat»da Muhammad Tobadgoniyni zikr etadi. 87 yoshda vafot etgani, vafoti ta’rixi «Qutbi zamon biraft» iborasida berilganini qayd qiladi. Abjad bo‘yicha 891/1486 y. chiqadi.

zulolosor taxarruk va bahrkirdor tamavvuj nuqushi ko‘rguzurlar (nauzu billah min shururi nafsino va min siyosati a’molino)[76].

IKKINChI MAQOLAT

Ul hazrat bila bu faqir orasida o‘tgan ruq’alar bobidakim, ul ruq’alar holo alarning kulliyotida mazkurdur va munshaotlar orasida masturkim, bu faqir javob bitibmen yo aksi.

Bu ruq’ani bu faqir Marvdin arzadosht qilib erdimkim, ixtisor jihatidin anda bitilgan ruboiy bila ixtisor qililur.

R u b o i y:

To dur fitoda saram az xoki darat,
Har ro‘z diham ba nomae dardi sarat,
Bexud gardam chu noma oyad zi barat
Man bexabar az noma, chi donam xabarat[77].

Alar bu ruq’ani bitib erdilarkim:

Z-on dam ki fitod ittifoqi safarat,
To bu ki kunam gahe ba xotir guzarat,
Gar murg‘ parad ba so‘i tu yo bod vazad,
Xoham ki diham ba nomae dardi sarat[78].

Chun qalam bardoshtam va andesha gumoshtam, juz e’tizori ruq’ahoi mutatobe’ ki dar chand ro‘z voqe’ shuda, ma’nie dar dil nagasht vasurate ba xotir naguzasht. Agar chi in niz xoli az dag‘dag‘ai tasdei nest va avqoti sharifro beshoibai taz’ei ne.

Gar binolam peshi tu on nola dardi sar buvad,
V-ar bixoham uzr, on dardi sari digar buvad[79].

Necha kundin so‘ngra ham Marvda bu ruq’a alar Hazratidin keldikim:

Tahiyyote ki chun az dil baroyad

[76] a.: Ollohni nafsimiz yovuzligidan va ishlarimiz g‘irromligidan saqlashga chaqiramiz.

[77] Ruboiyning mazmuni:
Boshim eshiging tuprog‘idan uzoqlashgandan beri,
Har kuni biror xatni boshing og‘rig‘i qilaman.
Sendan noma kelganida, qanday
Xabar keltirar ekan, deb bexud bo‘laman.

[78] Ruboiyning mazmuni:
Safarga jo‘nagan paytingdan buyon,
Yodimga tushganing sari [har tarafni] iskab ko‘raman.
Agar sen tomoningga qush uchsa, yohud shamol essa,
Biror nomani boshing og‘rig‘i qilishni istayman.

[79] Mazmuni:
Qalamni oldim va o‘yladim. Bu kunlarda ketma-ket yuborilgan xatlar uchun uzr aytishdan boshqa biror ma’no ko‘ngildan o‘tmadi va xotirga o‘zga surat yetishmadi. Garchi bu ham shuningdek, bosh og‘rig‘i xurujidan xoli va aziz vaqtlarini bekorga o‘tkazishdan tashqari narsa emas esa-da:
Agar sening oldingda nola qilsam, u nola bosh og‘rig‘i bo‘ladi,
Va gar uzr so‘rasam, u [ham] boshqa bir dardisar bo‘ladi.

Hama ruhoniyonro jon fizoyad
Shamimi on dar in firuza manzar
Dimog‘i qudsiyon dorad muattar[80].

Ruq’aning oxirida bu ikki bayt erdikim:

Juz in kore mabodat gohu begoh,
Ki dar zilli zalili, davlati shoh,
Xati hazzi xudaz dil bartaroshi,
Baron haq panohi xalq boshi[81].

Faqirning javobida va alarning ruq’asi ta’rifida bu ruq’ani arz qilib erdimkim, masnaviy:

Salome, k-ash chu murg‘i jon saroyad
Chu Ruhullah[82] *ravonbaxshi namoyad,*
Hama alfozash az ayni muvoso
Chu nutqi Ahmadi[83] *mursal diloso*[84].

So‘ngg‘i ikki bayt javobida bu ikki bayt bitilib erdikim:

Umedam on ki az irshodi Maxdum,
Ba ro‘i noma gardad har chi marqum.
Zi amrash chun qalam sar barnatobam,
Ba tavfiqi vuquash bahra yobam[85].

Podshoh Marv qishlog‘ida erkanda Ustod Hasan Noyining favtining xabari Iroqdin keldi, Faqir Hazrati Mavlaviy masnaviysining avvalg‘i bayti munosabat jihatidin tazmin[86] qilib erdim.. Bu

[80] She’rning mazmuni:
Ko‘ngildan chiqqan u maqtovlar,
Hamma ruhoniylarga jon bag‘ishlaydi.
Bu firuza rang makondagi u toza hid,
Pokizalikka mansublar dimog‘ini xushbo‘y qiladi.

[81] She’rning mazmuni:
Shoh davlatining soyasida
Ertayu kech shundan boshqa ishing bo‘lmagay.
O‘z manfaating sabzasini ko‘ngildan yulib tashlab,
Haq uchun xalqning panohi bo‘lgaysan.

[82] Ruhullah – Iso payg‘ambarning laqabi

[83] Ahmad – Muhammad payg‘ambarning laqabi.

[84] Mursal – elchi, payg‘ambar ma’nosini anglatadi.
She’rning mazmuni:
Yuborgan saloming jon qushidek sayraydi.
Huddi Ruhullohdek jon bag‘ishlaydi.
Hamma so‘zlari g‘oyat kelishganligidan
Payg‘ambar nutqidek yoqimlidir.

[85] She’rning mazmuni:
Umidim shuki, Maxdum irshodi bilan,
Maktubda nimaiki yozilgan bo‘lsa,
Amridan qalam kabi bosh tortmagayman,
Madadi va ro‘yobga chiqishidan bahra olgaymi.

[86] Mavlaviy – Jaloluddin Rumiy (1207 – 1273) – Markaziy Osiyolik buyuk shoir va olim. Uning 27 ming baytdan iborat «Masnaviy» («Masnaviyi ma’naviy», deb ham yuritiladi)si chuqur diniy fasafiy g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi asardir. Jaloluddin Rumiy «Mavlaviya» nomli tasavvuf maktabiga asos solgan.

nav’kim,

t a z m i n:

Sharhi hajri shohi ustodon Hasan,
«Bishnav az nay chun hikoyat mekunad».
Band-bandi u judo gashta zi ham,.
«Az judoiho shikoyat mekunad»[87].

bitib, shahrda hazrati Maxdum xizmatlarig‘a yiborilib erdi. Alar kelur kishidin ham bu baytni, tazmin qilib, bu ruq’ani yiborib erdilarkim,

t a z m i n:

Shud nai xoma dilamro tarjumon,
«Bishnav az nay chun hikoyat mekunad».
Bo zaboni tezu chashmi ashkrez
«Az judoiho shikoyat mekunad»[88].

Hikoyati tamodin ayyomi firoq va shikoyati tavolii layolii ishtiyoq besh az on ast ki ba madargorii davoti dahonbasta va ba dastyorii xomai zabonshikasta dar tuli in noma arzi on maqdur boshad va dar tayyi in sahifa nashri on manshur, lojaram saddi on bob karda iltimos meravad ki:

Dar on soat, ki betashvishi ag‘‘yor
Dar on farhunda majlis boshadat yor,
Zaminbo‘yi ba ta’zime ki doni
Zaminbo‘si duogo‘yon rasoni.

Davlate az intiho masun va saodate az inqito’ ma’mun bod[89].

* * *

Tazmin – boshqa ijodkor she’ridan bayt, misra’ yoki biror iborani iqtibos – ko‘chirma qilib keltirish san’ati. Quyidagi she’rda har baytning ikkinchi misra’i Jaloluddin Rumiydan tazmindir.

[87] She’rning mazmuni:
Ustodlar shohi Hasandan judolik sharhini,
«Naydan eshitgil, qanday hikoya qiladi».
Uning bo‘g‘in-bo‘g‘ini bir-biridan ajralib,
«Judoliklardan shikoyat qiladi.

[88] She’rning mazmuni:
Qalam nayi dilimning tarjimoni bo‘ldi,
«Naydan eshitgil, qanday hikoya qiladi».
O‘tkir til va yosh to‘kuvchi ko‘zlar bilan,
«Judoliklardan shikoyat qiladi.

[89] «Ayriliq kunlari cho‘zilishining hikoyasi va mushtoqlik tunlarining uzayishi shikoyati shunday ziyodaki, og‘zi bog‘liq siyohdon madadkorligi va tili siniq qalam dastyorligi bilan bu noma davomida uni arz qilishga qudrat yetarmikan va bu sahifa ustida u yoziladigan narsani bitib bo‘larmikan? Noiloj u bobga chek qo‘yib, iltimos yetkaziladi:
O‘zgalar tashvishi bo‘lmagan soatda,
Do‘st bor bo‘lgan baxtli majlisda,
Har qancha ta’zim bilan yer o‘pib,
Duogo‘ylarning chuqur hurmatlarini yetkazgaysen.
Bitmas davlat va tuganmas saodat himoyasida bo‘lgaysan!

Hamul yurushda faqir bu ruk’ani bitib yiborib erdimkim:

Nai kilkat shakari ma’niro
Karda chun nayshakar az javf burun.
Xati o‘ro xati mushkinsurat
Dar tahi xat ruxi zebo mazmun,
Balki har donae az nuqtai u
Toji ma’niro durri maknun[90].

«Ruq’ae ki az ro‘i iltifot firistoda budand, bal gavhare ki az bahri tab’i Ummon simot berun ovarda — rasid. Bar har taqdir bar toji torak do‘xta shud va honai chashmu dil bad on afro‘xta gasht. Oftobi irshod bar sari toliboni rub’i maskun va bar sarvaqti qobiloni javfi gardun tobanda bod, vassalom»[91].

Ul Hazrat bu ruq’ani javob bitib, yiborib erdilarkim,

q i t ‘ a:

Nai kilki tu tifli ma’niyro
Ba naboti husn biparvarda,
G‘urrai subhro zi turrai shom
Rashki ruxsori navxaton karda.
Qissa ko‘tah, shabi darozi maro
Pora-pora ba ro‘z ovarda[92].

Sahifai sharifai mashhun va maoni va iboroti latifai mamlu az nukot va xurdadoni nazdikoni dur va duroni nazdik ba huzurro musharraf soxt. Dar surati har xatte hazze ro‘y namud va az aksi har harfe faraxe partav andoxt. Az shavkatn shikva g‘unchahoi shukru sano damonid va az xori gila gulhoi mahmidatu duo shukufonid.

Sh ye ‘ r:

Gar lutfi tu bigzarad ba xoristonho,
Xoristonho shavad bahoristonho.

[90] She’rning mazmuni:
Qalaming nayi ma’ni shakarini,
Nayshakar kabi ichidan chiqargan.
Uning xatini mushkdek chiziqqa aylantirgan.
Xat ziminda go‘zal chehrali mazmunni [bergan].
Balki har dona nuktasidan
Ma’no tojiga yashirin durr yaratgan.

[91] Iltifot yuzasidan yuborgan maktublari [emas] balki dengizga o‘xshagan tab’lari daryosidan chiqargan gavharlari yetishti. Har holda bosh ustidagi tojga tikib qo‘yildi va ko‘z hamda ko‘ngil uyini u bilan yoritildi. Irshod quyoshi yer yuzi toliblari va osmon ostidagi qobillar boshida toblansin. Tamom.

[92] Qit’aning mazmuni:
Qalaming nayi ma’no bolasini,
Husn sabzalari bilan bezagan.
Tong boshini tun kokili bilan
Navqironlar chehrasinnng rashkini qo‘zg‘aydigan qilgan.
So‘zning qisqasi, mening uzun kechamni,
Parchalab tashlab, kunduzga aylantirgan.

Hikoyati gila va shikoyat binobar on voqe' shud, ki eshon az ruq'ai in faqir tasavvur kardaand va dar taxti taqrir va tahrir ovardaand va illo masnaviy:

N-oyad az tu chunon muomilae,
Ki kasero rasad az on gilae,
Nest az tu ba juz gila gila chand
Z-on ki lutfi tuash zi beh bikand.

Haqqi subhona hamvora dar nazari ofati xudashon dorad, va ba ofati nazari bexudashon nigah dorad. Vassalom[93].

* * *

Bir kun ul Hazrat xizmatida erdim va har nav' nazmdin so‘z o‘tar erdi. So‘z asnosida Mir Husrav (alayhar-rahma)[94]ning «Dar'yoi abror» otlig‘ qasidasi mazkur bo‘ldi. Bu faqir go‘yo aning ta'rifida mubolag‘a qildim va muhiq erdim. Nevchunkim, Mir Xusravdek kishidin mundoq mashhurdurkim, demish bo‘lg‘aykim: «Agar aflok havodisi va ro‘zgor navoibidin mening borcha nazmim zamona sahifasidin mahv bo‘lsa va bu qasidam qolsa menga basdur, nevchunkim, har kishi ani o‘qusa bilurkim, nazm mulkida mening tasarruf va iqtidorim ne martabada erkandur». Ammo necha dog‘i mundoq bo‘lsa, bu faqirdin ul Hazrat majlislarida ta'rifda ifrot munosib ermas erdi. Ul Hazrat hech nima demadilar, to majlis tarqadi.

Hamul uchurda podshoh Marv qishlog‘ig‘a ozim bo‘ldilar. Ittifoqo, necha kundin so‘ngra azimat bo‘ldi: Faqir ul Hazratdin ijozat tilay xizmatlarig‘a bordim. Istijozadin so‘ngra fotiha o‘qub, ruxsat berdilar. Dag‘i qo‘yunlaridin bir juz chiqorib, faqirg‘a inoyat qildilar. Olib ochtim, ersa «Dar'yoi abror» javobi «Lujjat ul-asror»[95] erdiki, hamul kunlarda aytib erdilar. Har kishi o‘qusa bilurki, «Dar'yoi abror»din yakdastroq va ranginroq. Niyozmandliq qilib, quloq tutub, otlanib, manzilg‘a tavajjuh qildim va manzil to‘qquz rabot erdi. Ot ustida qasidani o‘qub, xushholliq bila borurda xayolg‘a «Tuhfat ul-afkor»[96] qasidasining matlai keldi. Manzilg‘a tushgandin so‘ngra bitib bir bekdin ul Hazrat xizmatlarig‘a yiborildikim, agar tugaturga loyiq bo‘lsa va ishorat bo‘lsa, mashg‘ulluq qilayin, yo‘q ersa xayr.

Ul Hizrat ruq'alarida ta'riflar qilib, mubolag‘alar aytib erdilarkim, «albatta tugatsun», deb.

Faqir Marvg‘a borguncha ani ul Hazrat otig‘a tugattim va Marvdin ul Hazrat xizmatlarig‘a bitib yiborildi. «Dar'yoi abror» matlai budurkim:

---

[93] Ma'nolar bilan to‘la bo‘lgan sharofatli sahifa, nozik so‘zlar bilan toshqin go‘zal iboralar yaqin bo‘lgan uzoqlarni va uzoqdagi yaqinlarni huzur bilan sharaflantirdi. Har satrining shaklidan bahra yuz berdi va har harfining aksidan shodlik toblandi. Shukuhi shavkatidan shukr va maqtov g‘unchalari yetishtirdi va gina tikanidan madhiya va duo gullari ochdi.

She'r:

Agar sening lutfing tikanzorlarga yetishsa,

Tikanzor bahoristonga aylanadi.

Gina va shikoyat hikoyasi shuning uchun ham voqe' bo‘ldiki, o‘zlari (ya'ni Jomiy) kaminaning (ya'ni, Navoiyning) maktubidan shunday narsa borligini tasavvur qilganlar va (maqsadni) og‘zaki anglatish va yozma bayon qilishda ham keltirganlar. Holbuki:

Sendan shunday muomala bo‘la olmaski,

Biror kimsaga undan gina yetishsin,

Sendan ginadan bo‘lak hech qanchalik gina yo‘q,

Chunki lutfing uni tubidan uzdi.

Maqtalgan haq bir yo‘la yaxshilar sihatini nazarda tutsin va yomonlar nazari ofatidan saqlasin! Tamom.

[94] a.: unga olloh rahmati bo‘lsin!

«Daryoyi abror» (Pok kishilar daryosi) – Amir Xusrav Dehlaviyning falsafiy qasidasi.

[95] «Lujjat ul-asror» (Sirlar daryosining chuqur joyi) – Jomiyning «Daryoyi abror» javobida yozgan qasidasi.

[96] «Tuhfat ul-afkor» (Fikrlar tuhfasi) – Navoiyning Xusrav Dehlaviy va Jomiy qasidalariga javob tarzida yozgan qasidasi.

Ko‘si shah xolivu bongi g‘ulg‘ulash dardi sar ast,
Har ki qone’ shud ba xushku tar shahi bahru bar ast[97].

«Lujjat ul-asror» matlai budurkim:

Kunguri ayvoni shah k-az koxi Kanvon bartar ast,
Raxnaho don k-ash ba devori hisori din dar ast[98].

«Tuhfat ul-afkor» matlai budurkim:

Otashin la’le ki toji xusravonro zevar ast,
Axgare bahri xayoli xom puxtan dar sar ast

Bud yavmi jome’ shahri rajab ta’rixi on,
Turfatar k-in ro‘zu moh itmomi onro mazhar ast[99].

Bu ta’rixda g‘arobat borkim, ta’rixning oy va kunining zikridin yili hisobi «jumal qoidasi» bila hosil bo‘lur.

* * *

Ul Hazrat bu ruq’ani bitib yiborib erdilarkim: «Ba’d az adoi vazoifi duo maqrun ba ijobati samiallohu liman duo marfu’ on ki ba tozagi qoside rasid va qasidai tozav rasonid.

Sh ye ‘ r:

Chu harfe chand xondam z-on qasida
Dili xosonash andar qayd didam.
Dar on asno chu shud chashmi basirat
Kushoda jumla dilho sayd didam.

Harchand az matla’ to maqta’ dar har bayt va misra’ xotir ba sur’ati nuqudi mubohi ba har harfe furu shud, chun siyohi hech nuqsone chuz on ki daf’i aynul-kamolro dar husni kalom va lutfi maqol ko‘shida budand va az hech chize soxtai in noqisro libosi avsofi kamol po‘shida ba nazari andesha darnayomad, ore.

---

[97] Matla’ning mazmuni:
Podshoh nog‘arasining ichi bo‘shu sadosining bongi bosh og‘rig‘idir,
Kimki xo‘l-quruqqa qanoatlansa, dengiz va yer yuzining shohidir.

[98] Matla’ning mazmuni:
Podshoh qasri kungurasi Kayvon [Zuhal yulduzi] maqomidan ham yuksak bo‘lsa-da,
Bilgilki, undan din qal’asining devoriga darzlar tushgandir.

[99] Baytlarning mazmuni:
Podshohlar tojini bezovchi o‘tli la’l,
Boshlarida xom xayollarni pishiruvchi laqqa cho‘g‘dir,
Rajab oyining jum’a kuni uning ta’rixi edi,
Qiziqrog‘i shuki, uning tugallanishi ham shu kun va shu oyda yuz berdi.
Bu ta’rixda ajib joyi borki, ta’rixning oy kunining zikridan yil hisobi «jumal qoidasi» bilan hosil bo‘ladi.
Yuqoridagi she’rda Navoiy keltirgan ta’rix arab yozuvidagi «yavmi jome’ shahri rajab» jumlasi harflaridan abjad hisobida 880/1475 y. chiqadi.
«Jumal qoidasi» esa harflarning son miqdorini qo‘shish, orqali chiqariladigan ta’rix bo‘lib «abjad hisobi» demakdir.

N a z m:

Mashshota chu chehrai butun oroyad,
Az nil xate kashad pai daf'i gazand.

Az fahvoi on chunon ma'lum shud ki xizmati eshonro irodati iqbol bar qiblai maqsud va e'roz az namudhoi bebud mutaakkad shuda (Alhamdu lilloh alalummat). Ammo agar chunonchi dar tag‘yiri umuri suvariy va tarki ishtig‘oli g‘ayri zaruriy, chui muloimi mizoji azizon nest, mubolag‘a naravad va dur namenamoyad, hech jo nest, ki maqsud zohir nest va jamoli zuhurashro juz kamoli zuhur sotir ne.

Haqi subhonaha hamkunonro az haqiqati qurb ba maqsud ogoh gardonad va dasti himmat az nabudhoi bebud ko‘toh, vassalom[100].

Va ruq'a hoshiyasida qasida silasi bir bo‘rk bila sarafroz qilib, bir ro‘ymol mujibi obro‘y qilib erdilar. Mundoq bitib erdilarkim: «Toqiyai farqi toji takallufro va porai karbosi nashfi rutubati dasti az jahon shustaro firistoda shud»[101].

Chun «Tuhfat ul-afkor» qasidasi shuhrat tutti, podshoh hazratlarig‘a yetishti Chun Amir Xusrav va alar, balki har kishikim aytibtur — saltanat tariqining nafyi voqe' bo‘lubtur, faqir chun azizlarg‘a tatabbu' qilib erdim — hamul tariq mar'iy bo‘lub erdi. Podshoh chun o‘qub tahsin qildilar. Podshohning kamoli vus'ati mashrab va nihoyati husni xulqlaridin bu faqir mahjub bo‘lub, xayolg‘a keldikim, bu qasida va yana bir tatabbu' qilib, darvishlar maddohlig‘ini qilib, ammo hukumat tavrini ta'yin qililmay, podshohning muborak otig‘a tugatilgay. Bu matla' xotirimg‘a kelib erdikim,

n a z m:

Xirkai pur bax'ya k-ahli faqrro k-on dar bar ast,
Bar firozi olami ma'ni sipehru axtar ast[102].

Chun burung‘i matla' aytilg‘onda alar hazratig‘a yiborib, niyoz yuzidin arz qilib, tatabbu' qilurg‘a istijoza qilib erdim va ishorat bo‘lg‘ondin so‘ngra aytilib erdi. Bu matla'ni dag‘i Marvdin bitib,

[100] Duo qilish vazifalari adosi ijobati bilan olloh xabardorni yuksaltirgandan so‘ngra ma'lum bo‘lg‘aykim, yangidan chopar keldi va yangi qasidani yetkazdi.

She'r:

U qasidaning bir necha joyini o‘qib,
Xoslar dilini unga bog‘langan ko‘rdim.
Shu asnoda xushyorlik ko‘zi ochilib,
Hamma dillarni ovlangan ko‘rdim.

Har qalay boshdan to oxirigacha har bayt va har misra'dagi har bir harfga xotir faxrlanish hislari junbushi bilan sinchiklab qaragan bo‘lsa ham, lekin hech bir nuqson qoraligi, so‘z husniga va maqol lutfiga «ko‘z tegish»ni daf' etishga urinishdan boshqa va hech bir soxta narsadak bu nuqsonliga kamol maqtovi libosini kiygan fikr nazarga tashlanmadi. Shunday.

N a z m:

Pardozchi go‘zallar chehrasini bezaganda,
Ziyon yetkazmaslik uchun nil-ko‘k cho‘p bilai chiziq tortadi.

Uning mazmunidan shu narsa ma'lum bo‘ladiki, ularning xizmatlarini iqbol irodasi maqsad qiblasiga va yoqimsiz ko‘rinishlardan yuz o‘tirishga undovchi bo‘lgan (Olloh va uning ummatlariga maqtovlar bo‘lsin!). Ammo agar yuzadagi ishlarni o‘zgartish va zarur emas narsalar bilan shug‘ullanishii tark etishga ko‘p urinilmasa, zeroki bu azizlarning muloyim mizojiga uyg‘un emas (desak) mubolag‘a bo‘lmaydi va uzoq ketilmaydi. Hech o‘rin yo‘qki, maqsad zohir bo‘lmagay. Zohir bo‘lish jamolini zohir bo‘lish kamoli bekituvchi emas

(Maqtovli tangri barchani maqsad yo‘lida haqiqat qudratidan ogoh va himmat dastini bechoralar nobudligidan kalta qilsin. Tamom.)

[101] Takalluf tojini tark etgan bosh uchun do‘ppi va jahondan qo‘l yuvgan qo‘lning xo‘lini o‘ziga oluvchi parcha bo‘z yuborildi,

[102] She'rning mazmuni:

Faqirlar egnidagi ko‘p yamoqli to‘n,
Ma'no olami yuksakligining osmoni va yulduzidir.

shahrga alar xizmatig‘a yiborildi. Muning dag‘i ta’rifida rangin ruq’a bntib, istihsonlar ko‘rguzub yiborib erdilar. Bu ikki bayt bul ruq’adindurkim,

b a y t:

Zihi karda az shavqi shahbozi tab’at
Humoyoni qudsiy havoi nazarvi
Zi mardum firistoda yak matlai xush,
K-az ahli suxan misli o‘ nest marvy[103].

* * *

Faqir ul vaqtdakim, mulozamatg‘a mashg‘ul erdim — doim ul Hazratg‘a maxlasim bobida iltimoslar qilur erdim. Alar har nav’ so‘z bila faqirg‘a taskin berur erdilar.

Bir kun Murg‘ob navohisida erkonda mulozimat mashaqqati va ashg‘ol kasratidin iztiror yuzlanganda alar xizmatig‘a bir kishi yiborib, ul ruboiyni ruqada arz qildimkim,

r u b o i y:

To kay chu sabo har tarafam jilvagari,
Xoham sui sarvi xud kunam paysipari,

Far’yodkunonu xok bar sar figanon
Go‘yam ki xalosam kun az in darbadari[104].

Alar nasihat yuzidin mav’izaomiz ruq’a bitib, bu ruboiyni aytib erdilarkim,

r u b o i y :

Az didai jon agar ba jonon nigary,
Az tafriqai jahon kucho g‘ussa xo‘ri,
In tafriqa hargiz chun nagardad sipari,
Bo tafriqa jam bosh, to bahra bari[105].

* * *

[103] Baytlarning mazmunn:
Qanday yaxshi! Lochin tab’ingning shavqi,
Poklik qushlarini qirg‘ovul qildi.
Kishi orqali bir yaxshi matla’ yuboribsan,
So‘z ustalaridan uning tengi borligi eshitilmadi.

[104] Ruboiyning mazmuni:
Qachongacha yeldek har tomondan jilva qilay?!
O‘z sarvim tomon yelib yugirishni xohlayman.
Faryod qilib, boshimga tuproq sochib,
Qutqar meni bu darbadarlikdan deyman.

[105] Ruboiyning mazmuni:
Agar jononga jon ko‘zi bilan boqsang,
Jahon bevoshligidan g‘am chekarmi eding?
Bu bevoshlik hech qachon tuganmaydi.
Bevoshlik sabab yig‘noq bo‘l, toki bahra topgaysan.

Alar Makka safarig‘a borg‘onda Bag‘doddin bag‘oyat rangin noma bitib erdilar. Ul noma avvalida bir g‘azal bitib erdilar. Matlai budurkim:

Bar kanori Dajla dur az yoru mahjur az diyor,
Doram az ashki shafaqgun dajlai xun bar kanor[106].

Borur kishidin ul g‘azalg‘a tatabbu’ qilib, noma yiborib erdim. Matlai budurkim:

Shomi hijron k-u mag‘rib shud nihon xurshedvor
yo rabash subhi visol az jonibi mashriq baror[107].

Ammo ruq’aning oxirida bu ruboiyni ham bitib erdim,

ruboiy:

In noma, na noma, dofei dardi man ast,
Oromi daruni ranjparvardi man ast,
Taskini dili garmu dami sardi man ast,
Ya’ne xabar az mohi jahongardi man ast[108].

Alar Makkadin qaytg‘onda Halabdin bu ruq’ag‘a javob bitib erdilar va bu ruboiy anda erdikim;

In ruq’a, na ruq’a, moyai har tarab ast,
Tahsili nishotu ayshro xush sabab ast,
Z-in son ki buvad muxtasaru purma’ni
Go‘yo zi «Javomi ul-kalim» muntaxab ast[109].

Alar Makka safaridin kelganda podshoh Balxda erdilar va faqir bir qosidni alarni ko‘rub, salomatlig‘ xabarlarin keltursin deb shahrg‘a yibordim. Tahniyatomiz ruq’a ham bitib erdim. Anda bu ruboiy mastur erdikim,

r u b o i y:

Insof bideh, ey falaki minofom,

[106] Matla’ning mazmuni:
Dajla [daryosi] qirg‘og‘ida yordan uzoq, diyordan judolikda
Shafaqrang ko‘z yoshidan ko‘ksimda qon dajlasi bor.
[107] Matla’ning mazmunn:
Hijron shomi quyoshdek g‘arb tomonga yashirindi,
Yo rabbiy, visol tongini sharq tomondan yetkizgil.
[108] Ruboiyning mazmuni:
Bu maktub, maktub emas, mening dardlarimni daf’ etuvchidir.
Og‘riq bilan qiynalgan ko‘nglimning oromidir.
Qaynoq dilim va sovuq nafasim taskinidir,
Ya’ni mening jahon kezib yurgan mohimdan xabardir.
[109] Ruboiyning mazmuni:
Bu xat, xat emas, har bir shodlikning negizidir
Xursandchilik va aysh hosil qilishning yaxshi sababidir.
Qisqa va ko‘p ma’noli ekanligi bilan,
Go‘yoki «Javomi ul-kalim»ning muxtasaridir.
«Javomi ul-kalim» – o‘zi qisqa, lekin g‘oyat chuqur ma’noli so‘zlarni o‘z ichiga oluvchi, demakdir.

To z-in du kadom xubtar kard xirom,
Xurshedi jahontobi tu az matlai subh,
Yomohi jahongardn man az jonibi Shom[110].

Alar bu ruq'aning muqobalasida bag'oyat rangni ruq'a bitib yibordilarkim,

r u b o i y:

Bo kilki tu guft noma, k-ey gohi xirom,
Sad tuhfai xush ba Rum ovard zi Shom.
Gar poi tu dar miyon naboshad — narasad
Mahjuronro az jonibi do'st payom[111].

Ul vaqtdakim, shahzodai behamto Kichik mirzo[112] toba sarohu zolli muzillii xatoko'sh, devonai sinh ro'i siyahpo'shqa yo'luqmaydur erdi, bid'atlar tariqig'a nosih va ahli sunnat va jamoat qoidasig'a rosix erdi, tavozu' va niyoz nahajig'a xursand va faqru fano ahlig'a muxlis va niyozmand erdi, faqirning «Tuhfat ul-afkor» qasidamdinkim, alarning otig'a aytilibtur va yuqori mazkur bo'ldi — ul mahallidinkim, alardin nazari qabul istid'osi qilib, arzi niyoz izhori bo'lur erdi, bu baytnikim:

Yak nazar farmo, ki mustasno shavam z-abnoi jins,
Sag chu shud manzuri Najmiddin sagonro sarvar ast[113].

bitib, hamul istid'o bila Samarqandg'a hazrati malozu-panoh ahlulloh Xoja Nosiruddin Ubaydulloh[114] (quddisa sirrihu) xizmatig'a yiborib erdi. El Kichik mirzodin bu tariyqni mustahsan tutub, ani duo qilurlar erdi. Ul toifadin ba'zi bu baytni ham ta'-rif qilurlar erdikim, bu mazmunda yaxshi voqe' bo'lubtur.

Mirsarbarahna[115]kim, zamon ahlining mutaayyin xushtab' va zarifi erdi, faqirni muxotab qilib, bu baytg'a e'tiroz qildikim: «Agarchi sen bu baytda izhori kasri nafs qilibsen va o'zungni itga nisbat

[110] Ruboiyning mazmuni:
Ey moviyfalak, insof bilan aytgil,
Bu ikkisidan qaysi biri yaxshiroq yurish kildi:
Tong otar tomondan ko'tarilgan sening quyoshingmi?
Yoki kun botar tomondan chiqqan mening jahon kezuvchi mohimmi?

[111] Ruboiyning mazmuni:
Sening qalamingga qarab xat dediki: ey yurish chog'ida
Rumga Shomdan yuzlab yaxshi tuhfa keltirgan,
Agar o'rtada sening oyog'ing bo'lmasa,
Ayriliqda qolganlarga do'stning salomi yetishmas edi.

[112] Kichik mirzo – Ulug'bek o'g'li Mironshohning nabirasi, Husayn Boyqaronng opasi Oqobegimning o'g'li.

[113] She'rning mazmuni:
Bir nazar tashla tengqurlardan farqli bo'lay,
Najmiddinga manzur bo'lgan it, hamma itlarga boshliq bo'ldi.
She'rda tilga olingan Najmiddin – Najmiddin Kubro nomi bilan mashhur bo'lgan tasavvuf shayxlaridan. To'liq nomi Najmiddin Kubro Ahmad ibni Umar Xevaqiy (1145 – 1226) «Ayn ul-hayot» nomli Qur'onga yozilgan keng sharhning muallifidir. Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asarida keltirilishicha, bir yig'inda Najmiddin Kubro suhbatdosh va muxlislaridan Shayx Sa'diddin Hamaviy degan shaxs xayolidan «bu ummatlar orasida suhbati itga asar qiladigan bormikan?», degan fikr o'tadi. Shayx Najmiddin karomat qilib, buni anglaydi, xonaqoh eshigidan bir itni keltiradilar. Unga Shayxning nazari tushadi. It g'oyat o'zgaradi va shahardan chiqib go'ristonga ravona bo'ladi. 50 – 60 ga yaqin boshqa itlar undan ayrilmas, hech narsa yemas, agar u it biror joyda to'xtasa, atrofini xalqa bo'lib o'rab, uni chiqarmas edilar. O'sha it o'lgach, Shayx buyrug'i bilan uni dafn etib, qabri ustida imorat yasagan emishlar. Navoiy yuqoridagi baytida ana shu rivoyatga ishora qiladi.

[114] Xoja Nosiruddin Ubaydulloh – Xoja Ahror nomi bilan mashhur bo'lgan naqshbandiylik tariqati peshvolaridan. Xoja Ahror (1404 – 1490)ga Jomiy ayrim asarlarini bag'ishlagan.

[115] Mirsarbarahna – asli Turkistondai bo'lgan Hirot shoirlaridan. Navoiy va Jomiyga suhbatdosh.

beribsen, ammo abnoyi jinsg‘a dag‘i ushbu nisbat voqe’ bo‘lubtur. Shoyadki abnoyi jins bu nisbatdin or qilib, qabul qilmag‘aylar. Tashbihekim, kishining o‘z kasri nafsi jihatidin bir jamoatg‘a ihonat yetgay — yaxshi bo‘lmag‘ay».

Faqir ayttimkim: «O‘zumni itga tashbih qilibmen — kasri nafs jihatidin emas, balki nafsoniyat tug‘yonidin bayoni voqe’dur. Abnoyi jinski debmen, sizni demaymen, soyir itlarni debmenkim, ko‘y-ko‘chada yururlar».

Miri mazkur bu so‘zimdin mutaassir bo‘lib, ko‘z yoshi bila duo va tahsin qildi. Va Mirning bu savoli va faqirning javobi shuhrat tutti. Alarning dag‘i muborak sam’ig‘a yetishganda istehson qilib debdurlarkim: «ul bayti xud yaxshi baytdur, ammo javobi ham ul baytidin yaxshiroq voqe’ bo‘lubtur», — deb, bu faqirni g‘oyibona fotiha bila bahramand va arjumand qilibturlar. Faqir eshitgach, mujibi nishotu xushholliq va boisi inbisotu forig‘ulbolliq bo‘ldi.

* * *

Faqir Astrobod yo‘lida Taxti Sulaymon dahanasidin alar xizmatig‘a bu ruboiyni bitib erdimkim,

r u b o i y:

Ey bod, dilam bishud digar jonibi yor,
Jon ham bibaru ba poi u soz nisor
V-on gah qadre zi xoki poyash bardor,
Bahri evazi joni mani dilshuda or[116].

Alar javobida bu ruboiyni bitib erdilarkim, ruboiy:

Ey bod, chu omadi zi sarmanzili yor,
Omad ba dilam z-omadanat sabru qaror.
N-omad ba qaror az in qadar jon zinhor
Uro bibaru ba on ki doni bisupor[117].

Chechaktu haddida alardin bu ruq’a kelib erdikim:

«Salome karda az «sin» tezdandon,
Kushoda uqdaho az rishtai jon.
Salome az kamandi turrai «lom».
Dili sohibdilon ovarda dar dom,
Salome xushtar az firdavsi a’lo,
«Alif» dar vay kashida qad chu to‘bo.
Ba zeri on «alif» az chashmai «mim»
Ayon dar poi to‘bo ayni Tasnim.

[116] Ruboiyning mazmuni:
Ey shamol, dilim yana yor tomon yo‘naldi,
Jonni ham olib borib, oyog‘i ostiga to‘shagil
Va o‘sha oyog‘i ostidagi tuproqdan ozgina olib,
Jonim evaziga men dilsiz qolganga keltirgil.
[117] Ruboiyning mazmuni:
Ey shamol, yor manznlidan kelding,
Kelishingdan ko‘nglimga sabru qaror yetishti.

Tuhfai suhbati sharif va had'yai majlisi munif gardonida ma'ruz on ki chun xizmati mavlaviro shavqi rikobbo‘si inongir shuda bud, xudro ba fitroki u bastan vojib namud, lojaram in ruq'ai mashub bar risolae ki ba tajdid va tahrir payvasta ba huzur faristoda shud, agar maslahat donand ba arzi humoyun rasonand va illo — bayt:

Har chi na maqbuli dili poki tust,
Boyadash az safhai avroq shust.

Davlati o'jili mufizi ba saodati o'oil barvajhi akmal muyassar bod va muhassal, vassalom»[118].

Bu ruq'alari kelgan vaqtda alarning muborak mizojlarig‘a oriza voqe' bo‘lub, necha kun behuzur bo‘lub, yana sihatlari xabari keldi. Faqir bu ruq'ani bitib yiborib erdikim:

«Niyoze ki az sajdai az had afzun
Shuda jabhaash dog‘ az nuqtai «nun»,
Pas on goh zi «yo» az pai shavqi didor,
Zi ro‘i raqam ohi dil karda izhor.
Va gar az «alif» dar vafo buda yakto
Chu sarvi chaman omadi poi bar jo,
Zi «zo» kunad shomi g‘amro munavvar,
Ayon soxta mohi boloyash axtar.

Ba'd az arzi chunin niyoze, ki marqum gasht va raf'i ixlose ki bar zaboni xoma guzasht, ma'ruzi royi bandagoni ostoni qudsiy osh'yon on ki chunin istimo' aftod, ki dah-ponzdah ro‘z orizae dast doda buda va mohl tamomi sipehri ma'ni ru ba za'f nihoda, muxlisonro az in xabar sipehrosor sargardoni va zarrakirdor pareshoni dast dod.

Alhamdu lilloh val-minna, ki ba'd az du hafta hamon paykari ulvi-xirom ro‘ ba burji sihhat va jamol ovarda va mayl ba avji quvvatu kamol karda, samadoti shukr bajo ovarda, falonro bajihati tahqiqi in hol va tasdiqi in maqol firistoda shud. Multamas in, ki ba zudi bozash gardonand va faqironro az xushii on xabar ba xushholii tamom rasonand va kayfiyati risolai az nukot mamlu va mashhun va guzashtani on dar majlisi humoyun ba zudi ma'ruzi majlisi oli xohad shud.

Soyai irshod bar sari bandavu ozod muabbad va muxallad bod, vassalom»[119].

---

[118] «Salom»ing «se» harfidan o‘tkir tish qilib,
Jon tanobidagi tugunlarni ochdi.
O‘sha salom [so‘zidagi] «l» harfining sochga o‘xshash kamandi bilan,
Sof ko‘ngillilar diliga tuzoq soldi.
Oliy jannatdan ham yuksak bu salomdagi
«Alif» Tubo (jannatdagi go‘zal daraxt nomi) daraxti qaddiga o‘xshaydi.
U «alif» tagidagi «mim» chashmasidan
Tubo ostida Tasnim (jannatdagi bulog‘ning nomi) bulog‘i ayon bo‘ldi.
Sharafli suhbat tuhfasi va oliy majlis hadyasi o‘laroq arz qilinadiki, Mavlaviy xizmati uchun uzangi o‘pish shavqi jilov ushlatganidan o‘zimni uning tasmasiga bog‘lash vojib ko‘rindi. Binobarin, yangidan tahrirdan o‘tgan risolaga hamroh qilib bu maktubni huzurlariga yuborildi. Agar maslahat ko‘rilsa, podshohga yetkazsalar, yo‘qsa, bayt:
Har neki pok dilingga maqbul bo‘lmasa,
Varaqlar betidan yuvib tashlamoq darkor.
Istiqbol saodatiga eltuvchi tez kelgan davlat mukammal ravishda muyassar [umidlar] hosil bo‘lg‘ay. Tamom.

[119] Sajdada qilgan behad niyoz (ya'ni iltijo)lardan
Peshanasi «nun» harfidagi nuqta kabi dog‘ bo‘ldi.
O‘sha vaqtda ko‘z shavqi tufayli «yo» dan
Yozuv ustida dil ohi izhor bo‘ldi.
Agar «alif»dan vafoda yagona bo‘lsa,
Chaman sarvi kabi oyog‘i o‘z joyida bo‘ladi.
«Zo»dan g‘am tunini yoritsa,

* * *

Podshoh Qunduz viloyati azimatig‘a cherik otlang‘onda alarning va hech kimning ul yurush dilxohi emas erdi. Faqirg‘a deb erdilarkim: «ulcha mumkin bor, bu yurushning man’ig‘a sa’y qilg‘aysen va ul matlub surat bog‘lamag‘ay, azimat jazm bo‘lsa, bizga bitib yiborgaysen».

Ulcha mumkin va maqdur erdi — sa’y qilildi. Chun haq subhonahu va taolo taqdiri borurg‘a erkondur, Taxti xotun degan yerdin azimat musammam bo‘ldi. Faqir alar xizmatig‘a bu kayfiyatni bitib, ruq’a yibordim. Bu ruboiy ul ruq’aning avvalida erdikim,

r u b o i y:

Guftam falakam ba har taraf ronandast,
Sargashtagi orandavu gir’yonandast,
Ne, ne, donad har on ki u donandast,
K-u niz asnri dasti gardonandast[120].

Alar ruq’ag‘a bu nav’ javob iltifot qilib erdilarkim,

r u b o i y:

Ezid, ki ba harfi mo qalamronandast,
Bar movu tu asrori qidam xonandast.
Bo u dili mo bo on pare monandast,
K-ash bod ba push-tu ro‘y gardonandast[121].

Shibirg‘on navohisida alardin bu ruq’a keldikim,

r u b o i y:

«Xonda ba sariri kilki tu duronro,
Dar doda saloi vasl mahjuronro,
Qonuni shifo navishta ranjuronro,

Tepasidagi mohi yulduz ayon qiladi.

Yuqorida arzga yetkazib yozilganidek, qalam tilidan o‘tgan ixlos bayonidan so‘ng muqaddas oston bandalari huzurida ma’lum qilinadiki, eshitishimcha o‘n-o‘n besh kun xastalik yuzlanib, mano osmoning to‘lin oyi zaiflikka o‘grilgan ekan, bu xabardan muxlislar osmondek sargardon va zarra kabi parishon bo‘ldilar.

Xudoga shukrki, ikki haftadan so‘ng u yuksak xirom zot sog‘liq va kamol burjiga yuz tutib, quvvat va kamol avjiga mayl ko‘rgizib, shukronalik sajdalarini yoriga yetkazibdilar. Falonchini bu holni aniqlash va bu so‘zni tasdiqlash uchun yuborildi. Iltimos shuki, tezda [u kishini] qaytarib yuborsalar va bu faqirlarni [olinajak] xabarning yaxshiligidan tamomila xushhollikka yetkazsalar. Nozik fikrlar bilan to‘lib-toshgan risola haqida va qutlug‘ majlisdan o‘tganligi to‘g‘risida tezda oliy majlisga arz qilingusi.

Rahbarlik soyalari qul va ozodlar boshida abadiy va doimiy bo‘lgay!

[120] Ruboiyning mazmuni:
Dedim: falak meni har tarafga haydaydi,
Sargashta qiladi va yig‘latadi.
Yo‘q, yo‘q, u har qanday bilish kerak narsani biladi,
U ham aylantiruvchi qo‘lida asirdir.

[121] Ruboiyning mazmuni:
Bizning taqdirimizni yozgan xudo,
Biz bilan senga qadimiy sirlarni bildirguvchidir.
U dilimizni shunday narsaga o‘xshatib yaratdiki,
Shamol uni orqa-o‘ngga qarata aylantiraveradi.

Binshonda ba on otashi mahruronro.

Chun vurudi ruq'ai sharif az hududi on buq'ai munif bar muxlisoni sidk-antimo ba zuhur anjomid, har yak az didai ramadrasida va sinai kamad kashida az qalaqi hiddati marorati firoqu iztirob va shiddati harorati ishtiyoq ba mavtini ulfat va nishimani zo'lfat biyoromid.

B a y t:

Ba rohat qarin bod on dastu panja
Ki xudro bad-in makrumat soxt ranja»[122].

Faqir bu ruq'a javobida arzadosht qilib erdimkim,

r u b o i y:

«Nazdik shud az davlati didori tu dur,
K-az ham gusiland jonu jismi ranjur,
K-u az g'aybat birasad ba-din har du futur,
To man shavam az huzuri vaslat masrur.

Ruq'ae ki nazmash jonu dili pareshonro dar silki intizom kashid va nasrash gavharu durri didai ashkafshonro bar ro'y kahrabofom poshid, dar in vilo ba muhinsoni duru duroni az davlati visol mahjur rasid. Pai taskini iztirobi jonu dili g'amanduz bar sinaash nihodam va ba jihati oromi gir'yahoi jonso'z boloi chashmi gir'yonash jo dodam. Umedvori on ki so'xtagoni fyroqro gohe ba hamin siyoq ba yod orand va dili afro'xtagoni otashi ishtiyoqro ba navozishi ruq'a shod dorand»[123].

* * *

Alar xizmatidin Andxud navohisida bu ruq'a kelib erdikim: «Duoe bidoyati on mazmum maash-shavqi val-g'irom va nihoyati on mamdud ilo yavmil-qiyom valayni maftuhatun ilal-ijobati minallahi-malikilallom ba surati niyoz nisori bisoti jur'at va inbisot megardad. Va maylu shaaf ba naylu sharafi

[122] Xatning mazmuni.
R u b o i i:
Qalaming ovozi uzoqdagilarni chaqirdi,
Judolikda qolganlarga vasl nidosini eshittirdi.
Xastalarga shifo topish qonunini yozdi,
O'sha bilan kuyganlarning otashini so'ndirdi.
U pokiza manzildan sadoqatli muxlislarga sharafli maktub yetishib, ularning har biri beqarorlik huruji, firoq va iztirob achchig'ligi va mushtoqlik haroratining shiddatidan toliqqan ko'z va dog'li yuraklarini ulfat vatangohida va yaqinlik joyida tinchitdi.
B a y t:
U dastu panja rohatga erishsin,
Chunki u o'zini mana shu izzat-obro' uchun ranj torttirdi.
[123] R u b o i y:
Diydoring davlatidan yaqinlar uzoq tushdi.
Shu tufayli jon uzilay dedi, jism esa azobda qoldi.
Sening yo'qligingdan bularning har ikkisiga futur yetishadi,
Toki men sennng huzuringda shod bo'lmaguncha.
Yuborilgan maktubdagi she'r parishon dil va jonni intizom ipiga tortdi. [Undagi] nasr esa yosh to'kuvchi ko'zdan gavhar va durrni kahrabo rang yuzga sochdi. Bu vaqtlarda uzoq-uzoqdagi muxlislarga visol davlatidan judolik yetishdi. Taskin uchun qayg'uli jon bilan ko'ngil iztirobini siynamga qo'ydim, jon kuydiruvchi yig'ilarga orom berish uchun giryon ko'z ustidan joy berdim.
Umidvorlik shuki, firoq [o'tida]. kuyganlarni goho shu tarzda eslab tursalar va ishtiyoq o'tida yonganlar dilini maktub bilan ovutib, shod qilsalar.

muloqot besh az on ast, ki ba sarfi ashiyyot va g‘adavot dar e’moli adavoti qalam va davot adoi shammae az on tavon kard, lojaram inoni qasdu niyat az savbi on umniyat ma’tuf doshta ba in du bayt masruf megardad.

Q i t ‘ a:

Zirak on kas, ki dar xarobai dahr
Dari ganjinahoi roz zanad.
Johi ko‘toh zeri poy nihad
Dast dar davlati daroz zanad.

Loyazol ravzai umed barumand bod va shoxi davhai saodati jovid ba on payvand, vassalom»[124].

Faqir javobida bu ruq’ani arz qildimkim:

«Nomae, ki az harfi avval ro‘i niyoz zohir karda boshad va az duvvo‘m shu’lai otashi shavq az dil barovarda va az ro‘i digar g‘ami dil namuda va az pechi safhai navardash hamon tariq paymuda ba mavqifi arz rasonida ma’ruf megardonad, ki dar in vilo, ki ruq’ai sharif omad.

M a s n a v i y:

Bo‘sida ba chashmi xud nihodam,
Boloi sarash maqom dodam.
Ham boisi nuri chashmi man gasht,
Ham farqi saram zi charx bizasht.

Qosid, ki ba suxanhon zaboni navoxt, ba irsoli kitobi «Muhabbatnoma» va sharobi sandal musharraf soxt, har duro ba xizmatash doda shud va o‘ro ba sharafi xizmat firistoda shud. Umed on ki surati mehnati firoq az mutolaai on tasavvur namoyand va dardu ranji ishtiyoqro az sharbati visol muolaja farmoyand. Zilli oli bar maforiqi ahli irodat loyazoli bod, vassalom»[125].

* * *

[124] Boshlanishi shavq va zavq bilan to‘lgan, oxiri qiyomatgacha cho‘ziladigan hamda xudoning maqbullashiga maxtal ko‘z uning izni bilan ochiq holda duo qilib jur’at va xushnudlik bilan yo‘llanadi. Muloqot sharafiga mayl va muhabbat shunday behadu ziyodaki, qalam va siyohni ertayu kech ishga solinganda ham uning ozdan-ozini ado qila oladi, xolos. Noiloj qasd va niyat jilovini u orzudan qaytarib, bu ikki baytga tutqazildi.

Qit’a:

Ziyrak u kishiki, dunyo xarobasida,
Sirrlar xazinasining eshigini qoqadi.
Qisqa [umrli] mansabni oyoq ostiga tashlab,
Qo‘lni uzun davlatga (ya’ni, ijodiy ishlarga) uradi.
Ketmas umid bog‘i mevador va abadiy saodat daraxtining shoxi unga payvand bo‘lgay! Tamom.

[125] Birinchi harfidan niyoz zorlanish yuzini zohir qilgan va ikkinchisidan shavq o‘ti shu’lasini dildan taratgan va boshqa tomondan dil g‘amini ko‘rsatgan va sahifasi o‘rovini shundan anglagan maktubni arzga yetkazib, ma’lum qilindiki, bu paytda sharofatli maktub keldi.

M a s n a v i y:

O‘pib ko‘zimga surtdim,
Bosh ustidan joy berdim.
Ko‘zim nuriga sabab bo‘ldi,
Boshim esa osmondan ham yuksaldi.

Xat olib boruvchi og‘zaki so‘zlar bilan erkalab, «Muhabbatnoma» kitobi va sandal sharobini eltishga musharraf qilindi. Har ikkalasini unga topshirildi va uning o‘zini sharofatli huzurlariga yuborildi. Umid shuki, firoq azoblarining ko‘rinishlarini uning mutolaasidan tasavvur etgaylar va ishtiyoq dardu ranjini visol sharbati bila davo qilgaylar. Yuksak soyalari muridlar boshidan arimagay! Tamom.

Faqirni podshoh ba’zi maslahatlar uchun Murg‘obdin ta’jil bila Mashhadg‘a yiborib erdilar va hukm andoq erdikim, shahrg‘a yetmay o‘tgaymen. Ittifoqo shahr navohisig‘a yetgan mahalda tavochi[126] nishon kelturub, o‘rdu sori qaytardi. Bu sababdin alar xizmati musharraf bo‘lmoq muyassar bo‘lmadi. Alar bu ruq’ani bitib yiborib erdilarkim,

r u b o i y:

«Binmud abre zi jonibi dashtu biraft,
Az tashnalabon zi dur bigzashtu biraft,
Bargasht umedi mo jigarso‘xtagon,
Norexta nam zi roh bargashtu biraft.

Harchi umedi noumedon ba husul narasid va murodi nomurodon ba vusul nayanjomid.

Umed ast, ki har chi maslahati diniy va dun’yaviy xodimoni on oston ba on manut boshad va saodati suvariy va ma’naviy mulozimoni on davlatxona ba on marbut bir vajhi ahsan va tariqi akmal muyassar gardad, ba minnati vujuda val-islom, vassalom»[127].

Faqir javoblarida bu ruq’ani yiborib erdimkim,

r u b o i y:

«Dil chun alami davlati vaslat afrosht,
Jon niz xayoli xud bad-on azm gumosht,
Har yak chu bad-in murod nazdik rasid.
Gardun ba murodi nomurodon nagzosht.

Arzadosht on ki axtari tole’ agarchi az matlai iqbol lome’ shud, ammo chi sud, ki az gardishi falaki hasud baburji sharaf norasida roje’ gasht.

Yorone ki po ba roh nihoda, ehromi davlati mulozamat bastand va ba silki davlatmandone ki dar mulozamat hastand payvastand, didai mahrumiy bar kafk poyashoi molida ba jonibi o‘rdu muovadat namud (Zalika fazlullahi yutiyahu man yash’a).

Garchi xurshed buvad tolei ro‘zafzunam,
Narasonid ba Isonafase gardunam.

Agar xotiri anvar ba on orand va himmati olii bad-on gumorand, ki royoti humoyun mayli shahr namoyand va arkoni davlati ro‘zafzun ba hamrohi azimat farmoyand, shoyad ki ba tufayli azizon in xori ashkre-zon niz bad-on saodat va iqbol, ya’ne ba sharafi davlati visol musharraf va musta’sid

[126] Tavochi – podshohning buyruq hamda topshiriqlarini tegishli joylarga va odamlarga yetkazuvchi hamda amalga oshiruvchi amaldor.

[127] R u b o i y:

Dasht tarafdan bulut ko‘rindiyu o‘tib ketdi,
Tashnalablardan uzoqda o‘ttiyu ketdi.
Biz jigari yonganlarnint umidi ushalmay,
Nam to‘kmay yo‘ldan qaytdiyu ketdi.

Har qalay, noumidlar umidi hosil bo‘lmadi va nomurodlar murodiga yeta olmadi. Umid shuki, u ostona xodimlarining u kishiga taalluqli bo‘lgan hamma diniy va dunyoviy maslahatlari va davlatxona xizmatchilarining u kishiga bog‘liq bo‘lgan barcha moddiy va ma’naviy saodatlari eng yaxshi va eng mukammal yo‘l bilan muyassar bo‘lg‘ay! Tamom.

tavonad shud, vassalom»[128].

UChINChI MAQOLAT

Kutub va rasoil bobidakim, alarning musannafotidur va mazkur bo‘lg‘on musannafotning te’dodi budurkim:

«Shavohid un-nubuvvat»[129];
«Nafahot ul-uns»;
«Naqd un-nusus»[130];
Naqshbandiya xojalari tariqida bitilgan risola;
«Ashi’at ul-lamoat»[131];
yana: «Fusus»[132] sharhida bitilgan risola;
yana: Hazrati Mavlonoyi Rumiy «Masnaviy» sidin ikki baytig‘a sharh bitilgan risola;
yana: «Lavome’»[133];
yana: «Lavoeh»[134];
yana: Ibn Forizning «Toiya»[135] ab’yotidin ba’ziga sharh bitilgan risola;
yana: Ruboniyot sharhi[136];
yana: Amir Xusrav Dehlaviy baytig‘a sharh bitilgan risola;
yana: Ibn Zarrin ul-Uqayliy[137] hadisig‘a sharh bitilgan risola;
yana: Hazrati Xoja Muhammad Porso[138] so‘zlarin jam’ qilg‘on risola;

---

[128] Xatning mazmuni:

R u b o i y:

Ko‘ngil vasling davlat tug‘ini ko‘targanda,
Jon ham o‘z xayolini shunga yo‘lladi.
Har qaysisi shu murodga yetdim deganda,
Falak nomurodlarni murodiga yetkazmadi.

Arzimiz shuki, tole’ yulduzi agarchi iqbol matla’idan porlasa ham, ammo nima foydaki, hasadchi falak gardishidan sharaf burjiga yetmay qaytib ketdi.

Yo‘lga chiqib, xizmatkorlik davlati belbog‘ini bog‘lagan va xizmatda hozir bo‘lgan davlatmandlar qatoriga kirmoqchi bo‘lgan yoronlar mahrumlik ko‘zini oyoq kaflariga surkab, o‘rda tomonga qaytdilar (arabcha: U Ollohning fazli-marhamatidir, uni istagan kishisiga beradi).

Garchi quyosh uzun kunlarimda porlab tursa-da,
Meni Iso nafasliga yetkurmadi.

Agar nurli xotirni shunga qaratsalar va oliy himmatni shunga tashlamasalarki, qutlug‘ qo‘shin bayrog‘i shahar tomon mayl qilsalar va kundan-kunga ortib boruvchi davlat arkoni bilan birgalikda yurish qilsalar, shoyadki, azizlar tufayli bu ko‘z yoshi to‘kuvchi kamtarin ham o‘sha saodat va iqbolga, ya’ni visol davlati sharafiga musharraf va [undan] bahramand bo‘la olsam. Tamom.

[129] «Shavohid un-nubuvvat» (Payg‘ambarlik shohidlari) – bu asarda Jomiy payg‘ambarlar hayotiga oid ma’lumotlar va rivoyatlarni keltiradi.

[130] «Naqd un-nusus» (Hujjatlar sarasi) – 1458 – 59 y. da yozilgan bu asarida Jomiy tasavvufga oid Ibn al-Arabiy nomi bilan mashhur bo‘lgan Muhyiddin Arabiy (1165 – 1240)ning falsafiy asarlariga sharhlar beradi.

[131] «Ashi’at ul-lamaot» (Porloq shu’lalar) – buyuk sufiy shoiri Faxruddin Iroqiy Hamadoniy (1217 – 1289)ning «Lamaot» asariga falsafiy va adabiy sharhlardan iborat.

[132] «Fusus» – Jomiyning bu asari «Naqshi Fusus» deb ham yuritiladi, Ibn al-Arabiy falsafasining mohiyatini belgilab beruvchi 1229 y. Damashqda yozilgan «Fusus ul-hikam» (Hikmatlarning naqshin qimmatbaho toshi) nomli asariga bitilgan sharhlardan iborat.

[133] «Lavome’» (Yaltiroqliklar) – «Lavome’ fi sharh al-Xamriya». 1470 – 71 y. da yaratilgan Jomiyning bu asari arab tasavvuf shoiri Ibn al-Foriz nomi bilan tanilgan Sharafuddin Umar ibn Ali al-Misrin as-Sa’diyning (1181 – 1234 – 35) mashhur «May qasidasiga sharhlardir.

[134] «Lavoeh» (Ravshanliklar) – tasavvuf qoidalari sharhiga ba-
g‘ishlangan.

[135] Toiya risolasi Ibn al-Forizning «t» harfi bilan tugallanadigan qofiyali baytlariga sharhlardan iborat.

[136] Ruboiyot sharhi – Jomiy bu asarida o‘zining qarashlarini talqin qiluvchi ruboiylarini yig‘ib, ularning har biridagi timsollarning falsafiy mohiyatini ochib beradi.

[137] Ibn Zarrin ul-Uqayliy – bu olim haqida ma’lumot topa olmadik.

[138] Bu asar tasavvuf nazariyotchilaridan Xoja Porso laqabi bilan mashhur bo‘lgan Shamsiddin Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hofiz al-Buxoriy (vafoti 1414y.)ning hikmatli so‘zlari majmuasi.

yana: «Arba'in hadis»[139] tarjimasi;
yana: so'fi va mutakkallim va hakim mazhablari tahqiqining risolasi;
yana: risola vujud[140] bobida;
yana: «Manosiki haj»[141] risolasi[142];
yana: «Haft avrang»[143]ki mushtamildur yetti kitobg'a; avval:
«Silsilat uz-zahhab»[144]ki, uch daftardur;
ikkinchi: «Salomon va Absol»;
uchunchi: «Tuhfat ul-ahror»[145];
to'rtunchi: «Subhat ul-abror»[146];
beshinchi: «Yusuf va Zulayho»kim «Oshiq va ma'shuq»g'a mavsumdur;
oltinchi: «Layli va Majnun»;
ettinchi: «Xiradnomai Iskandariy»;
yana: «Bahoriston» kitobi;
yana: Muammo fanida bitilgan risolalar, te'dodi: avval: «Huliyat ul-hulal»[147]g'a mavsum bo'lg'on risola;
yana: risolaki, «Mutavassit»g'a mashhurdur;
yana: risolaki, «Sag'ir»g'a ma'rufdur;
yana: manzumi asg'ardur;
yana: aruzda bitilgan risola;
yana: bir risola qofiya bobida bitilgan;
yana: bir musiqiy ilmida bitilgan risola;
yana: «Munshaot»[148] risolasidur;
Devonlarning te'dodi;
avval: «Fotihat ush-shabob»[149];
ikkinchi: «Vasitat ul-iqd»[150];
uchunchisi: «Xotimat ul-hayot»[151].

Va bu faqir alar tasnifig'a sabab va ta'lifiga bois bo'lubmen va bu ma'ni ko'prak kutub va rasoilda mazkurdur. Ul jumladin biri «Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds» durkim, andoq kitobni hargiz hech

[139] 1481 – 82 y.da yaratilgan bu asarida Jomiy Muhammad payg'ambarning 40 ta hadisi-hikmatlarining ma'nosini ruboiy shaklida bayon etgandir.
[140] Bu risolada Jomiy tasavvuf termini «vujud»ni sharhlab bergan.
[141] «Manosiki Haj» – Hajning qoidalari.
[142] Bu risolada haj ziyoratining qoida va marosimlari qalamga olingan.
[143] «Haft Avrang» (Yetti taxt yoki Katta ayiq yulduzlar turkumi) – Jomiy avvaliga Nizomiy va Xusrav Dehlaviylar izidan borib, «Xamsa» yaratishga kirishadi. Keyinchalik esa besh doston qatoriga yana ikki dostonni kiritadi. Natijada yetti kitobdan iborat dostonlariga «Haft avrang» deb nom beradi.
[144] «Silsilat uz-zahhab»(Oltin zanjir) – Bu doston 1472 y.da g'aznaviylar shoiri Sanoiyning «Hadiqat ul-haqoyiq» (Haqiqatlar bog'i) nomli asari muqobalasida yaratilgan.
[145] «Tuhfat ul-ahror» (Himmatlilar tuhfasi) – doston nomida Jomiyning tariqat bobidagi piri Xoja Ahrorga ishora bor. Asar falsafiy, ijtimoiy va didaktik masalalarga bag'ishlangan 20 maqoladan iborat.
[146] «Subhat ul-abror» (pokiza zotlar tasbihi) – dostonda tasavvuf yo'lidagi «maqomot» (psixologik va idrokiy holatlar)lar tavsifi beriladi. Lekin unda davlatni idora etish usullari hamda adolat va ezgulik haqida ham ilg'or fikrlar ilgari suriladi.
[147] Huliyat ul-hulal» (Bezakli liboslar) – muammo haqidagi risola, uni «Risolai muammoyi kabir» (Katta (holatdagi) muammo haqidagi risola). Yana Jomiyning «Mutavassit» (O'rtacha), «Sag'ir» (Kichik) va she'riy yo'lda bitilgan «Asg'ar» (Jajji) kabi muammoga bag'ishlangan asarlari bor. Ularda muammoni tuzish, uni yechish nazariyasi bayon etiladi. Ko'rinadiki, bu she'riy formaga qiziquvchilar ko'p bo'lgan.
[148] «Munshaot» (Maktublar majmuasi) – Jomiyning turli masalalarga bag'ishlangan va har xil tabaqadagi odamlarga yozgan, jumladan Navoiyga yo'llagan xatlari jamlangan asari.
[149] «Fotihat ush-shabob» (Yoshlikning boshlanishi) – Jomiy lirik she'larining birinchi devoni.
[150] «Vositat ul-iqd» (O'rta yoshlikning injulari) – Jomiyning ikkinchi devoni.
[151] «Xotima ul-hayot» (Hayot xotimasi) – uchinchi devon. Sharq she'riyatida devonlarga maxsus nomlar berish an'anasi Xusrav Dehlaviydan boshlanadi. Navoiy ham o'z she'rlarini to'plab, to'rt devonga ajratgan. Ularni alohida nomlab chiqqan va to'rt devonni yana bir umumiy nom bilan atagai.

kishi ne bitibdur, ne bitmakning imkoni ham bor va aning sharhi budurkim, doim bu faqirning xayolig‘a evrulur erdikim, hazrati muqarrabi boriy Xoja Abdulloh Ansoriy (quddisa sirrahu) ashobi tariqat va arbobi haqiqat zikridakim, iborat sufiya mashoyixidin bo‘lg‘ay — kitobe bitibdurlar va ani besh tabaqa qilibturlar: har yigirmini bir tabaqa qilibturlarkim, ani «Tabaqoti mashoyixi sufiya» derlarkim, borchasi yuz kishining zikri bo‘lg‘ay va alardin so‘ngra Shayx Farididdin Attor[152] (quddisa sirrihu) dag‘i bir nav’ kitob bitibdurlarkim, «Tazkiratul-avliyo»g‘a mashhurdur va hazrati Shayx Abu Abdurahmon Sullamiy[153] (quddisa sirrixu) dag‘i bu azizlar zikrida bitibdurlarkim, «Tabaqoti Sullamiy» derlar, ammo ulcha o‘zlaridin burung‘i zamondag‘i mashoyixdur, borchasining zikrin qilmaydurlar va o‘z muosirlarining ko‘pini ham va o‘zlarin ham bitmaydurlar. Va o‘zlaridin to‘rt-besh yuz yil mobaynida zuhur qilg‘on mashoyixi izom va avliyoi kirom zikri xud ul kutubda yo‘qtur. Agarchi ba’zining maqomotin tilasa, topsa bo‘lg‘ay, ammo oz va hech kim bu mazkur bo‘lg‘on buzurgvorlarni bir kitobda jam’ qilmaydurkim, zamon ahlig‘a naf’i kulliy andin yetishgay va mumkindurkim, falak sayri iztirobidin va zamon havodisi inqilobidin bu avroq ham nobud bo‘lg‘ay va hayfdurkim, bu buzurgvor toifaning muborak otlari va farxunda ahvol va sifotlarikim, maqsud ofarinishdin alarning sharif vujudlaridur — oradin chiqqay. Oyo, zamon akobiridin kam bo‘lg‘aykim, bu sharif amrg‘a murtakib bo‘la olg‘ay? — deb ko‘nglumg‘a kechurur erdim va sabr va taqsim bila o‘z qoshimda hazrati Maxdumg‘a qaror berur erdim, ammo gustohliq qila olmas erdim. Bir kun hayolg‘a keldikim, umrg‘a e’timod yo‘qtur, bo‘lmag‘aykim, bu orzuni go‘rga eltgaysen, avlo uldurkim, alarg‘a arz qilg‘aysen. Emdikim, mahal topib, bu mazkur bo‘lg‘on muddaoni arz qildim — g‘arib hol dast berdikim, alarning ham muborak xotiralarig‘a biaynihi ushbu nav’ o‘tar ermish, ammo ba’zi mavone’ sababidin tavqif va ta’viqqa qolur ermish. Andoqkim, «Nafahot ul-uns» fehrastida bitibdurlar, har kishi o‘qusa, alarning bu holni bayon qilg‘onin sharh bila ma’lum qilur.

Bu kitob ta’lifning taqribini alar bu nav’ bitibdurlarkim:

«Dar ta’rixi sanai ehdo va samonina va samona mia muhibbi darveshon va mo‘‘taqidi eshon, az himai shug‘l ser va bar faqr daler Amir Nizomiddin, Alisherki ba tav’ va ixtiyor az a’lo marotibi joh va e’tibor e’roz namuda va ba qadami taslim va rizo suluki joddai faqru fano iqbol farmuda az in fa-qir misli on surate ki, bar dil guzashta bud va dar xotir mutamakkin gashta, istid’o qard va doiyai qadim surati tajdid yoft va dag‘dag‘ai sobiq samti taqviyat va ta’kid paziruft. Lojaram ba sidqi himmat va xulusi taviyat dar imzoi on niyat va istiqsoi on umniyat shuru’ aftod.

Ma’lum az sobiqi makorimi axloq va marosimi ashfoq mutolaa kunandagon on ki (Avliyoullahi va fayyaza arvoha muqaddasa), mutasaddi va boisi injam’ va ta’lifroki; tahiyati ishtimol bar nafahot ul-anfosi tayyibi mashoyihki, az hazoyiri quds qasida va bar mashomi joni mushtoqoni muhosiri uns vazida musammo megardad bar «Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds» az go‘shai xotir furo‘ nagzorand va bo duoi xayr yod orand»[154].

Bore alar bu iltimosdin xushhol bo‘lub, qabul qilib, mashoyix holoti sharhida akobir kutubin jam’ qilib, bu xatir amr va azm shug‘lg‘a mashg‘ul bo‘ldilar va har juzvkim, bitilur erdi — iltifot qilib, faqirg‘a berurlar erdi va ham o‘z qoshlarida o‘tkarilur erdi. Oz fursatda «Nafahot ul-uns» kitobi

[152] Fariduddin Attor – Muhammad ibn Abubakr binni Ibrohim (1119 – 1220) – mashhur fors shoiri. Avval tabobat va at-torlik bilan shug‘ullangan, keyinchalik darveshlik ixtiyor qilgan. «Mantiq ut-tayr», «Ilohiynoma», «Tazkirat ul-avliyo» va boshqa asarlar muallifi.

[153] Abu Abdurahmon as-Sullamiy (vafoti 1021 – 22 y.) Qur’onga keng sharh yaratgan olim, diniy arbob.

[154] Bu kitob (ya’ni, «Nafahot ul-uns»)ning yozilish tarixini ular quyidagicha yozib edilar: 881 (1476 – 77) yilda darveshlar do‘sti va ularning muxlisi, hamma mashg‘ulotdan to‘q, faqirlik yo‘lida botir Amir Nizomiddin Alisher (arabcha: Bu kishi o‘z xohishi va ixtiyori bilan davlat va e’tiborning a’lo martabasidan yuz qaytarib, taslim va rizo qadami bilan faqirlik va foniylik yo‘lini qabul qilgan) mendan ko‘ngildan o‘tgan va xotirda muhrlangan tarzdagidek qilib iltimos qildi. Bu bilan qadimgi orzu yangilandi va ilgarigi xohish kuchga kirdi va ta’kid darajasiga yetdi. Binobarin, chin himmat va xolisona niyat bilan o‘sha istakni amalga oshirishga va topshirnqni bajarishga kirishildi. Ilgarigi yaxshi axloq va shafqatli o‘quvchilardan ma’lumki (arabcha: Olloh avliyolarining muqaddas ruhlari fayzli bo‘lsin!), bu to‘plam – asarning mutasaddiysi va boisiga muqaddas sag‘analardan shayxlarning nafas ufurlari yetishgach va ularni ziyorat qiluvchi do‘stlar joniga urilgach, uni «Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds» deb nomlandi. Shoyad u xotir go‘shasidan o‘chmagay va xayrli duo bilan yodlangay!

tugandi va ul sohib davlat sa’yidin bu buzurgvorlar ismi olam sahifasida qoldi. Umid ulkim, andoqkim, alar o‘qug‘uchilardin istid’o qilibdurlarkim, har kishig‘a bu azizlar zikr va manoqibidin vaqt xush bo‘lsa, boisu mutasaddini duoyi xayr bila yod qilsunlar, deb bu faqirg‘a ham kulliy natija bergay va har kishi bu kitobni o‘qurg‘a tavfiq topsa bu mazkur bo‘lg‘on so‘zlarni xutbasidin so‘ngra mulohaza qilg‘usidur.

Va bu sharif kitob tugangandin so‘ngra xotirg‘a andoq kelur erdikim, hazrati risolat (sallallohu alayxa vassalom)[155] mu’jizoti bobida azizlar kutub va rasoil bitibturlarkim, ul hazratning nubuvvatig‘a ummatlarg‘a mujibi izdiyodi yaqin bo‘lg‘ay, andoq istiyfo voqe’ bo‘lmaydurkim, tab’ xursand bo‘lg‘ay. Avvali ofarinishdi» inqirozg‘a degincha ahvoleki-voqe’ bo‘lubtur va bo‘lg‘usidur, barchasida ul hazratning mu’jizotidin bor. Bitguvchilar ba’zi bila ixtisor qilibturlar.

Bir kun, alar xizmatida bu nav’ so‘z mazkur bo‘lur erdi. Faqir bu tamannoni zohir qildimkim: «Bag‘oyat so‘zning inbisoti yeridur va andoqki haqqidur — kishi bajoy keltirmaydur, sharif zamiringiz ne nima xayol qilg‘aykim, mundin shoyistaroq bo‘lg‘ay va durbor qalamingiz ne nukta tahrir qilg‘aykim, mundin boyistaroq bo‘lg‘ay?»

Ittifoqo alarning xayolig‘a dag‘i bu nav’ nima o‘tar ermish. Dedilar: «Bizning dag‘i xayolimizg‘a bu nav’ muddao bor erdi, emdikim, sen muharrik bo‘lding — ul xayol toza bo‘ldi, insholloh taolo, anga mashg‘ul bo‘lg‘aybiz».

Faqir xushhol bo‘lub, alar mulozamatidin chiqtim. Alar hamul kun-o‘q bu ishga munosib kutub jam’ig‘a mashg‘ul bo‘lubdurlar va «Shavohidun nubuvvat li taqviyati yaqini ahl ul-futuvvat»[156] kitobi tahririg‘a shuru’ qilibturlar. Bu faqir alar xizmatig‘a yana qatla musharraf bo‘lg‘och, zohir qildilar. Faqir xushhol bo‘lib, har kun xabar tutar erdim. Oz fursatda tugaturig‘a muvaffaq bo‘ldilar.

Va kitob fehrastida bu faqirni iltifot yuzidin mundoq mazkur qilibdurlarkim, chun mushohadai oyot va mo‘‘jizoti bo iste’moi on az adl va siqot chunonki, donisti nisbat ba ba’zi digar mujibi ziyodati iyqon va iz’on megardad va lojaram ulamoi din va muqaffiyoni osor sayyid ul-mursilin (sallallohi vassalam alayha alo alayhi ajmain).

Dar zikri «Shavohid un-nubuvvat va daloyili risolati vay» kutub soxta and. Dar bayoni judo az soyir ahvol va osor misqot pardoxta va chun in faqir ba mutolaai ba’zi az onho musharraf shud va foydai mutolaai onroki quvvati muhabbat, va doiyaa husni mutobaat ast dar xud boz yoft. Xostki, az on foida soyir musulmonon muntafe’ shavand. Batahsis azizoniki, in faqirro nisbat bar ishon sidqi muhabbati va xulusi aqidati hast va beshtar azinki, istid’oi jam’i kitobi «Nafohot ul-uns min hazarot ul-quds»ki, dar bayoni siyaru ahvoli mashoyixi sufiyaist, karda budand. Lojaram onchi dar on parokanda bud (tashilan limavtihi) dar yak joy jam’ karda shud va (tafhimot ul-foyda) ba iborati forsiy irod uftod. «Taliqiyadil ixtisor» harfi tariqi muxtalafa va asonidi mutannava’ karda omad. Chun kamoli mutobeonro bavositai mutobaat hosil meshavad va mushohada kamoli mutannaf’ist va karomat va fazilatiki, az ummat zohir megardad az qabili mo‘‘jizoti payg‘ambari ishon ast. Zikri ba’zi ahvol va osor va ashobi onhazrat va to tabaqin sufiyaki, dar bayoni ahvoli ishon chunonchi guzasht ba on munazzim gardonida omad. Chun nubuvvati onhazrat bavositai tavoturi axbor batanavv’ui mo‘‘jizot bajoy rasida astki hech saodatmandero dar on dag‘dag‘a ishtiboh namondast.

Chun foydai azim dar in ta’lif taqviyati yaqin rohi navardoni tariqati javonmardoni ahli haqiqat tavonad bud, agar onro ba «Shavohid un-nubuvvat baqavviyati ahl ul-futuvvat» tasmiya kunashg dur namenamoyad[157].

---

[155] a.:. Olloh uni duo qilsin va olqishlasin!

[156] «Shavohid un-nubuvvat»... – Qarang: 201-bet, 1-izoh.

[157] Parchaning mazmuni. Oyatlarni va mo‘‘jichalarni kuzatib, ular haqida rad etuvchilar va [Muhammad payg‘ambarga] haqiqiy do‘stlardan eshitib, shunday idrok etdimki, ularning ba’zilari behad ishonchga sabab bo‘ldi. Shuning uchun din olimlari va yozuvchilar (a.: Olloh ularni va barchani duo qilsin va olqishlasin!) payg‘ambarlik shahodatlari zikrida va payg‘ambarlik elchiligi dalilida kitoblar yozganlar. Xudo bayonida boshqa [sharhi] hollar va asarlardan olib yaratganlar. Men ularning ba’zilarini mutolaa qilishga musharraf bo‘lganimda, mutolaa foydasi muhabbatni yo‘qotmaslikni va payravlik havasini taqozo qildi. Menda ularii saralash istagi paydo bo‘ldiki, ular foydasidan boshqa musulmonlar ham bahramand bo‘lsalar, ayniqsa ul azizlarkim, menda ularga

Va «Bahoriston»da nazm ahli asomiysi zaylida bu faqirni bu nav’ mazkur qilibturlarkim:

«Sohibdavlateki, zamoni mo ba vujudi u musharraf ast harchand poyai qadri vay nazar ba marotibi joh va hashmat va qurbi podshohi sohibhashmat va qiyos ba manoqibi ma’navi az fazlu adab va fazoili mavhub va muktasab az on balandtar ast ki, vayro ba she’r ta’rif kunand va ba javdati nazm tavsif namoyand. Ammo chun xotiri sharifash ba vositai kasbi fazilati tavozu’ va kasri nafs ba on furud omadast, ki xudro dar silki in toifa munxarit gardonidast, digaronro hijobi tahoshi az on ma’ni ki vayro az tabaqai eshon dorand va az zumrai eshon shumorand, murtafe’ gashta, ammo insof onast, ki har jo in toifa boshand — vay sar boshad va hargoh nomi in tabaqa navisand vay sardaftar.

Va chun gavhari nomash buzurgtar az on astki har mahalli az nazm sidqi on tavonad shud va har maqomi az she’r sharafi on tavonad yoft. Taxallusi ash’orash ba onche az in muammoi digar mafhum megardad, nomzad gashta.

Muammo ba ismi «Navoiy»:

Kunhi nomash dar taxalpusho nayobad hech kas,
Bar labi yobandagon az vay navoe donu bas.

Va agarchi vayro ba hasabi quvvati tabiat, vus’ati qobiliyat har du nav’ she’r — turky va forsy muyassar ast, ammo mayli tab’i vay ba turky az forsy beshtar ast va g‘azaliyoti vay ba on zabon az dah hazor ziyoda xohad bud va masnaviyote, ki dar muqobalai «Xamsa»i Nizomy vuqu’ yofta — ba si hazor nazdik va hamono ki ba on zabon pesh az vay kase she’r naguftaast va gavhari nazm nasufta va az jumlai ash’ori forsii vay ast qasidae ki dar javobi qasidai Xusravi Dehlavy ki musammost ba «Dar’yoi abror» voqe’ shuda va mushtamil bar bis’yore az maonii daqiqa va xayoloti latifa. Matlaash in ast:

Otashin la’le ki toji xusravonro zevar ast,
Axgare bahri xayoli xom puxtan dar sar ast.

Va in ruboy dar tahniyati qudumi ba’ze az oyandagon az safari Hijoz dar ruq’a navishta bud.

R u b o i:

Insof bideh, ey falaki minofom,
To z-in du kadom xubtar kard xirom,
Xurshedi jahontobi tu az matlai subh,
Yomohi jahongardi man az jonibi Shom.
Va in ruboy digar dar ruq’ai digar:

In noma, na noma, dofei dardi man ast,

---

nisbatan muhabbat sodiqlign va e’tiqod samimiyligi bor va uning ustiga sufiy shayxlar [sharhi] hollari bayonidagi «Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds»ni yozishimni istagan edilar (Jomiy bu yerda Navoiyni ko‘zda tutmoqda).

Shunday qilib, o‘sha parokanda kitoblardagi (arabcha; yo‘qolib ketishi oson) narsalarni bir joyga jam’ qilib, foydali maslahatlarki, forsiyda yozilib edi, qisqacha talqin bilan va turli so‘zlar bilan osonlashtirilgan holatga keltirildi. Tobe’lar kamoli tobe’lik bilan hosil bo‘ladi va kamol shahodatligi turlichadir, deyilganiga ko‘ra, ummatlardan zohir bo‘lgan karomat va fazilatlardan avval payg‘ambarning ba’zi mo‘‘jizalarn zikr etildi. Ul hazratnilg ba’zi hamsuhbatlari ahvol va asarlari (a.: ergashganlar va ularga ergashganlardan) to sufiylar tabaqasigachaki, ahvollari bayoni qanday bo‘lsa, shundayin tartibga solindi. Natijada u hazrat payg‘ambarligi xabarlar vositasida mo‘‘jizalar nav’ida joyiga qo‘nildiki, hech saodatmand odamda yanglishish notinchligi qolmadi. Modomiki, bu asar haqiqat ahli uchun javonmardlik tariqatining porloq yo‘lida shubhasiz quvvat va katta foyda yetkaza oladi, agar uni «Shavohid un-nubuvvat yaqini ahli ul-futuvvat» deb nomlansa, uzoq ketilmaydi.

Oromi daruni ranjarvardi man ast,
Taskini dili garmu dami sardi man ast,
Ya'ne xabar az mohi jahongardi man ast.
Va in ruboi digar ba tajdid dar ruq'ai digar.

R u b o i:

V-ar dar haramam ba justujo'yat bosham,
Gar dar dayram ba tuftugo'yat bosham
Dar vaqti huzur ro'baro'yat bosham,
Dar g'aybati ro'y dil ba so'yat bosham[158].

Bu faqir «Majolis un-nafois» otlig' kitobidakim, sultoni sohibqiron zamonidag'i nazm ahli zikrida bitibmen, alarning vasfi manoqibin «uchunchi majlis»ning avvalida bu nav' bitibmenkim:

«Quyosheki, royi olam oroyi bila bu zamon mubohiy va ahli zamong'a sharafi nomutanohiy muyassardur va daryoeki, tab'i gavharzoyi bila bu davron jaybi gavhardin to'la va davron ahli qo'yni va etagi javohirdin mamlu bo'ladur.

Hazrati Mahdumiy Shayxul-islomiy Mavlono Nuruddin Abdurahmon Jomiy (madda zillahu)[159] dururkim, to jahon bo'lg'ay alarning yoruq xotirining natoyiji jahon ahlidin kam bo'lmasun va to sipehr evrulgay, alarning ochuq ko'ngullarining favoidi davron xaloyiqidin o'ksulmasun. Chun bu

[158] Sohib davlat (ya'ni, Navoiy)ki, zamonamiz uning vujudy bilan sharaflidir, uning qadri darajasi va hashamat mar-tabalari, podshohga yaqinligidan qat'n nazar, fazl va adab bobidagi barcha tabiiy va hosil qilingan fazilatlarga oid ma'naviy madhiyalarga qaraganda shunday balanddirki, uni she'r bilan ta'riflansayu nazm san'ati bilan tavsif qilinsa [arziydi]. Ammo sharif xotiri odoblilik fazilatini va kamtarlikni [shu qadar] singdirganki, o'zini shunday toifa qatoriga o'tqazgan, boshqalarning esa, uni o'sha darajada hisoblashlari va ular sirasida sanashlaridan yuqori ko'tarilgan. Ammo, insof bilan aytganda, qaerdaki, o'sha toifa bo'lsa, u boshliqdir, har qachon shu darajadagilar nomlari yozilsa, u daftarning yuqorisidadir.

Uning nomi injusi shunday ulug'dirki, nazmning har turi uning sadafi bo'la olur va she'rning har maqomi undan sharaf topa olur. She'rdagi taxallusi bu muammoda ham yashiringanki, qayd qilindi. «Navoiy» ismiga muammo:

Uning nomini taxalluslarda hech kim topa olmaydi,
Topuvchilar labida undan bir navo bil va bas.

Agarchi unga tabiiy quvvati va qobiliyati kengligi jihatidan har ikki xil she'r: turkiy va forsiy muyassar bo'lsa ham, ammo turkiy sari tab'ining moyilligi ortiqroqdir. Uning g'azallari u tilda o'n mingdan ziyoda bo'lishi kerak. Nizomiy «Xamsa»siga javoban yozgan masnaviylari o'ttiz mingga yaqin (Jomiy baytlar miqdorini nazarda tutmoqda. Navoiy «Xamsa»si 25 615 bayt yoki 51 230 misra'dan ibo- rat). Aytish kerakki, u tilda undan avval hech kim she'r aytmagan va nazm gavharini teshmagan (Bu yerda Jomiy bir muncha mubolag'a qilmoqda. Navoiydan oldin turkiy tilda ijod qilgan so'z san'atkorlari bo'lgan, buni Jomiy yaxshi bilgan ham). Forsiydagi she'rlari jumlasidan Xusrav Dehlaviyning «Daryoyi abror» nomli qasidasiga javob tarzida aytilgan asari bo'lib, ko'p nozik ma'no va latif xayollarni o'z ichiga olgandir. Matla'i budir:

Podshohlar tojini bezovchi o'tli la'l,
Boshlarida xom xayollarni pishiruvchi laqqa cho'g'dir.

Ba'zilar (Jomiyning o'zi haqida so'z ketmoqda) Hijoz (ya'ni, Makka) safaridan qaytganda tabriklab, bu ruboiyni maktubda yozgan edi:

Ey moviy falak, insof bilan aytgil,
Bu ikkisidan qaysi biri yaxshiroq yurish qildi?
Tong otar (tomondan) ko'tarilgan sening quyoshingmi?
Yoki kun botar tarafdan chiqqan mening jahon kezuvchi mohimmi?
Boshqa bir maktubda esa bu ruboiy [yozilgan edi]:
Bu maktub emas, mening dardlarimni daf' etuvchidir.
Qaynoq dilim va sovuq nafasim taskinidir,
Ya'ni mening jahon kezib yurgan mohimdan xabardir.
Yana yangi maktubda bu ruboiy [bor edi]:
Agar butxonada bo'lsam, seni so'zlayman,
Agar Makkada bo'lsam, seni izlayman.
Borligingda ro'parangda bo'lay,
Yo'qligingda ko'ngil yuzi sen tarafda bo'lsin.

[159] a.: Tangri soyasini uzaytirsin!

muxtasarda mazkur bo‘lg‘on jamoatning ra’s vk raisi ul zoti nafis va bu risolada mastur bo‘lg‘on guruhning muqtado va peshvosi ul gavhari yaktodur, muborak ismlari bu avroqda sabt bo‘lurdin guzir va yozilmasa dilpazir ermas erdi, jur’at bo‘ldi: Chun alarning latoyifi nazmi andin ko‘prakdurkim, hojat bo‘lg‘aykim, ba’zi bitilgay va andin mashhurroqkim, ehtiyoj bo‘lg‘aykim, bir oz sabt etilgay. Kutublarining oti bitilsa, bu avroqdin oshar va musannafotlari durrlari zikri qililsa, gardun bahri andin toshar, lojaram chun bu ma’ni bililur va duo bila xatm qililur.

R u b o i y:

Yorab, bu maoniy durrining ummoni,
Bu donishu fazl gavharining koni
Kim, aylading oni olam ahli joni,
Olam eliga bu jonni tut arzoniy».

Ul vaqtdakim, alar «Arba’in. hadis»ni forsiy nazm bila tarjima qilib erdilar va ma’hud odat bila borcha ashobdin burunroq faqirg‘a iltifot qilib, musavvadasin berdilar. Chun mutolaasig‘a mashg‘ul bo‘ldum, alfozidin haloyiqi nomutanohi azhori va maonisidin haqoyiqi ilohiy anvori zohir bo‘la kirishti.

Hamul «Arba’in»g‘a turkicha til bila tarjima orzusi ko‘ngulg‘a tushti. Alardin ruxsat sharafig‘a musharraf bo‘lg‘ondin so‘ngra hamul kun ul samin javohir nazm silkig‘a kirdi va ul gavharlar alarning qulog‘ig‘a yetti. Shafqat va marhamat yuzidin duoyi xayr bila tahsinlar qildilar va xutba[160]sining avvalgi bayti budurkim,

b a y t:

Hamd angakim, kalomi xayr maol
Qildi elga rasulidin irsol.

Alarning oti bu nav’ manzum bo‘lubturkim:

Ul safo ahli pok farjomi,
Pok far jomu pok far Jomiy,
Ul fano sori dastgir manga,
Murshidu ustodu pir manga.

Bu so‘ngg‘i baytda talammuz va irodati nisbati zohir qililibdur.

Ul vaqtdakim, faqir alar xizmatida sufiya ramuzu ishorot va alfozu iborot istilohin o‘tkarur erdim. Hazrati qutb us-solikin Shayx Faxruddin Iroqiy (quddisa sirrihu)ning «Lamaot»i orzusi xayolg‘a ko‘p evrulur erdi. Bir kun taqrib bila bu ma’nini izhor qildim. Alar dedilarkim: «Tariqat mashoyixining forsiy kutub va rasoili oz mutolaa qililibdur, ammo chun havasing bor, andoq bo‘lsun».

To ulkim, ul sharif kitobni faqirg‘a sabaq ayturg‘a murtakib bo‘ldilar, har kun sabaqda xushhol bo‘lib ta’rif qilurlar erdi. Biz «Savonih»[161] mutolaasida dag‘i muncha xushhol bo‘lmaydur erdukki, munda, deb ayturlar erdi.

Bir necha sabaqdin so‘ngra so‘z mushkilroq bo‘lib, shuruhg‘a ehtiyoj izhori qildilar va shayx

[160] Xutba – kitobning avvalidagi «hamd» – maqtov qismi.

[161] «Savoneh» – Ahmad G‘azzoliyning fors tilida yozilgan ishq holatlari bayonidagi risolasi. Latif va go‘zal nasr bilan nazm omixta yaratilgan.

Yorali[162] sharhin va yana ba'zi shuruhni muborak nazarlarig'a qo'yub, ul sabaqni ayturlar erdi, to ulkim, ko'p mavozi'da shorihlarg'a ta'n qila boshladilarkim, «bu so'zning va ul so'zning orasida ko'p farq bor. Hamonoki, ma'nisig'a yetmay sharh bitibturlar» va bu so'z takror topqondin so'ngra faqir arz qildimkim: «Mundoq nafis kitobdin faqire bahra topay desa, sharh bu sharhlar bo'lsa, oyo, ne chora qilg'ay? Magar ham hazrati Maxdum shafqat yuzidin toliblarg'a bu mushkilni oson qilg'aylar».

Andin so'ngra alar «Ashi'at ul-lamaot»ki bu toifa kutub va rasoyush orasida ma'lum emaski, hargiz andoq sharh qalamg'a kelmish bo'lg'ay — bunyod qildilar.

Ul sharhni bitirda «Fusus» va «Futuhot» va «Nusus» va «Fukuk» va aksar qavmning umda kutubi muborak nazarlarida erdi, agarchi hech qaysig'a boqg'ali ehtiyojlari yo'q erdi. To ulkim, bu sharh bila «Lamaot»ni alar qoshida tugattim, birovki ul kitobni o'qusa, faqir bu varaqda bitilgan so'zlardin nishonalig' so'zlar topar va mundoq davlatg'a abnoyi zamondin oz kishi, balki hech kishi musharraf bo'lmaydir (Inshaalloh alo naimillohu)[163].

Bir kun bu faqirni muammo fikri bu vodiyg'a solib erdikim andin berikim, ustodi fan Mavlono Sharafuddin Ali Yazdiy[164] (rahmatullohi) bu fanni tadvin qilib, bu fan ahlining otin tirguzdi, bu zamong'achakim, azizlar ham kutub va rasoil bitibdurlar va fan g'arib zebu ziynat topibdur va turfa qavoidu istilohot paydo bo'lubtur. Ammo istilohotni tartib bila ado qilmaydurlar. Masalan: qavoid avvalida intiqod qoidasin ado qilurda istishhodg'a muammokim kelturubturlar, agarchi intiqod ham muaddo bo'lubtur, ammo «tarkib» yo «tahlil»[165] yo g'ayrihikim mubtadining alarg'a hanuz shuuri yo'q turur, bu mustashhad muammoda mundarijdur. Shart bu erdikim, bu muammoda bu qoidadin o'zga mazkur bo'lmag'ay, ammo bu qoidakim, vuquf hosil bo'ldi, yana o'zga qoida adosida agar mazkur bo'lg'on qoida o'tsa bok yo'q erdi. Faqir bu xayolda erdimkim, hazrati Maxdum tashrif kelturdilar, faqir munbasit bo'lub, istiqbol qilib, alar taskin topib, dedilarkim: «Basharangda inbisote zohir bo'lur, ne holing bor?»

Ayttimkim: «Hazrati Maxdumning sharif maqdamlari mujibi inbisotdur, ammo bu nav' ham xayolim bor erdi», — deb o'tgan maqolatni arz qildim, alar nihoyatdin tashqari xushhol bo'lub, tahsinlar qilib, dedilar: «Haqqi va sharti budurkim, sen xayol qilibsen».

Alarni chun mundoq xushhol ko'rdum, ayttimkim: «Himmat tutsalar bu dastur bilan bu fan qoidasida muxtasare raqam qilsam».

Alar dedilar: «Sen bu tashvishni tortma». Hamul ikki-uch kunda manzumi muxtasarni tahrir qildilar. Ko'p ixtisorg'a ko'shish qilg'on uchun ko'p daqiq va tor voqe' bo'lubtur, andoqki, mubtadig'a idroki suhulat bila dast bermas.

Faqir yana istid'o qildimkim, amr bo'lsa, mundin osonroq qilsa bo'lg'ay, deb ma'mur bo'lg'ondin so'ngra «Mufradot»g'a mavsum muxtasarni bitidim va alar xizmatig'a yetkurdum. Qabul nishonasi mundin o'tmaskim, bovujudi muncha rasoilkim, holo arodadur, max-dumzodag'a ul muxtasarni o'qurg'a ishorat bo'ldi va uya bu muxtasarda muammo fannig'a vuquf topti.

Alar «Haft avrang»din — ham har lafzi yetti iqlimg'a sarmoya va har harfi yetti kavkabg'a piroyadur — «Subhat ul-ahror»kim, alarning muxtaraidurkim, ne ul bahrda masnaviy aytibdurlar va ne ul tarkib va ado bila manzum kitob tartib beribdurlar, xatmi kitob va xotimay xitobda chun ul ma'shuqai zebo va muxaddarai olamoroni jilva berib[166], qabuli xotir tamannosi va nazari qabul istid'osi qilibturlar, bu abyot anda mazkurdurkim,

m a s n a v i y:

[162] Shayx Yer Ali – «Savonih»ga sharh bitganlardan ko'rinadi. U haqda ma'lumot topa bilmadik.

[163] a.: Xudo xohlasa unga olloh marhamati bo'lgay!

[164] Sharafuddin Ali Yazdiy (vafoti 1454 y.) – XV asrdagi buyuk tarixchi olim. «Zafarnoma» muallifi. Uning «Hulali mu-tarraz» (Naqshlar tikilgan shoyi) nomli asari muammo faniga bag'ishlangan bo'lib, Navoiy davrida mashhur bo'lgan.

[165] «tarkib», «tahlil», «intiqod» – muammo qoidasiga oid atamalar.

[166] Bu yerda so'z Jomiyning kitobni go'zal mazmun va yuksak badiiyat bilan ta'minlagani haqida ketmoqda.

Yo rab, in g‘ayrati huril-inro,
Shohidi ravzai illiyinro.

Az dilu didai har didavare,
Baxsh tavfiqi qabuli har nazare.

Xossa on dar ravishi faqr daler,
Z-on daleresh shuda nom du sher.

On yake dar rahi din sheri xudo,
V-in digar panja ba har sayd kusho[167].

Bu besomoni kam bizoat va bu notavoni beistitoat bu altof muqobalasida ne dey olg‘aymen. Ammo tuhfat ul-faqir ul-haqir rasmi[168] bila «Xamsa»ning avvalg‘i daftari «Hayrat ul-abror»da alarning vasfidaki, vasfg‘a sig‘mas, dostone niyozmandliq qilibmenkim, bu abyot andindururkim,

m a s n a v i y:

Ulki bukun qutbi tariqatdur ul,
Koshifi asrori haqiqatdur ul.

Ko‘ksi haqoyiq duri tanjinasi,
Ko‘ngli maoniy yuzi oyinasi.

Oliy anga yetti falakdin mahal,
Yetti falak mushkili ollida hal.

Madrasai quds aning ma’mani,
Xonaqahi uns aning maskani.

Jilvagahi gulshani charxi barin,
Obxo‘ri chashmai ayn ul-yaqin.

Qasri kalomi chiqib andoq baland
Kim, anga gardun sola olmay kamand.

Anda shayotin xasig‘a yo‘q sabot,
Baski urub xayli maloik qanot.

[167] She’rning mazmuni:
Yorab, bu go‘zal hurlar rashkini uyg‘otuvchini,
Va bu jannat bog‘ining go‘zalini,
Har bir xushyorning ko‘ngil va ko‘ziga,
Manzur bo‘lish muvaffaqiyatiga erishtir.
Xususan, bu faqirlik yo‘lidagi botirga ham,
Botirligidan uni nomi ikki sher bo‘lgan,
Ulardan biri din yo‘lidagi xudoning sheridir,
Boshqasining panjasi ham ov uchun ochiqdir.
[168] a.: kaminai kamtarinning tuhfasi sifatida.

Doston oltmish bayt bor erkin va alar majlisida «Xamsatayn» so‘zi mazkur bo‘lg‘onning kayfiyati va alar «Tuhfat ul-ahror»ni bunyod qilib, ul taqrib bila tugatgonlari, bu faqirg‘a eldin burun ko‘rguzgonlarining sharhi va faqir «Hayrat ul-abror»ning nazm qilur taqribi bu dostonda mazkur bo‘lubtur, o‘qug‘on ma’lum qilur.

«Haft avrang» kntobidin «Yusuf va Zulayho» dostonikim, «Oshiq va Ma’shuq»g‘a mavsumdur va ul kitob naziri Yusuf husni va Zulayho ishqidek ma’lum, oxirida podshoh duosi zaylida bu nav’ bandanavozliq qilibturlarkim,

m a s n a v i y:

Muborak bar shahu arqoni davlat,
G‘azanfar haybatoni sher savlat.

Ba taxsis oy javonmardi k-ash az der,
Nasab chun nom boshad sher bar sher,

Zi pas dar beshai mardi daler ast,
Zi mardoni jahon nomash du sher ast.

Yake dar az dizi davron kananda,
Yake sarpanja bo go‘ron zananda.

Ba rasmi ta’miya z-on burdamash nom,
Ki monda dur az on andeshai om.

Va gar na kay tavon z-on fahmu idrok
Ba sad huqqa nuhuft in gavhari pok.

Kunad dar she’r tab’ash mo‘shikofi,
V-az on mo‘ no‘gi kilkash she’rbofi.

Nihad z-in she’ri mushkin domi dilho,
Dihad az she’ri shirin komi dilho.

Dili ushshoq az on yak monda dar band,
Labi xubon az in yak dar shakarxand.

Ba zikrash xatm shud in ravshan anfos,
Ba soni nuri manzil xatmi barnos.

Bale dar korgohi odamiyat,
Juz o‘ kam yoft rohi mahramiyat.

Hamesha to atoi davri olam
Kunad tab’i laimon shodu xurram.

Chunon dil bo xudoi olamash bod,
Ki n-oyad az atoi olamash yod.

Suxanro az duo dodi tamomy,
Ba omurzish zabon bikshoy, Jomi[169].

Alarning bu masnaviylari bahrida faqirning «Xamsa»sidin «Farhod va Shirin» voqe' bo‘lubtur va alarning madhida turfa dostone guzorish topibdur. Borchasin bu muxtasarda bast qilmoq mujibi itnob bo‘lur. Ammo bir necha baytdin guzir yo‘qtur. So‘z ta'rifida bir necha so‘z deb, shayx Nizomiy bila Mir Xusrav (quddisa sirrahu) maddohliqlarin qilib, ul taqrib bila alar madhig‘a kirib, bu nav' ado topibdurkim.

m a s n a v i y:

Kel, ey soqiyki, tushmish jonima jo‘sh,
Ketur bu ikki yodi birla bir qo‘sh.

Alar ishqida no‘sh aylab iki jom,
Tutay Jomiy mayi madhin saranjom.

Iki pil o‘lsa Xusrav yo Nizomiy,
Erur yuz pil chog‘lig‘ pil Jomiy.

Muhabbat jomi durdoshomi uldur,
Hamono Zinda pili Jomiy uldur.

Ko‘rub sarmast jomi vahdat oni,

[169] She'rning mazmuni:
Shoh va arkoni davlatga muborak [bu zot],
Arslon haybatli va sher savlatlidir.
Xususan u mard yigit azaldan yana
Nasab va ismda sher, yana sherdir.
Mardlik jangalining botiri bo‘lgani uchun,
Jahon mardlari ichida nomi ikki sherdir.
[Ularning biri] davron qal'alarini qo‘poruvchidir,
Biri esa qulonlarga panja uruvchidir.
Muammo yo‘li bilan undan nomini chiqardim,
Oddiy odamlar xayoli undan uzoqdir.
Aks holda fahmu idrok nima qila olardi,
Bu pok gavhar yuzlarcha qutichalarga yashiringandir.
She'rdagi tab'i qilni qirqqa ajratadi,
U qildan esa qalami uchi she'r to‘qiydi.
Bu mushkin soch (ya'ni, she'rlar)dan ko‘ngilga tuzoq
U shirin she'rlardan ko‘ngillarning tilagini beradi.
U biridan oshiqlar dili bandga ilinadi,
Bu birisida esa go‘zallar labi totli tabassum qiladi.
Insonlarga nur inishi tugagan kabi,
Bu ravshan nafaslar uning zikri bilan oxirga yetdi.
To‘g‘ri, odamiylik korgohida,
Undan boshqalar mahramlik yo‘lini kam topadi.
U toki olam davrining hadyasi ekan,
Nokaslar tab'ini shodu xurram qilaveradi.
Ko‘ngil olam xudosi bilan bo‘lsinki,
Olam hadyasi uning yodiga kelmasin.
So‘zni duo bilan tugatding,
Tilni afv so‘rashga chog‘la, ey Jomiy!

Demishlar Zinda pili hazrat oni.

Chu ul may durdidin bo‘lmish xuro‘shi,
Safo ahlidur oning durdno‘shi.

Mayi tahqiq etar holatda oshom,
Chekib lojur’a gar gardun erur jom

Bo‘lub zohir fano timsoli andin,
Tutub olamni olam xoli andin.

Fano ul nav’ etib naf’y vujudi
Ki, yer topib nabud o‘rnida budi.

Bo‘lub andoq fano dashtida ma’lum
Ki, sayri shohrohi xatti mavhum.

Bu xatqa nuqtakim mavjud emastur,
Xirad olinda juz nobud emastur.

Fano mulkida jismi uyla foniy
Ki, fahm aylab savodi a’zam oni.

Jahonnikim qila olg‘ay tavahhum
Ki, bo‘lg‘ay nuqtai mavhum aro gum.

O‘zin xud bir jahoni begaron bil,
Kamolotin o‘zidek bir jahon bil.

Jahon ichra jahonkim topti maknat,
Solib ikki jahon xalqig‘a hayrat.

Jahon yo‘q, olami kubro de oni,
Jahonda maqsadi aqso de oni.

Ki harne olami sug‘ro[170]*da mavjud*
Bori bu olami kubro[171]*da mavjud.*

Bu doston ham tavil uz-zayldur, muncha abyot istishhodg‘a kelturuldi[172].

Alarning «Layli va Majnun» kitobida ul dostonkim, sarsuxani bu nav’ bitibdurkim: «Dar zikri ba’ze berun raftagoni az doirai mohu sol va duoi ba’ze markaznishinoni nuqtai xol»[173] va anda ramz va ishorat bila taxallusni zikr qilib, bu faqirni o‘z yorlig‘larig‘a bahramand va o‘z muhabbatlarig‘a arjumand qilibturlar. Bu nav’durkim:

[170] Olami sug‘ro – «kichik olam» deb sufiylar bu dunyoni ataganlar.
[171] Olami kubro – «katta olam» deb esa inson qalbini, uning o‘zini ataganlar.
[172] ya’ni: bu madhiyaning davomn uzun, misol tariqasida bir necha bayt keltirildi, xolos.
[173] Parchaning mazmuni: Ba’zi oy va yil doirasidan chetga chiq
qanlar zikrida va ba’zi xol nuqtasining markazida o‘tirgaylar duosida.

Soqi, bideh on mai kuhansol,
Yequti muzobu la'li sayyol.

On may ki chu duston binushand
Bo ham ba vafovu mehr kushand.

Orom shavad ramidagonro,
Payvand dihad buridagonro.

Yore ki kunad ba yor payvand,
Naxli amalash shavad barumand.

Yor ast kalidi ganji ummed,
Yor ast navidi ayshi jovid.

Maqsudi vujud chist juz yor,
Z-in savdovu sud chist chuz yer.

To xotimati vujud az og'oz
Murg'e nakunad chu yor parvoz.

Xossa ki ba bog'i oshnoi,
Bar shoxi vafo buvad Navoi.

Ya'ne ki Navoi lutf sozad,
Dilhoi shikastagon navozad.

Kore nabuvad ba joi in kor
Yoroni jahon fidoi in yor[174].

[174] She'rning mazmuni:
Soqiy, uzoq yillar turgan maydan ber,
U eritilgan yoqut va suyuq la'ldan ber.
U mayki, undan do'stlar ichsinlar,
Bir-birlariga mehru vafo ko'rsatsinlar.
Hurkkanlarga orom bersin,
Kesilganlarga payvand bo'lsin.
Do'st agar do'stga payvand bo'lsa,
Orzularning daraxti unumli bo'ladi.
Do'st – umid xazinasining kalitidir.
Do'st – abadiy ayshning xushxabarchisidir.
Mavjudlik maqsadi do'stdan boshqa nima bo'lishi mumkin,
Bu savdo va foyda do'stdan bo'lak kim uchundir?
Hayotning avvalidan oxirigacha,
Biror qush do'stdek parvoz qila olmadi.
Xususan oshnolik bog'idagi
Vafo shoxida Navoiy turadi.
Ya'niki, Navoiy lutf qilsa,
Shikastalar dilini erkalaydi.
Bu ish o'rnida boshqa ish bo'lmaydi.
Barcha jahon do'stlari shu do'stga fido bo'lsin!

Bu faqir ham «Xamsa»da bu daftar avvalida alar madhida dostone orosta qilibmen va bu ab’yot andindurkim,

m a s n a v i y:

So‘z gulshanining, shukufta vardi,
Ilm oyatining varaqnavardi.

Qadrig‘a ul avj uzra poya
Kim, mehr tutub tagida soya.

Na’laynidin aylabon malak hal,
Surtarg‘a sudo’ bo‘lsa sandal,

Hamdinki, asosi boshida tob,
Chekmakka iki jahonni qullob.

Nugida sinoi aylagach kin,
Ko‘r aylab dev ila shayotin.

Yuz donaki subhasi aro qayd,
Yuz fayz qushini aylabon sayd.

Ul torki donalar beliga,
Bil habli matin jahon eliga.

Ibriqi vuzusi bahri gardun,
Har qatraki tomsa durri maknun.

Lula anga faizi jovidoniy,
Andin oqib obi zindagoniy.

Ka’bi yeri davrai irodat,
Davr ahlig‘a halqai saodat.

Alar «Xiradnomai Iskandariy»dakim, «Haft avrang»ning yettinchi daftaridur, kitob xatmi dostonin chun surubturlar, so‘z xotimasini bu yerga yetkurubturlarkim,

m a s n a v i:

«Biyo, Jomi, ey umrho burda ranj,
Zi xotir burun doda in «Panj ganj».

Shud in «panj»at on panjai zur’yob,
K-az u dasti dar’yo kafon dida tob.

Ajab ajdahoest kilkat dusar,
Ki rezad burun ganjhoi guhar.

Kunad ajdaho bar dari ganj joy,
Vale kam buvad ajdaho ganjzoy.

Bar o‘ halqa zad mori angushti tu.
Bar o‘ halqa zad mori angushti tu.

Chu gavharfishonand in ganju mor,
Ki shud pur guhar domani ro‘zgor.

Vale binam az kilki har ganjsanj,
Pur az «Panj ganj» in saroi sipanj.

Bar on panjho kay rasad panji tu?
Ki yak ganjashon beh zi sad ganji tu.

Ba taxsis panje ki sarpanja zad,
Ba shere ki sarpanja az Ganja zad.

Ba turkizabon naqshe omad ajab,
Ki jodo‘damonro buvad mo‘hri lab.

Zi charx ofarinho bar on kilk bod,
Ki in naqshi matbu’ az on kilk zod.

Bibaxshid bar forsy gavharon,
Ba nazmi dari durri nazmovaron.

Ki gar budi on ham ba lafzi dary,
Namondi majoli suxangustary.

Ba mizoni on nazmi mo‘‘jiznizom,
Nizomy ki budiyu Xusrav kadom?

Chu o‘ bar zaboni digar nukta rond,
Xiradro ba tamyizashon rah namond.

Zihi tab’i tu ustodi suxan.
Zi miftohi kilkat kushodi suxan

Suxanro, ki az ravnaq aftoda bud,
Ba kunji havon raxt binhoda bud.

Tu dodi digar bora in obro‘y,
Kashidi ba javlongahi guftugo‘y.

Safoyob az nuri roi tu shud,
Navoe zi lutfi navoi tu shud.

Bad-in naxli nazme ki parvardaam,
Ba xuni dilash darbar ovardaam.

Nashud boisam juz suxandoniyat,
Ba dasturi donish suxanroniyat.

Vagarna man onro chu orostam,
Na ehson, na tahsin zi kas xostam.

Chy xezad zi mudxil, ki ehson kunad
Chy oyad zi tahsin, ki nodon kunad.

Ba lutfi suxan gar sutudam turo,
Hadi donishi xud namudamduro.

Ki in molu joh archi jonparvar ast,
Kamoli suxan az hama bartar ast.

Ravad yak sar sayr charxi kuhan,
Vale to jahon hast monad suxan.

Suxan niz harchand doim baqost,
Xamushi ajab dilkashu jonfizost.

Biyo, soqiyo, jomi dilkash biyor,
Man garmu ravshan chu otash biyor.

Ki to lab bar on jomi dilkash nihem,
Hama kilku daftar bar otash nihem.

Biyo, mutribo tez kun changro,
Balandi deh az zaxada ohangro.

Ki to punba az go‘shi dil barkashem,
Hama gush gardemu dam darkashem»[175].

[175] Masnaviyning mazmuni:
Kel Jomiy, umr bo‘yi mashaqqat chekib,
Ko‘nglingdagi «Besh xazina»ni dunyoga chiqarding.
Sening bu «beshliging» shunday kuchli panja bo‘ldiki,
Undan daryo po‘rtanasining qo‘li buralib ketadi.
Ikki boshli qalam – ajab ajdahodirki,
Gavhar xazinalarini to‘kib soladi.
[Ofatda] ajdaho xazina oldidan joy oladi,
Lekin xazina tug‘adigan ajdaho kam topiladi.
U ajdaho sening mushtingda xazina bo‘ldi,
Unga ilon barmoqlarini chirmalab oldi.
Bu xazinadan ilon gavharsochar bo‘lib,
Butun olam etagini gavharga to‘ldirib yubordi.
Qarasam xazina tortuvchi qalamidan,
Bu o‘tar dunyo «Besh xazina» bilan to‘libdi.

Bu faqir ham bu kitobning avvalida alar madhida aytqondin bir necha bayt bila ixtisor qilinur:

Birov oldi suz kishvarin yakqalam-
Ki, qildi qalamin sutuni alam.

Qo‘lig‘a olib nayza o‘rnig‘a kilk,
So‘z iqlimini sadbasar qildi milk.

Bilik avjining mehri toboni ul,

U «beshlik»larga sening «beshliging» qanday tenglashadi?
Ularning bir xazinasi sening yuz xazinangdan yaxshimidir?
Ayniqsa «beshlik»ka qo‘l urgan,
Ganjadan turib sherga panja urgan.
Turkiy tilda bir ajoyib naqsh yaraldi,
Jodu damlar labiga muhr bo‘lib bosildi.
Bu qalamga falak ofarinlari bo‘lsin,
Chunki bu go‘zal naqsh o‘sha qalam tufayli yaraldi.
Forsiy gavhar egalariga –
Forscha nazm durrlarini teruvchilarga rahm qildi.
Agar u ham forsiyda yozganda,
Shoirlarda so‘z ayitshga majol qolmasdi.
U mo‘‘jizali nazm mezonida
Nizomiy kimu Xusrav kim bo‘lardi.
U boshqa bir tilda so‘z yuritganidan
Aql uchun farq ajratish imkoni qolmadi.
Qanday yaxshi, sening tab’ing – so‘z ustozidir,
Qalaming kalidi – so‘z ochuvchidir.
Ravnaqdan to‘xtagan, xorlik
Burchagidan o‘rin olgan [turkiy] so‘zga,
Sen boshqatdan obro‘ berding.
Uni ijod maydoniga surding.
Sening fikring nuri tufayli u safo topti,
Lutfing navosidan u navoli bo‘ldi.
Men bu nazm daraxtini parvarish etarkanman,
Yurak qoni bilan hosilga kiritarkanman,
Sening suxandonligingdan,
Ilmiy so‘z yuritishingdan boshqa sabab yo‘q [deb bilaman),
Vaholanki, men uni bezaganimiz,
Hech kimdan na ehson, na tahsin istar edim.
Baxilning ehsonidan nima chiqardi-yu,
Nodonning maqtovidan nima kelardi.
So‘z lutfi bilan seni maqtarkanman,
Seni o‘z bilimim chegarasi deb ko‘rsatdim.
Molu martaba garchi jonni parvarish qilsa ham,
So‘z kamoli hammasidan yuqoriroqdir.
Bu ko‘hna falak birdaniga aylanishdan to‘xtar ham,
Lekin jahon bor – so‘z qoladi.
So‘z har qancha va abadiy boqiy bo‘lmasin,
Xomushlik ajab dilkash va jonga yoqimlidir.
Kel, ey soqiy, bir dilkash jom keltir,
Olovdek issiq va tiniq may keltir.
Toki u dilkash jomga lab qo‘yaylik,
Hamma qalamu daftarlarni olovga otaylik.
Kel, sozanda, changni tezlatib yubor,
Cholg‘u mezrobi bilan kuyni yuksaltir.
Ko‘ngil qulog‘idan paxtani olaylik,
Butun vujudni quloqa aylantirib, dam olaylik.

Qayu mehr, so‘z jismining joni ul.

Chu sur’at aro o‘t sochib xomasi,
Yana garm o‘lub nuqta hangomasi.

Hamul o‘tg‘akim, nazm sham’in tutub,
Maoniy shabistonini yorutub.

Chu tab’idin oqib maoniy suyi,
Kelib chashmai zindagoniy suyi.

Hamul chashmadin chun su bermak tuzub,
Suxanvarlik o‘lgan tanin tirguzub.

Chu istab tarab tab’i ozodasi,
Quyub nazm jomig‘a so‘z bodasi.

Aning jur’asi elni mast aylabon,
Demay mastkim, mayparast aylabon.

Ne jomeki, may jur’asidin nami,
Tarashshuh qilib, mast o‘lub olami.

Bu yanglig‘ki jomi maoniy tutub,
Malak xaylig‘a do‘stgoniy tutub.

Bo‘lub chun aning jomidin jur’achash,
Bo‘lub charx so‘fiylari jur’akash-

Ki, mash’uf o‘lub jomi mastonag‘a
Garav aylabon xirqa mayxonaga.

Yangi oyni jomi hiloliy qilib,
Nechakim to‘la kelsa xoli qilib,

Janohayn o‘lub sukrdin xokro‘b,
Gahi dastafshon, gahi poyko‘b.

Bu nav’ o‘lsalar arshi a’zam eli,
Ne bo‘lg‘ay, xayol ayla olam eli?

Bu doston dog‘i ellik-oltmish bayt borkim, barchasin bitmak mujibi itnob bo‘lur uchun bas qilildi. Bu faqir Imom Ali Muso ar-Rizo[176] (Alayhit-tahiyatihi va l-sano)[177] ziyoratidin hamul yilkim alar

[176] Imom Ali Muso ar-Rizo – (765 – 770/818) sakkizinchi imom, avval Madinada yashagan. 816 y.da Xalif al-Ma’mun uni Xurosonga keltiradi va Ali Rizo min oli Muhammad (ya’ni, Muhammad zotidan saylangan, e’zozlangan) degan laqabin beradi. 817 y. 24 martda Marvda 33 ming odam qatnashgan yig‘inda uni valiahd deb e’lon qiladi. Imom Rizoning nomi tangalarda Ma’mun nomidan keyin zarb etila boshlaydi. Xatto xalif Imom Rizoga o‘z qizi Habibani nikohlab beradi. Ali Rizo qadimgi Tus shahri yaqinidagi Nukon degan qishloqda to‘satdan vafot etadi. Ba’zi rivoyatlarga ko‘ra, u anor, boshqalariga ko‘ra uzum yeb zaharlanadi. Ma’mun g‘oyat tantanali dafn marosimi o‘tkazadi va janozada o‘zi imomlik qiladi. Ali Rizoni Sanobod degan joydagi katta bog‘da

naql qildilar, shahrg‘a keldim. Ma’hud tariq bila avval alar xizmatig‘a tushtum, Alar uchunchi devonlarig‘a tartib berib erdilar. Faqirg‘a o‘z muborak xatlari bila bitilgan devonni inoyat qildilar. Faqir iltimos qildimkim, Mir Xusravdin o‘zga nazm ahlidin eshitilmaydurkim, mutaaddid devon tartib qilmish bo‘lg‘aylar. Ammo alarkim, mutaaddid bitibdurlar, har qaysig‘a bir munosib ot qo‘yubturlar. Siz dag‘i bu devonlarg‘a munosib otlar qo‘ysangiz deb. Alar qabul qildilar. Ikki kundin so‘ngra yana alar xizmatig‘a yettim: juzv qo‘yunlaridin chiqorib faqirg‘a berdilar; devonlar uchun fehrist bitib erdilar va har birin mavsum bir qismg‘a qilib erdilar va bu ishg‘a faqir bois bo‘lg‘onimni dag‘i zohir qilib erdilar va holo kulliyotlarida davovin ibtidosida bitirlar va ul fehristda hamd va na’tdin so‘ngra mundoq ado qilidurlarkim:

«Namuda meoyad ki chun in kamina ba hasabi fitrati asli va qobiliyati jibilli hadafi sihomi ahkomi xujasta farjomi safvat kalom aftoda bud va sadafi javohiri asrori ismi buzurgvor «almutakallim» omada, hargiz natvonist ki avqoti xudro bilkuliya az ibdoinazmi, yo ixtiroi nasri forig‘ yobad va xoli gardonad, lojaram az tavolii a’vom va shuhur va tomodii a’sor va duhur rasoil va kutubi mutaaddida az mansurot va dafotiri mutanavvia az masnaviyot va davovini mutafarriqa az qasoid va g‘azaliyot jam’ omada bud va dar in volo az ta’rixi hijrati nababiya to takmili miata tosia se sol besh boqi namondaast, muhib va mo‘‘taqidi darveshon, balki mahbub va mo‘‘taqidi eshon Nizomul-millati vad-din Amir Alisher himmati sharif bar on ovardaast, ki davovini qasoid va g‘azaliyotro ki adadi on ba se rasidaast, dar yaki jild faroham ovarda va chun se mag‘zi tozai pista dar yak po‘st parvarda, az in faqir istid’oi on kard, ki har ba ismi xos samti ixtisos girad va az vasmati ibhom va ishtirok surati istixlos pazirad, lojaram ba mulohazai avqoti vuquashon devoni avval ki dar avoni javoni va avoili zamoni amnu amoni ba vuqu’ payvasta ba «Fotihat ush-shabob» ittisom meyobad va devoni sony ki dar avositi uqudi ayyomi zindagony intizom yofta ba «Vositat ul-iqd» nomzad meshavad va devoni solis ki dar avoxiri hayot og‘ozi tartibi on shudaast ba «Xotimat ul-hayot» mavsum megardad.

Umedvori ba karami hazrati parvardigori vosiq ast ki nomi hama azizon ba savolihi a’mol va latoifi aqvol bar safahoti ro‘zgor bimonad va vositai duoi xayr va vasilai saodati oxirat gardonad.

R u b o i y:

Hargiz makunod in falaki purshutulum
Nomi moro az nomai hasty gum.
Zero ki baqoi on pas az margi naxust,
Go‘yand hakimon, ki hayotest duvvum»[178].

Xorun ar-Rashid maqbarasi yoniga dafn qiladilar. Keyinchalik bu yerda shahar paydo bo‘ladi va unga Mashhad (ya’ni, shahid o‘lganning qabri) nomi beriladi. Hozirgi holatdagi Imom Ali Rizo maqbarasi XIV asrda Ul-jaytuxon tomonidan bunyod etilgan.

Alisher Navoiy Imom Rizo maqbarasining jamub tomoniga ayvon qurdirgan va ustunlarning birining tepasiga Husayn Boyqaro nomini naqshlattirgan.

[177] a.: Unga Ollohning maqtovi bo‘lsin!

[178] Parchaning mazmuni: Ko‘rinadiki, bu kamina asliy tabiat va tug‘ma qobiliyat tufayli oqibati qutlug‘ so‘z san’ati hukmlari o‘qlarining nishonasi tushgani va «al-mutakallim» degan ulug‘ nom sirlari javohirlarining sadafi bo‘lgani sababli hech qachon o‘z vaqtlarini nazm va nasr yaratishdan forig‘ topabilmadi va bo‘sh qoldira olmadi. Binobarin, yil va oylarning o‘tishi, zamon va davrlarning aylanishi bilan nasriy asarlardan turli-tuman risola va kitoblar, masnaviylardan xilma-xil daftarlar, qasida va g‘azallardan alohida-alohida devonlar to‘plandi. Bu vaqtlarda hijriy (yil hisobida) to‘qqiz yuzga to‘lishiga uch yildan ortiq qolmagan (ya’ni 1491 y. – S. G‘.) edi, darveshlar do‘sti va muxlisi, balki ular do‘st tutgan va ixlos qo‘ygan:

Uning diliga kechagi kunning sekin emas, tez o‘tib ketgani [ta’sir qildi),

Ertangi kun maqsadi nima uchun kecha yoki o‘tgan kundan joy olishi kerak.

(millat va dinning qoidasi) Alisher o‘zining sharafli himmatini ko‘rsatib, soni uchga yetishgan qasida va g‘azallar devonini uchta toza pista mag‘zi bir po‘st ichida parvarish topganidek, bir jildga biriktirilsa va har birisi bir ism bilan nomlansa, bu bilan dudmollik aralashlik tuhmatidan xalos bo‘linsa, deb mendan iltimos qildi. Binobarin, yaratilish vaqtlari mulohazasi bilan birinchi devon yigitlik paytlarida, tinchlik va omonlik zamoni avvallarida yuzaga kelganligidan «Fotihat ush-shabob» (Yoshlikning boshlanishi) deb ataldi. Ikkinchi devon tirikchilik kunlari mashaqqatlarining o‘rtalarida tartib topganidan Vositat ul-iqd» (Bog‘lanish vositasi) deb nomlandi. Uchinchn devon hayot oxirlarida tuzilganidan «Xotimat ul-hayot» (Hayot xotimasi) deb ism berildi.

Ollohning marhamatiga umidvorlik ayondirki, hamma azizlarning nomi yaxshi ishlari va yoqimdi so‘zlari vositasi bilan olam

Chun faqir alar xizmatida bu fehristni o‘qudum, bu faqirg‘a ham amr qildilarkim: «Sening dog‘i nazming turkcha alfozda chun mutaaddid bo‘lubtur, sen dog‘i har birisini bir ism bila mumtoz qil va har qaysini bir laqab bila jilvasoz etgil».

Alar amrining itoati chun vojib erdi — faqir dog‘i avvalg‘i devong‘akim, tufuliyatda rangin nazmning g‘arobati bor — «G‘aroib us-sig‘ar»[179] ot qo‘ydum va ikkinchi devonkim, shabob ayyomidakim, maoniy nodiralari nazm silkiga kiribtur — «Navodir ush-shabbob»[180] laqab berdim; uchunchi devonkim, umr avositida voqe’ bo‘lg‘on bade’ nukotdur — «Badoyi ul-vasat»[181]qa mavsum bo‘ldi va to‘rtunchi devonkim, shayxuxat sinnidag‘i foydalardur — «Favoyid ul-kibar»[182]g‘a ittisom topti. Umid ulkim, sag‘iru kabir, shayxu shobning xotiralarig‘a dilpazir va ko‘ngullarig‘a noguzir bo‘lg‘ay.

* * *

Ustod Qulmuhammad[183] kichik erkandakim, musiqiy o‘rganur erdi, chun bot o‘rganmoki bila xo‘b ishlar yasamog‘i shuhrat tutti. Faqirg‘a doiya bo‘ldikim, bu fanning ilmiysini dag‘i bilgay, mavlono Bu Alishoh[184] bo‘kakim, bu fanda asrining bebadalidur — anga siporish qilildi. Agarchi aknun af’yun kasrati ani aql hul’yasidin oriy qilibdur, ul vaqtda bu fanda «Asl ul-vasl» otlig‘ kitobni tasnif qildi, dag‘i Mir Murtoz va Xoja Shahobuddin Abdulloh Marvorid va mavlono Binoiy[185] dag‘i bu fanda risolalar bitidilar. Ammo chun barcha izhori iste’dod qilib erdilar — mubtadig‘a bot bahra olmoq dushvor erdi. Ul yerdinkim, alarning bu faqir sori inoyat va iltifotlari bor erdi, musiqiy va advor[186] risolasin bitidilarkim, bu fanda andoq munaqqah va mufid risola yo‘qtur.

Ul vaqtdakim, bu faqir Mir Xusravning «Dar’yoi abror»ig‘a Marvda tatabbu’ qilib, alar otig‘a tugatib, shahrg‘a yiborib erdim, andoqki yuqori mazkur bo‘ldi. Ul qasidada yigirmadin ortug‘roq bayt muammo tariqi va istilohi bila muaddo bo‘lub erdi. Alar munung muqobalasida muammo tariqi bila bir qasida aytib, anda base daqiq va g‘arib tarokib darj qilib, bitib yiborib erdilar va ul she’rning matlai budurkim:

Joh dori johiloso dar sar, ey komil, mudom,
Johilat xonam na komil chun turo joh ast kom[187].

---

sahifasida qoladi.

R u b o i y:

Bu jafolarga to‘la falak hech qachon
Bizning nomimizni borlik sahifasidan o‘chirmasin.
Chunki uning abadiyligi dastlabki o‘limdan so‘ng
Donishmandlar aytishicha, ikkinchi hayotdir.

[179] «G‘aroyib us-sig‘ar» (Bolalikning g‘aroyibotlari) – Navoiyning birinchi devoni.

[180] «Navodir ush-shabob» (Yoshlikning nodirliklari) – ikkinchi devon.

[181] «Badoe’ ul-vasat» (O‘rta yasharlikning go‘zalliklari) – uchincha devon.

[182] «Favoyid ul-kibar» (Qarilikning foydalari) – to‘rtinchi devon. Bu yerda Navoiy Jomiy maslahati bilan o‘z devonlarini yuqoridagicha nomlab chiqqanini yozadi. Lekin ana shu to‘rt devoniga bir umumiy nom «Xazoyin ul-maoniy» deb nom berganini qayd qilmaydi.

[183] Ustod Qulmuhammad – Navoiy davridagi mohir sozanda. «Majolis un-nafois»da keltirilishicha, g‘ijjak, ud va qo‘buzni juda yaxshi chalgan, rassom va naqqosh bo‘lgan.

[184] Bu Alishoh – musiqiy ilmi ustodlaridan. Navoiy uning musiqa nazariyotiga oid «Asl ul-vasl» nomli asarini tilga oladi. Shoir Ustod Qulmuhammadni Bu Alishohga ta’lim olish uchun tavsiya qilgan.

[185] Mir Murtoz, Abdulloh Marvarnd, Binoiy – Navoiy davridagi taniqli shoirlar va musiqiy ilm sohasida nazariy asar lar yaratgan ijodkorlar. «Majolis un-nafois»da ular haqida ma’lumotlar keltirilgan.

[186] Bu yerda so‘z Jomiyning musiqa va uning nazariyoti haqidagi risolasi ustida ketmoqda. Jomiyning bu asarini taniqli sharqshunos olim A. N. Boldirev (1909 – 1993) rus tiliga tarjima qilgan: Abduraxman Djami. Traktat o muzыke. Tashkent, 1960.

[187] She’rning mazmuni:

Ey komil, doimo johildek davlatni o‘ylaysan,

Bir qatla bu faqirning turkcha bu matlaikim:

Ochmag‘ay erding jamoli olam oro koshki,
Solmag‘ay erding bori olamg‘a g‘avg‘o koshki.

el orasida shuhrat tutub erdi va podshoh hazratlarining suhbatlarida dag‘i o‘qilur erdi. Shuyu’ va shuhrati ul yerga yettikim, hazrati Maxdumg‘a dag‘i masmu’ bo‘lub, alarg‘a ham dag‘dag‘a ulkim, bu bahr va qofiya va radifda she’r degaylar, bu doiya paydo bo‘lub, chun turkcha alfoz bila nazmg‘a iltifot qilmas erdilar, bir forsiy g‘azal ayttilarkim, matlai budur:

Diydame didori on dildori ra’no koshky,
Diyda ravshan kardame az xoki on po koshky[188].

bitib podshoh xizmatlarig‘a yiborgandin so‘ngra maqbul va matbu’ tushub, podshoh hazratlari ehson va tahsinlar qilib, bu faqirg‘a hukm qildilarkim, alarning bu g‘azalin musaddas bog‘lag‘aymen. Chun ma’mur va mahkum erdim — maof va ma’zur bo‘lsam ajab ermas. Musaddas aytilg‘ondin so‘ngra podshoh hazratlari ehson va tahsinlar qilib, musavvadasin alar xizmatlarig‘a yibordilar. Alar dag‘i bandanavozlig‘ yuzidin iltifotlar qildilar. Matlai bu nav’ bog‘lanibdurkim:

Kardam’ dar xoki ko‘i do‘st ma’vo koshki,
Sudame ruxsori xud bar xoki on po koshki,
Omadi berun zi qo‘y on sarvi bolo koshki,
Burqa’ afkandy zi ro‘i olamoro koshki,
Didame dndori on dildori ra’no koshki.
Dida ravshan kardame az xoki on po koshki[189].

XOTIMA

Ul, rasoil va kutub te’dodikim, bu faqir alar xizmatida ta’lim va istifoda yuzidin o‘qubmen.

Avval alar bitigan «Qofiya»[190] risolasidurkim, aningdek muxtasar bu fanda hech kim bilmaydur.

Yana «Muammo»ning ikkinchi risolasidurkim, «Huliya ul-hulal» din so‘ngraroq bitilibdur.

Yana ham alarning «Aruz» risolasidur.

Yana «Lavoeh» durkim, so‘fiya mashoyix istilohida bitilibdurkim, andoq risola hech roqimning qalamidin va hech qalamning raqamidin tahrir topmaydur.

Yana «Lavome’»dur, ham bu istilohdakim, har lam’asining partavi solikka hirmon qorong‘u lunida hidoyat sham’ining osoridur, balki inoyat mash’alining anvori.

Yana «Sharhi ruboyyot»dur, ham bu istilohdakim, fano tariqida mosivalloh azosig‘a to‘rt takbir[191]

Maqsading martaba – boylik bo‘lgani uchun seni komil emas, johil hisoblayman.

[188] She’rning mazmunn:
U go‘zal dildor diydorini ko‘rsam koshki edi,
Ko‘zimni uning oyog‘i tuprog‘idan ravshan qilsam koshki edi.

[189] Musaddas bandining mazmuni:
Do‘st ko‘yini vatan qilsam koshki edi,
Uning oyog‘i tuprog‘iga yuz surtsam koshki edi,
U baland sarv o‘z ko‘chasidan chiqsa koshki edi,
Olam bezagi [bo‘lgan) yuzidan parda ko‘tarsa koshki edi,
U go‘zal dildor diydorini ko‘rsam koshki edi,
Ko‘zimni uning oyog‘i tuprog‘idan ravshan qilsam koshki edi.

[190] Bu va keyingi Navoiy tilga olgan Jomiy va boshqa mualliflar asarlari haqida yuqorida izohlar berildi.

urmoq aning mutolaasidin muyarsardur.

Yana ham bu istilohda «Ashi'a»durkim, barqining taloloyidin xira ko‘zlarga ochug‘liq va quyoshining sha'shaasidin tiyra ko‘ngullarg‘a yorug‘luq yetishur.

Yana «Nafahot ul-uns» durkim, oshnolig‘ nasoimi uns ravzasidin jon mashomig‘a kelturur va ulfat shamoili quds gulshanidin ruh dimog‘ig‘a yetkurur.

Yana biri «Shavohid un-nubuvvat» muqobala qililibturkim, alfozi iymon jo‘ybori ashjorin yaqin anhori bila serob va maoniysi iyqon ashjori asmorin tahqiq sahobiamtori bilan shahdi nob etar.

Yana ba'zi mashoyih (quddisa asrorihum) rasoilidin: Xoja Muhammad Porso (quddisa sirrihu)ning «Qudsiya»sidurkim, hazrati qutbil-avliyo Bahovuddin Naqshband rahmatullohning firdavsoyin majlislarida ul hazratning mu'jiz bayon tillarig‘a o‘tgan haqoyiq va maoniy ba'zi xulafokim, jam' qilurlar ermish Xoja Muhammad mazkur ang‘a maoniy bitibdurlar va toliblar uchun aning diqqatlari iyhomin vozih etibdurlar.

Yana hazrati shayx ul-mashoyix Faxr ul-millati vad-din Iroqiyning «Lamaot»idurkim, Hazrati Mahdum ul kitobni bu faqirg‘a sabaq ayturda aytur erdilarkim, «Bu kitobni nodon va beandom tavrlig‘ va noxamvor ravishliq elning ko‘proq mashg‘ulluq qilg‘oni xavos ahlida badnom qilg‘on ermishkim, ba'zi o‘qumas ermishlar. Bu jihatdin bu kitobning xo‘bluqlari yashurun qolg‘on ermish». Asru izhor xushholliq va surur qilurlar erdi, sharh bitmagiga dag‘i bu bois bo‘ldi. Ushbu aning ta'rifida basdur.

Yana Hazrati Xoja Ubaydulloh (toba surohu)ning otalari ishorati bila bitilgan risolalaridur, ham faqr va fano tariqidakim, oz o‘g‘ulga bu davlat muyassar bo‘lub erkinki, ota amri bila bu nav' shoyista xizmat qilmish bo‘lg‘ay va andoq pisandida amr bajo keltirmish bo‘lg‘ay.

Yana muqarrabi Hazrati boriy Xoja Abdulloh Ansoriy (quddisa sirrihu)ning «Ilohiynoma»sidurkim, aning vasfida qalam tili ojizu lol va qalamzan xomasi alkanu shikast maqoldur.

Yana «Xamsa», balki «Haft avrang»larining ko‘pragin muqobala dasturi bilia alar o‘qug‘onda quloq tutulubtur yo quloq tutquchilar madadi uchun alar maj-lisida o‘qulubtur.

Yana dag‘i ba'zi rasoil bor, agarchi sabaq dasturi bila yo muqobala qonuni, bila alar xizmatida o‘qulmaydur, ammo mushkil mahallari alardin so‘rulub, tahqiq qilnlibtur.

* * *

Agarchi xavoriqi odat izhorig‘a haq taolo amri bila ma'mur emaslar erdi va pokiza holatlari «Malomatiya»[192] tariqini shoirliq va mulloliq tariqida yashurun tutarlar erdi. Ammo gohi g‘arib nimalar alardin zohir bo‘lur erdi.

Ul jumladin dag‘i bir nechakim, aynil-yaqin bo‘lubtur bitimagi munosib ko‘rundi.

* * *

Seyidam Iroqiy degan yigit Muzaffar[193] barlosning o‘bdon navkari, balkim eshik oqosi erdi, g‘oyati nodonlig‘idin alarg‘a munkir ermish, g‘oyati inkoridin alarning devonin birin-birin uzub, o‘tg‘a solib, kuydurubtur. Hamul uch-to‘rt kunda go‘yo bir uzvig‘a tugan qo‘pub, ul jarohat gazak bo‘lub, oxir bo‘ldi.

* * *

[191] Takbir – xudoni o‘ylab «Ollohu akbar» iborasini aytishlik.

[192] Malomatiya – IX asrda Nishopurda paydo bo‘lgan ta'limot.

Unga ko‘ra uni qabul qilganlar o‘zlarining malakalarini oshirish, yuraklarini pokiza tutib, sunniy mazhabga qat'iy rioya qilishlari kerak bo‘lgan. Lekin ularning bu harakat va intilishlarini hech kim sezmasligi, bilmasligi shart hisoblangan. Zohirda ular boshqalardan farq qilmasliklari va o‘zgalar ularga biror bir malomat qilsalar xafa bo‘lmay, aksincha bu bilan faxrlanishlari lozim bo‘lgan. Jomiy o‘zini tasavvufdagi ana shu maktabga mansub deb bilgan.

[193] Muzafar barlos – Husayn Boyqaro amirlaridan.

Majiduddin Muhammad[194]ki, olam mashhuridur, ta’rifg‘a ehtiyoj emas. Podshoh ani yozg‘urg‘onda andin itloqig‘a zomin tilagandur. Ul alarg‘a iltimos qilibdur va alar taahhud qilg‘ondin so‘ngra qochti. Oz fursatda, o‘n besh kunga tortmadikim, tutuldi. Azim qiyinlar tortti va boru yo‘q jihotin devoniy qildilar. Shahrdin boshin olib, ovora bo‘ldi va hamul ovoraliqda fanog‘a bordi.

* * *

Bir panjshanba quni alar xizmatida Gozurugohdin qaytib keliladur erdi. Mahmud Habib otlig‘ devonai fosiqi abtariy shaharda bor erdikim, doim mast yurur erdi va yo‘luqg‘on elga tashne’lar va safohatlar qilur erdi. Bu faqirni chun alar xizmatida ko‘rdi, alarg‘a abtar va devonalig‘ yuzidin uzromiz hikoyatlar dey boshladi. Chun andin bu xilofi ma’hud edi. Faqir taajjub qildimkim, devonani ne nima munga tutub erkinkim, odmiyona va xushmandona so‘zlar andin zohir bo‘ladur. Ba’zi mulozimlardin so‘zin taqrir qildilarkim, tuno kun devonai abtariyi usruk alarg‘a yo‘luqub, ko‘p beadabona harzalar deb, og‘zig‘a kelgan safohat qilg‘on erkandur. Bukunkim, faqirni alar xizmatida ko‘rubtur, bu xayol bilakim, nogoh alar tuno kungi holni faqirg‘a izhor qilsalar, faqir devonai abtarg‘a izo qilg‘aymen deb qo‘rqunchdin muloyamat qiladur ermish. Faqir bu so‘zni eshitgach, beixtiyor bar on bo‘ldumkim, anga izo qilg‘aymen. Alar man’ qilib ayttilarkim:

Ul o‘z siyosatin topqusidur, sen hech nima dema. Hamul besh-o‘n kunda abtar devonani bo‘zaxonada yana bir o‘zidek abtar bo‘ynin chopib o‘lturdi.

* * *

Tolibi ilmlar orasida Nohiqiykim, ani dev bila, shayotindin mutavallad bo‘lg‘on o‘g‘ul desa bo‘lur, nohamvorliq va beandomlig‘i andin ko‘prak erdikim, ani sharh qilsa bo‘lg‘ay.

Ul jumladin biri bukim, alarg‘a munkir erdi va hazayonot ko‘p aytur erdi. Bir kun Gavharshodbegim madrasasi tolibi-ilmlari bir bog‘da suhbat tutub, bug‘ro[195] pishiradur ermishlar. Alar ta’rifida ba’zi mubolag‘a qiladur ermishlar. Nohiqiy inkor yuzidin bema’ni hashvlar aytur ermish. Irodat ahli alarning devonin ochibturlarkim, ko‘rali: ul hazrat Nohiqiy bobida ne nima zohir qilurlar, deb safhaning avvalida bu bayt kelibturkim.

She’r:

Pursat go‘shts man az subhai malak chu Masih,
Kujo mushavvishi xotir buvad nahiqi haram[196].

O‘z favtlari voqeasidin o‘ttuz besh yil burunroq, ul yilkim Sulton Abusaid[197] mirzo avval qatla Shohruhiya qo‘rg‘onin borib qabab erdi, ul yurushta Xoja Dehdor bilan erdi va Mavlono Qutbiddin Nafis mulozimi erdi. Bir kecha alarni voqeada ko‘rgandurkim, aning sori boqib aytibturlarkim, «Qur’on bixon». Ul podshoh zamonikim o‘tti va saltanat taxti sultoni sohibqiron Abulg‘ozi Sulton Husayn Bahodirxon (xallada lillahi mulkahu va saltanahu)[198]ga muqarrar bo‘ldi, ul voqea tarixidin

[194] Majduddin Muhammad – Husayn Boyqaro vazirlaridan.

[195] Bug‘ro – Lag‘monga o‘xshagan xamir ovqat.

[196] She’rning mazmuni:

Mening qulog‘im Masihga o‘xshash malakdan so‘radi:

Haram eshagining hangrashi xotirni tashvishga soladimi?

[197] Sulton Abusaid – temuriylardan, Temur o‘g‘li Mironshohning nabirasi. 1451 y.da Movarounnaxr, 1467 y.dan boshlab Xurosonda hukmronlik qilgan. U vafot etgach, 1469 y. Hirot taxtini Husayn Boyqaro egallagan.

[198] (a.: Olloh mulki va saltanatini boqiy qilsin!)

yetti yo sekkiz yildin so‘ngra Xoja Dehdor bu faqirg‘a musohib bo‘ldi, ul tushni izhor qildi. Faqir soiy va bois bo‘ldumkim, ul Qur’on o‘qub, yod tutti va xo‘b hofizi mujavvid bo‘ldi.

Alar favt bo‘lur yilkim, ul voqea ko‘rgan tarixdin o‘ttuz-o‘ttuz to‘rt yil taxminan o‘tub erkin, Xoja Dehdorni ba’zi muhim uchun Astrobod viloyatig‘a yiborib erdim. Ul muhimni saranjom qilib, qaytib keladurganda shaharning bir manzilida ekanda ahmol va asqolni qo‘yub, bejihat ilg‘ab, shaharg‘a keldi va alar naz’ holatida va mavt sakarotida erdilar, hech hofiz hozir ermas erdikim, alar boshida Qur’on o‘qug‘ay. Bu mahalda Xoja Dehdor yetishti. Alarning vido’ diydorlarig‘a musharraf bo‘lub, Qur’on o‘qug‘ali boshladi, xatmni tugatmak hamon erdikim, alar ruh vadiatin jon ofaring‘a topshurdilar. Bu nav’ karomat avliyoning kamidin voqe’ bo‘lmish bo‘lg‘aykim, o‘ttuz yil ortug‘roqdin so‘ngra natija zohir bo‘lmish bo‘l g‘ay.

Alarning bu nav’ holot va kamolot va karomotlarida azizlarki, misli: Mavlono Abulvose’ki, base fazoili hamida bila orostadur va Mavlono Ahmad Pir Shamskim[199], base xasoili pisandida bila pirosta kutub va rasoil bitibturlar, ma’lum qilay degan kishi ul kitoblardin ma’lum qila olur. Bu faqir o‘z ko‘rganlarimning yuzidin birin bitsam so‘z uzar jihatdin bir necha bila ixtisor qildim.

Ul hazratning favtlari voqeasi sharhig‘a shuru’ qilali: alarning valodatlari tarixi va hayotlarining zamonining tarixi yuqori mazkur bo‘lubtur. Ammo fano doridin baqo gulzorig‘a rihlatlari jum’a kuni muharram oyining o‘n yettisida tarih sekkiz yuz to‘qson sekkizida[200] voqe’ bo‘ldi.

Va aning sharhi budurkim, sharif jismlarig‘a havo asaridin za’f yuzlanib erdi, bir kun sohibfirosh bo‘ldilar. Bu faqir dambadam xabar tutar erdim. Panjshanba kuni xotirim alarning za’fidin bag‘oyat mutaraddid erdi, jum’a kechasi bu taraddudda uyqum kelmas erdi. Yarim kecha iztirob yuzidin otlanib, alar xizmatig‘a iyodatg‘a bordim. Ba’zi azizlar va ashob alarning boshlarida jam’ erdilar, goh behol, goh o‘z hollarida erdilar. Faqir gustohliq yuzidin xotir itmiynoni uchun hollarin so‘rdum, iltifot qildilar. Va. Hazrati qutbis-solikin Xoja Abdulaziz Jomiy dag‘i boshlarida hozir erdilar. Tong otquncha bir holda erdilar, chun tong namozidin xaloyiq forig‘ bo‘ldilar, alarning holi o‘zgacharak bo‘ldi. Hazrati Xoja Abdulaziz[201] chun ko‘rdilarkim, hol o‘zga nav’dur, o‘zlari madad berib, alarning boshin mashriq jonibidin shimol jonibig‘a qilib, yuzlarin qibla sori qildilar. Mavlono Ziyovuddin Yusufkim, alarning arjumand farzandlaridurlar, ayog‘lari sori ko‘zlarig‘a o‘tru o‘lturub erdi, alar qachon ko‘z ochsalar anga iltifot yuzidin boqadurlar erdi. Bu faqir gustohliq qilib, iltimos qildimkim, maxdumzoda o‘trudin qo‘ptilar. Andin so‘ngra alar naqshbandiya xojalari tariqi bila xafiy zikrig‘a mashg‘ul bo‘lub, o‘z tavajjuhlarig‘a ishtig‘ol ko‘rguzdilar, to jum’a saloti chiqti, andoqki, yuqoriroq mazkur bo‘ldi — Xoja Hofiz G‘iyosiddin Muhammad Dehdor kelib, alarning boshida Qur’on xatmig‘a mashg‘ul bo‘ldi, to ul zamonkim, hanuz el namozdin forig‘ bo‘lmaydur erdilarkim, alar kasrat anjumanidin ko‘z yumub, vahdat xilvatxonasig‘a nuzul qildilar. Alarning mutahhar ruhi chun malail-a’log‘a azimat qildi va ashobning hayoti qushi hamul toyyri qudsiydin irashti, fazai akbar malai a’log‘a yetishti, chun ul pok muhib o‘zin pok mahbub visolig‘a soldi — olam jonsiz badandek xoli qoldi.

Sh ye ‘ r:

Ko‘kka motamzadalar navhasi gar yovushti,
Men motamzadag‘a, lek qatig‘ ish tushti.

Ne o‘zga bedod qilmoqdin foidae, balki ne o‘zni-o‘lturmoqdin natijae. Bu faqirg‘a voqe’ bo‘lg‘on suubat sharhi chun mumkin ermas va shuru’ anga tahayyur va taazzurdin o‘zga foyda bermas, shuru’ maqsudg‘a qilmoq avlodur.

Alqissa, bu mudhish xabar shahrg‘a mushtahir bo‘lg‘och, akobir va javonib va atrofdin yetishtilar.

[199] Mavlono Abulvose’, Mavlono Ahmad Pir Shams – Hirotdagi shoir va allomalar. Jomiy va Navoiylarning suhbatdosh-laridan.
[200] 898 y. muharram oyining 17-chi kuni milodin hisobda 492 y. 8 noyabrga to‘g‘ri keladi.
[201] Xoja Abdulaziz – Hirotning mashhur tabiblaridan.

Barcha so‘gvorlik libosida, balki motam va azo balosida to ulki hazrati Sulton sohibqiron (xallada mulkahu va tavvala umrahu)[202] — tashrif kelturdilar, hoy-hoy yig‘lab va talx-talx sho‘robalar o‘tkub, bir zamon o‘lturub, Mavlono Ziyovuddin Yusufni shafqat yuzidin quchub, muddate boshin qo‘ynida asrab yig‘lab, soyir ashobg‘a ko‘ngul berib, bu faqirni sohib azo tutub, holimg‘a dilso‘zluqlar bilan ashk to‘kub, nasoyih va mavoiz durbor alfozlaridin zohir qilib, chun muborak mizojlarida za’f bor erdi — xilofat taxti va saltanat masnadi azimati qildilar va sultonzodalarni va arkoni davlatni borchasin anda alarning ko‘tarur ishiga qo‘ydilar. Sulton Ahmad mirzo[203] va Muzaffar Husayn mirzo[204] boshlig‘ salotin va podshohzodalar bir-biriga navbat berishmay, alarning mahfuf mahofasin eginlarig‘a ko‘tarib, Musallog‘a elttilar. Xaloyiq g‘avg‘osi ul martabada erdikim, necha yuz ming xalqni tasavvur qilsa bo‘lg‘aykim, bir jism bo‘lub erdilar. Namozgohda Hazrati Xoja Azizulloh ul hazratg‘a soyir ashrof bila namoz qilib, yana mutahhar ravzalarig‘a olib qayttilar va xalq g‘avg‘osidin mihaffani kelturmak dushvor erdi. Podshohzodalar yaso-vulluq qilib, elni ko‘rub, yo‘l ochib, na’sh madfang‘a yetti va hazrati qutb ul-avliyo Mavlono Sa’duddin Koshg‘ariy yonidaki; zohiran tariqat odobida alarning piridur — dafn qildilar.

Va hazaroti oliyot mahdi ulyo Bikabegimki[205], soyir abnoyi jinsdin fazlu kamol va aqlu hamida xisol bila mumtozdurlar va alarg‘a irodat va ixloslari benihoyatdur, ham so‘gvorlig‘ va motamzadalig‘ tavrida kelib, azo so‘rar qoidasin bajo kelturdilar va bu faqirg‘a navozishlar qilib, borcha ashobni va maxdumzoda[206]ni iltifotlar bila musharraf qildilar.

Soyir azizlarkim, atrofdag‘i viloyatdin alarning azosi uchun keldilar, chun filhaqiqat bu faqir sohib azo erdi, hamul dastur bila faqirni-o‘q sohib azo tutub, so‘rmog‘ rasmin mar’iy tuttilar. Hattokim, hazrati saltanat shior, xilofat. disor Sulton- Badiuzzamon mirzo[207] (Abbada l-lohu taolo zilol shafatihi alo naforiqi l-muhibbin ila yavmiddin)[208] Mozandaron mulkidin kishi yiborib, alar azosi uchun ba’zig‘a liboslar iltifot qilib erdilar ham muxotab faqir erdim va ul Hazratning Hazrati saltanat shior bila go‘shai xotir va himmatlari bag‘oyat ko‘p erdi. Hazrati saltanat shiorning ham alarg‘a irodat va ixlosi benihoyat erdi.

Bir yilg‘acha olam ahlig‘a umuman va Xurosonu Hirot ahlig‘a xususan, motam erdi. Yil bo‘lg‘ondin so‘ngra Hazrati Sultoni sohibqiron alarning yil oshin base e’zoz va ehtirom bila podshohona berib, muxlislaridin ba’zy ul hazratning mutahhar marqadi boshida oliy imorat solib, huffozu imom va muqriyu xuddom tayin qildi. Va nazm ahli ko‘p ta’rixlar aytib o‘kudilar. Ul jumladin huruf roqimi[209] bu marsiya bila ta’rixni aytib, yil oshi tortarda sultoni sohibqiron oliy majlislarida o‘tkardi va hukm bo‘ldikim, Mavlono Husayn Voiz[210] minbar ustida o‘qudi.

Ta’rix budurkim:

Gavhari koni haqiqat, durri bahri ma’rifat,
K-o‘ ba haq.vosil shudu dar dil nabudash mosivoh,
Koshnfi sirri ilohiy bud beshak, z-on sabab
Gasht ta’rixi vafotash: «Koshifi sirri iloh»[211].

[202] (a.: Olloh mulkini boqiy va umrini uzun qilsin!).
[203] Sulton Ahmad mirzo – Husayn Boyqaroning nufuzli amirlaridan.
[204] Muzaffar Husayn mirzo – Husayn Boyqaro o‘g‘illaridan.
[205] Bikabegim (Xadichabegim) – Husayn Boyqaro xotinlaridan eng e’tiborlisi.
[206] Maxdumzoda – Jomiyning o‘g‘li Ziyovuddin. Yusuf ko‘zda tutiladi.
[207] Sulton Badiuzzamon mirzo – Husayn Boyqaroning to‘ng‘ich o‘g‘li.
[208] (a.: Olloh taolo shafqat soyasini do‘stlar ayrilig‘i ustida to qiyomat abadiy qilsin.)
[209] Huruf roqimi – harflarni yozuvchi, demakdir. Navoiy bu yerda o‘zini ko‘zda tutmoqda.
[210] Husayn Voiz – Hirotning mashhur olimi, shoiri va notiqi. «Majolis un-nafois»da alohida hurmat bilan tilga olinadi.
[211] «Koshifi sirri iloh» – U Olloh sirlarini kashf etuvchi, demakdir. Bu iboraning arab yozuvidagi harflari yig‘indisidan abjad hisobida 898/1492 y. chiqadi.
T a ‘ r i x n i n g m a z m u n i:

Va marsiya budurkim,

m a r s i ya:

Har dam az anjumani charx jafoe digar ast,
Har yak anjumi u dog‘i baloe digar ast.

Ro‘zu shabro, ki kabudastu siyah joma dar o‘,
Shab azoi digaru ro‘z azoi digar ast.

Balki har lahza azoest, ki az dashti adam,
Har dam az xayli ajal gardi fanoi digar ast.

Xast motamkadae — dahr, ki az har tarafash
Dudi ohi digaru nolavu voi digar ast.

Ohi o‘ hast ba dil tiyragi afzoyanda,
Voi o‘ niz ba jon ya’sfizoi digar ast.

Guli in bog‘, ki sadpora zi motamzadagist,
Har yake suxtai joma-qaboi digar ast.

Obi o‘ zahru havoyash mutaaffin, chi ajab,
Ki dar in marhala har lahza vaboi digar ast.

Ahli dil mail so‘i gulshani quds ovardand,
Hast az on ru, ki dar u obu havoi digar ast.

Nazdi arbobi yaqin dori fano joe nest,
Vatani aslin in toifa joi digar ast.

Z-in sabab masti mai jomi azal orifi jom,
Sarxush az dori fano so‘i vatan kard xirom[212].

Haqiqat konining gavhari, ma’rifat daryosining durri,
Haqga yetishdi va dilida boshqa narsa yo‘q edi.
Ilohiy sirrning kashf etuvchisi edi, shu sababdan shaksiz,
Vafoti ta’rixi «koshifi -sirri iloh» bo‘ldi.

[212] Marsiyaning mazmuni:
Har dam osmon anjumanidan yangi bir jafo keladi,
Uning har bir yulduzi yangi bir baloning dog‘idir.
Kunduz va kech uning kiyimi ko‘k va qoradir,
Kechasi boshqa aza va kunduzi boshqa azadir.
Balki har lahza yo‘qlik dashtidan aza keladi.
Har dam ajal guruhidan yangi bir fano gardi keladi.
Dunyo bir motamxonadirki, uning har tarafidan,
Boshqa bir ohning dudi va boshqa nolayu voy keladi.
Uning ohi dilga qorong‘ulik orttiradi,
Nolayu voyi jonga yangi qayg‘u soladi.
Bu bog‘ning guli motamzadalikdan yuz pora bo‘ldi,
Har birining libosi kuygan, boshqasining esa to‘ni [kuyadi].

* * *

Ey harimi karami qurbi ilohi joyat,
Tarafi jannati firdavs kujo parvoyat.

Chun shudi az harami mulk ba sayri malakut.
Bud dar anjumani xayli malak g‘avg‘oyat.

To‘tiyoni harami quds ba dil mushtoqat,
Bulbuloni chamani uns ba jon shaydoyat.

Kimiyokori qazo mehri digar dod tulu’
Charxro az asari ravshanii simoyat.

Nuh falak charx zanon omada bar atrofat,
Buda go‘yo ba sari har yak az on savdoyat.

Sho‘r dar olami arvoh biyaftod, az on,
Ki niyushand ba jon nuktai ruhafzoyat.

Ruhi aqtob rasidand ba istiqbolat,
Joni avtod fitodand ba xoki poyat.

Dast bar dast rabudand turo to joe
Ki, dar in g‘amkada ham xosti onro royat.

Tu shudi vosili maqsudi haqiqiyu bimovd
To qiyomat ba jahon shevanu vovayloyat.

Dar firoqi tu g‘amin mond dili g‘amzadagon,
Tira z-in go‘shoi motamkada motamzadagon[213].

[Bu bog‘ning] suvi zahar, havosi badbo‘y, ne ajabki,
Bu manzilda har lahza boshqa vabo bo‘ladi.
Dil ahllari poklik gulshani tomon [ketmoq] istadilar,
Chunki u yerda obu havo boshqachadir.
E’tiqod egalari nazdida bu o‘tkinchi dunyo joy emas,
Bu toifaning asli joyi boshqa yerdadir.
Shu sababli azal mayining masti jomlik orif,
Sarxushlik bilan fano saroyidan [chiqib] vatan tomon ketdi.

[213] * * *
Ey iloh qudratining karami xaramidan joy olgan,
Sening qiziqishing jannat bog‘i tomon bo‘larmidi?!
Yer haramidan malaklar mamlakatiga sayr qilganingda,
Malak guruhi anjumaniga g‘avg‘ong tushdi.
Poklik xarami to‘tilari senga yurakdan mushtoqlar,
Do‘stlik chamani bulbullari senga jondan shaydolar.
Qazo kimyogari boshqa quyoshni chiqardi,
[Zeroki] siymoying ravshanligi osmonga ta’sir qildi.
To‘qqiz falak charx urib atrofingga kelishdi,
Go‘yo har birining boshida sening savdoying bor edi.
Olam arvohi (boshiga) shuning uchun (ham) g‘avg‘o tushtiki,

* * *

Tu biraftiyu dili xalqi jahon zor bimond,
To qiyomat ba firoqi tu giriftor bimond.

Z-otashi ohi dili so‘xtagon to ba abad
Dudho dar xami in gunbazi davvor bimond.

Ahli tavhid, ki be murshidi komil gashtand,
Sadashon mushkili halnoshuda dar kor bimond.

Solikonro, ki kamol az tu rasidi ba suluk,
Ajzho dar ravishu nuqs dar atvor bimond.

Ulamoro, ki shudi mash’ali dars az tu munir,
Tira shud mash’alu to hashr shabi tor bimond.

Sad xalal roh badin yoft, ki dindoronro
Subha bishkastu ba kaf rishtai zunnor bimond.

Sirri h-aq raft pasi pardai kitmon, ki zi ashk
Ba gil anduda duri maxzani asror bimond.

Na ki sad xori alam bar dili ahror xalid,
Ki dusad bori sitam bar tani abror bimond.

Tolibonro ravishi rohi fano raft zi dast,
Har yake dar pasi sad pardai pindor bimond.

Chi tazalzul, ki zi favti tu dar ayyom aftod,
Z-on tazalzul chy xalalho, ki dar islom aftod[214].

Ruhparvar nozik fiqrlaringni jon bilan yozsinlar.
Qutblar ruhi istiqbolingga kelishdi,
Avliyolar joni xoki poyingga yig‘ilishdi.
Seni qo‘lma-qo‘l (qilib) shunday bir joyga olib borishdiki,
Bu g‘am makonida ham u joyni xohlar eding.
Sen haqiqiy maqsadga erishding,
(Lekin) qiyomatgacha jahonda dodu faryoding qoldi.
Sening firoqingda g‘amzadalar dili g‘amgin qoldi,
Shuning uchun motamzadalar motamxonasining burchaklari zulmatda qoldi.

[214] * * *
Sen ketdingu jahon xalqining dili zor qoldi,
Qiyomatgacha firoqingga giriftor qoldi.
To abad kuyganlar dilining ohidan,
Bu aylanuvchi gumbaz bukrida tutunlar qoldi.
Haqiqatga yetishmoqchi bo‘lganlar komil murshidsiz qoldi,
(Ularning) yuzlarcha mushkillari hal bo‘lmay shundayin qoldi.
Xudojo‘ylar sulukiga sendan komillik yetishib turar edi,
Ravishlarida ojizligu atvorlarida nuqsonlar qoldi.
Sening nuring olimlar uchun dars mash’ali bo‘ldi,
Mash’al o‘chdi va qiyomat kunigacha kecha qorong‘i qoldi.

* * *

Z-in azo dar hama olam na gado monda, na shoh,
Ki kashidand ba so‘gi tu du sad nolavu oh.

Abrson gir’yakunon, na’razanon soya fikand,
Bar sari na’shi tu xurshedi karam — zilli iloh.

Gar muyassar shudayash na’sh kashidi bar do‘sh
Chun mani so‘xtadil jonibi madfan hamroh.

Shahriyoroni jahon chok zada joma ba tan,
Peshi tobuti tu po‘yanda ba ahvoli taboh.

Sarbalandoni jahon dar tahi na’shat shuda past,
Hama gir’yonu kashon bori tu bo pushti dutoh.

Shuda har poyai na’shi tu ba do‘shi yak qutb,
Lek har chor shuda nudbagaru vovayloh.

Olamero ba so‘i olami digar burdan
Natavon juz ba chunin barkashoni ogoh.

Chazai akbare aftod, ki bo in hama chashm,
Charhi gardun notavonist bad-on so‘i nigoh.

Garchi shomi tu shud az nur chu mahtob safed,
Hech kas lek nadidast chunon ro‘zi siyoh.

Ba namozat, ki hazoron zi bashar payvastand,
Sad hazoron zi maloik ba havo saf bastand[215].

Dinga yuz halal yetishti va dindorlarning
Tasbehi sinib, kafida zunnor ipi qoldi.
Xaqiqat sirri parda (ortiga) yashiringani uchun ko‘z yosh to‘kaverib.
Sirrlar xazinasi durrlari loyga qorishganicha qoldi.
Nainki yuz alam tikani erklilar taniga qadaldi,
(balki) ikki yuz sitam yuki yaxshilar tanida qoldi.
Toliblar fano yo‘lining ravishini qo‘ldan berdilar,
Har biri yuz xayol pardasi ortida qoldi.
Sening vafoting tufayli davrda ne chog‘liq zilzilalar ro‘y berdi.
U zilziladan imomga qanchalik halallar yetishdi.

[215] * * *
Bu azadan hamma olamda ne gado qoldi, na shoh.
Ular sening motamingda ikki yuzlab nolavu oh chekdilar.
Bulutdek o‘kirib, na’ra tortib,
Karam quyoshi – iloh ko‘lankasi tobuting ustiga soya tashladi.
Agar muyassar bo‘lsa u ham na’shingni yelkaga olib,
Kuygan men kabi mozorgacha hamroh bo‘lar edi.
Jahon podshohlari to‘nlarini chok qilib,
Tobuting oldida qattiq qayg‘u bilan qadam tashladilar.
Jahon mag‘rurlari tobuting ostida past bo‘lib,

* * *

Hama burdand ba afg‘onu dili chok turo,
Joy kardand chu ganje ba dili xok turo.

Xayli arbobi irodat hamaro chok ba dil,
Har yake xost kashidan ba dili chok turo.

Sari pokoni jahon budi, az on ezidi pok,
Pok ovardu digar burd hamon pok turo.

G‘arqai bahri visoli, ki ba chashmi himmat,
Ravza chun gulxanu tubist chu xoshok turo.

Ruhi pokat chu ba boloi nuho‘m charx shitoft,
Z-in ki tan zeri zamin raft, kujo bok turo.

Hama pokoni jahonro ba tani pok rasid,
Onchi omad ba tani pok zi aflok turo.

Sayri aflokat az on shud, ki zi ezid darxost
Bahri hamrozii xud xojai lavlok turo.

Aqli kull budi az idroki maoni z-on ro‘
Natavonad, ki taaqqul kunad idrok turo.

Qismi yoroni tu gar zoriyu g‘amnoki shud,
Lek zore nabuvad chun mani g‘amnok turo.

Zada saf xayli akobir, ki baroyad Maxdum,
Muxlisonro makun az didani ro‘yat mahrum[216].

Hammalari yig‘lab, sening yukingni bukchaygancha eltib bordilar.
Tobuting har poyasi bir ulug‘ zot yelkasida,
Lekin to‘rtovlari bir bo‘lib, dod solib yig‘ladilar.
Bir olamni boshqa bir olamga olib borish,
Bundayin ogoh yuk tashuvchilardan boshqaga mumkin emas.
Ulkan betoqatlik yuz berdiki, shuncha ko‘p ko‘zlar bilan ham
Aylanuvchi osmon o‘sha tomonga qaray olmadi.
Garchi tuning nur bilan oydindek oppoq esa-da,
Lekin hech kim bunday qora kunni ko‘rgan emas edi.
Namozingga minglab kishilar to‘plandi,
Yuz minglab malaklar havoda saf tortdi.

[216] * * *

Hamma fig‘on tortib, dilini chok qilib, seni olib bordilar»
Tuproq ko‘ksiga seni xazinadek joyladilar.
Muridlar guruhidagi hammaning dili chok,
Har biri seni shu chok bo‘lgan diliga tortmoqchi bo‘ldi.
Jahon poklarining boshlig‘i eding, shuning uchun (ham) pok tangri,
Pok (qilib) yaratdi seni-yu, yana pok olib ketdi.
Visol daryosiga cho‘mding, himmat ko‘zida
Senga jannat – gulxanu to‘bi (daraxti) bir xashakdek tuyiladi

* * *

Do‘ston, dar hama fan nodirai olam ku?
Afzalu afsahi ajnosi bani odam ku?

Dar biyoboni tamannosh xaloyiq murdand,
Ba davoi hama on Xizri Masihodam ku?

Dili ahbob shud az teg‘i firoqash sad zaxm,
On ki budi hamaro xulqi xushash marham ku?

Xoma ro‘ karda siyah, sinai xudro zada chok
Ki xudovandi man on bar ulamo a’lam ku?

Xujra xoliyu pareshon shuda avroqi kutub,
Sohibi hujra kujo, noziri onho ham ku?

Dar saro nest ba juz xudkushii g‘amzadagon,
On ki taskin dihad inrovu xuro‘shon g‘am ku?

Dar Xuroson natavon guft, ki kas xurram nest,
Kas ki dar rui zamin yoft shavad xurram ku?

Na ki dar xonaqahi zuhd fitod in motam
Dar xaroboti fano niz ba juz motam ku?

Ey ki budan ba fano ahd kuny boqii umr,
Andar-in dayri fano ahdi baqo mahkam ku?

Ishqbozon zi g‘am otash ba dil afro‘xtand,
Jongudozon ham az in otashi g‘am so‘xtand[217].

Sening pok ruhing to‘qqizinchi osmonga shoshildi.
Binobarin, taning yer ostida qolsa, senga ne zarar?
Hamma jahon poklarining pok taniga,
Sening pok taningga osmondan yetishgan (narsalar) yetishdi.
Falaklarga sayr etishing (sababi) shundaki, payg‘ambar
Sen bilan sirdosh bo‘lishlikni xudodan so‘radi.
Ma’nolarni idrok etishlikda sen aqli raso eding,
Shuning uchun idrok sen haqingda aql yurita olmaydi.
Garchi yoronlar qismati senga zorlik va (qayg‘ungda) g‘amginlik ekan,
Lekin men g‘amgindek, biror zor bo‘lmasa kerak.
Ulug‘lar Maxdum keladilar, deb saf tortishdi,
Muxlislarni yuzingni ko‘rishdan mahrum qilma.

[217] * * *

Do‘stlar, hamma fanda olam yagonasi qani?
Odam bolalari jinsidan eng afzali, eng so‘zga chechani qani?
Orzu biyobonida xaloyiq halok bo‘ldi,
Hammaning davosi bo‘lgan Masiho nafasli Xizr qani?
Do‘stlarning dili firoqing tig‘idan yuz yara bo‘ldi,
Yaxshi xulqi hammaga malham bo‘lgan (odam) qani?
Qalam yuzini qora qilib, siynasini chok aylab,

* * *

Ey, ki dar pesh girifti safari duru daroz,
Ki bad-in nav' safar har ki bishud n-omad boz.

Na ki az no'gi qalam boz bibasty rahi sehr,
Balki az bandi zabon burdy az ofoq e'joz.

Navfasi qudsiyat az kas natavon yoft digar,
Vahyro ba'da naby z-on ki nashud kas mumtoz.

Shohro mond ba jon z-otashi hijroni tu so'z,
Bandaro dar dili sad pora zi dog'i tu gudoz.

Na shahu banda, ki to ro'zi qiyomat dar dahr
Har ki boshad buvad az motami tu navhatiroz.

Garchi ro' dar tutuqi vasl nuhufty, ki shavy,
To abad jilvakunoya dar harami izzatu noz

Madad az ruhi puranvori xudat niz rason.
Ki, haroband zi hajri tu base ahli niyoz.

Ey rafiqon, hamaro oqibati kor in ast,
Fikri anjom kase beh, ki kunad az og'oz.

Har ki sad qarn bimonad yoa jahon ham ba fusun,
Biraboyad zijahonash falaki sho''badaboz.

Shohi ma'niro gar surat aftod chunin,
Bod to hashr shah suratu ma'ni omin[218].

Olimlar olimi bo'lgan mening egam qani? (deb so'ramoqda).
Hujra bo'sh va kitob varaqlari to'zib qoldi,
Hujra egasi qani? Ularga qarovchi qani?
G'amzadalar boshida o'zini o'ldirishdan boshqa fikr yo'q,
Ularga taskin beruvchi va bularga g'amkashlik qiluvchi qani?
Xurosonda hech kimni xursand deb bo'lmaydi,
Yer yuzida topilgan kishining xurrami qani?
Bu motam faqat zohidlik xonaqohiga tushmadi,
Foniylik dunyosida ham motamdan boshqasi qani?
Ey qolgan umrni foniylikda o'tkazishga ahd qilgan,
Bu foniylik dunyosida boqiylik ahdining mahkamligi qani?
Ishqbozlar qayg'udan dilga o't soldilar,
Jon fido qiluvchilar ham bu g'am o'tidan kuydilar.

[218] * * *

Ey uzundan-uzoq safarga ravona bo'lgan,
Bu xildagi safarga kimki chiqdi – yana qaytmadi.
Nainki qalam uchidagi sehrni yana bog'lading,
Balki til bandi bilan jahondan mo''jizani olib ketding.
Pok nafasingni boshqa biror kimsadan topib bo'lmaydi,
Chunki payg'ambardan keyin hech kim xabar keltirib imtiyozli bo'lmadi.

Shohning jonida sening hijroning o‘tidan yong‘in qoldi,
Bandaning yuz pora dilida g‘amingdan erib suv bo‘lish qoldi.
Na shoh, na banda, dunyoda qiyomat kunigacha,
Har kim tursa, sening motamingda faryod qiladi.
Garchi yuzingni vasl pardasi bilan yashirsang-da,
Izzat va noz haramida to abad jilva qilgaysan.
Nurlarga to‘la ruhingdan madad yetkazgaysan,
Chunki sendan judolikda ko‘p e’tiqod egalari xarobdirlar.
Ey rafiqlar, hammaning ishi oqibati shundaydir,
Oxirning fikrini boshdan qilish yaxshidir.
Jahonda yuz qarn yashagan kimsani ham afsun bilan
Uyin ko‘rsatuvchi falak jahondan uzib oladi.
Ma’no shohining surati agar shunday bo‘lsa,
Qismatgacha surat bilan ma’no shoh bo‘lgay! Omin!